

ISMAILOV IS'HAQJON OTABOYEVICH

ARUZ VA MUMTOZ POETIKAGA KIRISH

(O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA)

TOSHKENT - 2020

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ISMAILOV IS'HAQJON OTABOYEVICH

**ARUZ VA MUMTOZ
POETIKAGA KIRISH**
(O'QUV-USLUBIY OO'LLANMA)

**«ILM ZIYO ZAKOVAT»
Тошкент – 2020**

81.20`zb b-4 O-56

ISMAILOV, Is'haqjon, Aruz va mumtoz poetikaga kirish (o'quv-uslubiy qo'llanma) / I. Ismailov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Urganch davlat universiteti. – Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2020-yil. 92 Bet.

KBK 81.20`zb-4 635(50')

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yilda ro'yxatga olingan "Aruz va mumtoz poetikaga kirish" fani o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan. Unda "Aruz va mumtoz poetikaga kirish" fani bo'yicha olib boriladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning mavzulashtirilgan materiallari o'rin olgan.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmadan filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishlarida fan bo'yicha olib boriladigan ma'ruza mashg'ulotlarida unumli foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir

Safarboy Ro'zimboyev – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:


Dilshod G'ayipov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

San'atbek Sariyev – filologiya fanlari doktori, dotsent.

Nasiba Sobirova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'quv-uslubiy qo'llanma Urganch davlat universiteti Filologiya fakultetining 2020-yil fevral oyidagi № 6-yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-5770-0-8



© Ismailov Is'haqjon Otaboyevich

© «Ilm ziyo zakovat» 2020 йил.

KIRISH

Har bir xalqning o'tmishini, kishilik jamiyatida tutgan mavqeyini belgilashda mumtoz adabiyotning o'rni beqiyos, albatta. Jumladan, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini badiiy tahlil qilar ekanmiz, aruz vazni bu jarayonning ajralmas bo'g'ini sifatida ko'zga tashlanadi. Hijolarning cho'ziq-qisqaligiga asoslanuvchi bu vaznni o'rganish orqali mumtoz lirikamizning oson o'zlashtirilishiga erishish mumkin.

Mumtoz she'riyatimizga xos yetuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo'lish, har bir ijodkor nazmiy merosining badiiy salohiyatini anglab yetish, so'z san'atining lutfini his etish uchun ham aruz she'riy o'lchov tizimining nazariy qonun-qoidolari va amaliy xususiyatlaridan atroflicha xabardor bo'lmoq talab etiladi.

Aruz she'riy o'lchov tizimida yaratilgan mumtoz lirikamizni ifodali o'qishda ham har bir bahrning o'z o'rni bor. Misralardagi hijolarning miqdoriga qarab o'qilish ohangi ham o'zgarib boraveradi. Har bir hijoning cho'ziq-qisqaligiga qarab aniq talaffuz qilinishi o'ziga xos ritmni yuzaga keltiradi. Bu orqali shoirning she'r yaratilayotgan paytdagi har bir nafasini ham his qilish mumkin.

O'tgan asr boshlaridagi siyosiy o'zgarishlar natijasida aruzga bo'lgan e'tibor bir qadar susayib ketdi. Oqibatda xalqimiz mumtoz lirikamizning haqiqiy ta'mini bir qadar unuta boshladi. Mustaqillikdan so'ng boshqa sohalarida bo'lgani kabi mumtoz badiiyat ilmini batafsil o'rganish uchun bir qator ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma ham aruz she'riy sistemasini o'rganishga kirishganlar uchun yaqindan ko'mak beradi deb umid qilamiz.

I modul. ARUZ VAZNINING PAYDO BO'lishi VA TURKIY

SHE'RIYATGA KIRIB KELISHI.

1-mavzu: ARUZ TIZIMI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

ARUZNING NAZARIY ASOSLARI.

Reja:

1. *She'riy vazn tushunchasi.*
2. *Aruz she'r tizimi haqida.*
3. *Aruzning paydo bo'lishi. Nazariy asoslari.*
4. *Hijo va bo'g'in tushunchalarining qiyosi. Hijo turlari haqida. Cho'ziq, qisqa va o'ta cho'ziq hijolar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari*

Ma'lumki, she'riy nutq oddiy so'zlashuv nutqidan farq qiladi. Uning boshqa nutq shakllaridan ajratib turadigan birlamchi belgilari quyidagilar:

1. She'riy nutqning birlamchi belgisi **vazn**dir. Nutq bo'laklarining muayyan o'lchov asosida joylashtirilishi ritmni, bu esa o'z navbatida she'r yoxud nazmni yuzaga keltiradi. Dunyo xalqlari she'riyatining tarixiy taraqqiyotida turli-tuman she'riy vaznlar yoki vaznlar tizimi qo'llanilgan va qo'llanilmoqda.

2. She'riy nutqning ikkinchi muhim belgisi **qofiyadir**. Misra yakunida so'z, qo'shimcha, ba'zan esa, so'z birikmalarining ohangdosh bo'lib kelishi she'riy qofiya deyiladi.

She'r tuzilishida, uning musiqiyligini kuchaytirishda ohang hosil qiluvchi va uni kuchaytiruvchi qofiyaning ham katta ahamiyati bor. Qofiya lirik asarlarning musiqiyligi, ohangdorligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi, asarning yod olinishini osonlashtiradi.

3. She'riy nutqda ifoda, fikr badiiylashtirib beriladi. Bu o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. Badiiy tasvirlashning bir qancha vositalari mavjud. Mazkur vositalarning har biri adabiyot ilmda o'z mazmuniga ko'ra nom olgan va ularning jami badiiy tasvir vositalari yoki she'riy san'atlar deb yuritiladi.

Insoniyat o'z fikrini vaznga solgan qolda, badiiy suratda ifodalashni o'rgangan daqiqadan boshlab, bu hodisani ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq etish ham boshlandi. She'r va shoirlik haqidagi fikr-mulohaza va munosabatlar dastlab tizimga solinmagan holda ifodalangan bo'lsa, keyinchalik IX-X asrlardan boshlab ular muayyan tizimga solingan yaxlit ilm yoki fan sifatida shakllandi.

She'riyat nazariyasiga oid ilmlar qadimda uch turga ajratilgan hamda "ilmi segona" ("uchlik ilm") atamasi bilan yuritilgan. Bular "ilmi aruz" (aruz vazni qonuniyatlari va shakllari haqidagi ilm), "ilmi qofiya" (qofiya va uning turlari, qofiya tarkibi haqidagi ilm) hamda "ilmi bade'" (she'riy san'atlar haqidagi ilm).

Ta'kidlanganidek, vazn she'riy nutqning asosiy belgilaridan biridir. Dunyo xalqlari she'riyatining tarixiy taraqqiyotida turli-tuman she'riy vaznlar yoki vaznlar tizimi qo'llangan va qo'llanilmoqda. Ular hozirgi adabiyotshunoslikda ikki guruhga bo'linadi.

1. **Kvantitativ** (nemis tilidan olingan bo'lib, "*miqdor*" ma'nosini bildiruvchi so'z) she'riy tizimlar.

Kvantitativ she'r tuzilishida misralardagi cho'ziq va qisqa hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslaniladi. Bunday vaznlar manbalarda metrik (metr-o'lchov) vaznlar nomi bilan ham yuritiladi. Hind, arab, fors-tojik, grek va yunon she'riyatidagi vaznlar, shu jumladan, aruz ham kvantitativ she'riy tizimlar sirasiga kiradi.

2. **Kvalitativ** (lotin tilidan olingan bo'lib, "*sifat, urg'uli*" ma'nolarini bildiruvchi so'z) she'riy tizimlar.

Kvalitativ she'riy tizimlarda misralardagi hijolar miqdorining tengligi, urg'ularning muayyan tartibiga asoslaniladi. Shunga ko'ra ular uchta asosiy guruhni tashkil etadi:

1. **Sillabik** (bo'g'in) – bo'g'inlar yoki hijolar sonining tengligiga asoslanuvchi vaznlar.

2. **Tonik** (urg'u) – urg'uli bo'g'inlarning muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

3. **Sillabik-tonik** (bo'g'in-urg'u) – bo'g'in va urg'ularning miqdori hamda muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

Rus, fransuz, polyak, serb va boshqa xalqlar she'riyati, shu jumladan, o'zbek she'riyatidagi barmoq she'riy tizimi kvalitativ she'riy tizimlar sirasiga kiradi.

Quyidagi misralarni solishtirib, hijolar soni, urg'ular o'ri hamda hijolarning cho'ziq-qisqaligiga e'tibor bering:

1-misol:

Vodi'ylarni yayov kezga`nda, = 9 ta hijo

— — — V V — — — —

Bir aji'b his bor edi ma`nda = 9 ta hijo

— V — — — V V — —

Izoh: "V" – qisqa bo'g'in, "—" – cho'ziq bo'g'in, " " –urg'u belgisi

Mazkur satrlarda urg'ularning ham cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning ham muayyan tartibi mavjud emas, ya'ni ikkala misrada ular bir xil emas. Bunda faqat hijolar miqdori (9 ta) hamda bu hijolarning pauza (to'xtash) bilan ajratiladigan ritmik bo'lak-turoqlarni (4+5) tashkil qilishiga asoslaniladi.

2 - misol:

Yigitla'r maktubi'n bitganda qonda'n, = 11 ta hijo
 V -- -- V -- -- V -- --
 Kelinla'r firoqda'n chekkanda yohu'. = 11 ta hijo
 V -- -- V -- -- -- V -- --

Bu satrlarda bo'g'inlar soni (11 ta) hamda urg'ularning muayyan tartibi (uchinchi, oltinchi, to'qqizinchi va o'n birinchi hijolarda) mavjud.¹ Biroq cho'ziq va qisqa hijolarning tartibi doimiy emas. Xususan, 1-misraning 4-hijosi (**mak**) cho'ziq bo'lsa, keyingi misraning shu hijosi (**fi**) qisqadir.

3-misol:

Baholik dino-r ul biliklik kishi = 11 ta hijo
 V -- -- V -- -- V -- -- V -- --
 Bu johil, biliksiz bahosiz bishi = 11 ta hijo
 V -- -- V -- -- V -- -- V -- --

Baytda bo'g'inlar soni (11 ta) teng bo'lishidan tashqari, ularning cho'ziq-qisqaligi ham bir xil tartibda takrorlangan. Biroq birinchi misradagi "dinor" va "ul" so'zlari alohida urg'uga ega bo'lsa, ikkinchi misradagi "biliksiz" so'zida bitta-oxirgi bo'g'inda urg'u mavjud. Demak, bu baytda hijolar miqdori hamda cho'ziq-qisqaligining muayyan tartibiga e'tibor qaratilgan.

She'riy vaznlar shu tariqa bir-biridan farqlanadi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, keltirilgan misollar orasida so'nggi baytning vazn-o'lchov talabi boshqalariga nisbatan murakkabroq. Unda so'zdagi hijolar soni yoxud birgina hijoda mavjud bo'ladigan urg'uni inobatga olishning o'zi yetarli emas. Balki har bir hijoning sifati, cho'ziq yoki qisqaligini e'tiborga olish va bir xil tartibga qat'iy rioya etish talab qilinadi. Bu esa she'rni ijod etuvchi muallifdan ham, uni tahlil yoxud shunchaki mutolaa qiluvchi kishidan ham puxta tayyorgarlik talab etadi. Vaholanki, ko'rib o'tgan misolimiz aruz she'riy tizimidagi eng sodda vaznlardan biridir. Siz bilan birga o'zlashtirmoqchi bo'lgan fanimiz ayni shu tayyorgarlik vazifasini o'taydi.

¹ Bu o'rinda A.Oripovning mashhur she'ridagi aynan shu misralarning o'zi nazarda tutilgan.

Aruzni o'rganishning bo'lajak adabiyotshunos uchun qanday ahamiyati bor?

1. Aruzni, uning o'ziga xos ohanglarini bilish, shu vaznda yozilgan asarlarning faqat mazmunidagina emas, ohang jozibasidan ham zavqlana olish, shu mazmunning shakl bilan mutanosibligini his qilishga ko'maklashadi. Bunday zavqni odatda so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

2. Aruz qonuniyatlarini puxta o'rganish ijodkor badiiy mahoratini to'laroq tasavvur qilish imkonini beradi. O'zbek adabiyoti tarixida vazn imkoniyatlaridan mohirona foydalanadigan, yangi vaznlar ijod eta oladigan, an'anaviy vazn talablariga to'la rioya etadigan hamda an'anaviy vazn qoliplaridan ba'zan chetga chiqadigan shoirlar mavjud. Bu esa shoir badiiy mahorati mezonlaridan biridir.

3. Aruz mustahkam o'lchovlarga ega bo'lganligi uchun uning yordamida she'riy matnlardagi odatiy va tasodifiy xatolarni aniqlash imkoniyati mavjud. Nodir qo'lyozmalarni to'g'ri o'qish va nashrga tayyorlash uchun ham aruz ilmi va amaliyotini bilish zarurdir. Zero, har qaysi asarning poetik xususiyatini bilishda, vazni, har bir hijoning cho'ziq yoki qisqaligini anglab ularni bexato o'qishda aruzdan boxabarlik tayanch asos bo'lib xizmat qiladi. Mumtoz she'riyatimizning ko'plab nashrlarida uchrab turadigan matn xatoliklari, saktaliklar nashrga tayyorlovchi olimlar va nashriyot xodimlarining vazn masalasiga e'tiborsiz qarashlari oqibati ekanligi shubhasizdir. Masalan, 11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligida ham ana shunday holatlarni kuzatishimiz mumkin². Jumladan, darslikning 177-betida tuyuq janri vazni haqida "Tuyuqning vazni ramali musaddasi maqsur yoki mahruf bo'ladi" deb fikr bildiriladi. "Mahruf" so'zi aslida "mahzuf" shaklida bo'lishi kerak edi. Shu betda ruboiy janrining hazaj bahrída, tuyuq janrining ramal bahrída yozilishi to'g'ri ta'kidlab o'tiladi. Lekin 179-sahifada "Qish bo'ldi-yu..." deb boshlanuvchi, 180-sahifada esa "Yo qildi" radifli ruboiylar negadir tuyuq janri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu she'rlarning tuyuq emas, balki ruboiy ekanligini quyida ko'rib o'tamiz:

Qish bo'ldi-yu, bo'ldi bar/cha tom-u tosh/ qor,

- - V/V - V - / V - - - / ~

Maf'ulu, mafoylun, mafoylun, fo'.

Jamiya/ti bor kishi/ga bordur xush/ qor,

-- V/V - V - / V - - - / ~

Maf'ulu, mafoylun, mafoylun, fo'.

² Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018-yil. I qism.

Bu qishda /yomon yo 'l-u/ parishon ho/lim,

— — V/V — V — / V — — — / —

Ma'f'ulu, mafoylun, mafoylun, fa'.

Yo Rab, me/ni yaxshiliq/ sarig'a bosh/qor.

— — V/V — V — / V — — — / ~

Ma'f'ulu, mafoylun, mafoylun, fo'.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, she'rning 1-, 2-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall*, 3-misrasi esa *hazaji musammani solimi abtar* vaznida yaratilgan.

Qadimni /firoq(i) meh/nati yo qil/di.

— — V/V — V — / V — — — / —

Ma'f'ulu, mafoylun, mafoylun, fa'.

Ko'nglum g'a/m-u andu h o 'tig'a yoqil/di.

— — V/ V — V — / V — — — / —

Ma'f'ulu, mafoylun, mafoylun, fa'.

Holimni /sabog'a ay/ti b erdim, ey /gul,

— — V/V — V — / V — — — / —

Ma'f'ulu, mafoylun, mafoylun, fa'.

Bilmon, se/nga sharh(i) qil/madi yo qil/di.

— — V/ V — V — / V — — — / —

Ma'f'ulu, mafoylun, mafoylun, fa'.

Bu she'r vazni ham yuqoridagi she'rning uchinchi misrasi kabi *hazaji musammani solimi abtar* vaznida yaratilgan.

Ko'rinadiki, yuqoridagi har ikkala she'r ham ruboiy vaznida yaratilgan. Qofiyasida tajnis san'ati qo'llangan har qanday she'rni tuyuq deb qaramasligimiz kerak. Chunki vazn bo'yicha she'rlar bir-biridan farqlanishi mumkin.

Darslikning 182-betiga kelib, boshqa bir holatga duch kelamiz. Mashrabning "*Ko'nglimni berdim...*" deb boshlanuvchi g'azali misolida aruz va barmoq vazni o'zaro qiyos qilingan. She'r vazni — — V — / — — V — / — — taqte'si bilan beriladi. Vaholanki, bayt paradigmasi umuman boshqacha shaklda bo'lishi kerak:

Ko'nglim/ni berdim /bir be/vafoga

— — / V — — / — — / V — —

Fa'lun / fauvlun / fa'lun / fauvlun

Kuydi /yuragim /jabr-u/ jafoga.

— — / V — — / — — / V — —

Fa'lun / fauvlun / fa'lun / fauvlun

Mutaqoribi musammani aslam vaznida yaratilgan ushbu she'r paradigmasi aslida yuqoridagidek bo'lad.

Keltirilgan misollar faqat shu nashrlardagina tahririyat tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar. Biroq barcha nashrlarda takrorlanuvchi, odat tusiga kirgan nuqsonlar ham yo'q emas.

4. Aruzni bilish she'riy janrlarni farqlash va to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi. Zero, ruboiy, tuyuq, mustazod kabi janrlar uchun vazn asosiy xususiyat sanaladi.

Boshlamoqchi bo'lgan ishimizning bundan boshqa ham ko'plab foydali jihatlari mavjud bo'lib, ular mashg'ulotlar davomida oydinlashadi.

Jahon she'riyatidagi vaznlar, xususan, aruz haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish uchun quyidagi manbalarga murojaat etish mumkin:

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1980. 287-331-betlar.

2. To'ychiyev U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – T.: Fan, 1985. 51-53-betlar.

3. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1995.

4. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA'LIM-MEDIA, 2019.

Aruz barmoqqa nisbatan ancha murakkab, ayni chog'da ancha mukammal o'lchov tizimi. Ushbu o'lchovda bitilgan she'riy asarlarni ifodali o'qish uchun ham aruz tizimi asoslari, uning xilma-xil bahr hamda vaznlari, ularning ruknlari va chizmalari, o'ta cho'ziq hijolar, vasi hodisasi, imola, tag'yir, azl kabi holatlarni anglab yetmoq zarur. O'rta maktablar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari hatto o'qituvchilarining, shuningdek, radio va televideniye diktorlari, badiiy so'z ustalari, teatr aktyorlarining aruzda bitilgan she'riy asarlarni ifodali o'qishda qiynalishlari ham aruz nazariyasi va amaliyotini chuqur egallamaslik oqibatidir.

Bezavol mumtoz she'riyatimizga xos yuksak badiiylilikni chuqur anglab yetmoq uchun ham aruz ilmini puxta o'zlashtirish shart. She'riy o'lchov badiiy asar shaklining muhim bir qirrasini tashkil etishi adabiyot muxlislari va mutaxassslariga yaxshi ma'lum. Shunday ekan, she'riy asarda tanlangan vazn va shoirning undan foydalanishdagi mahoratini kashf etish ijodkorning badiiy salohiyati darajasini belgilashga imkon berishi shubhasiz. Zero, har qanday she'riy asarda vazn tasodifiy tanlanmaydi. Ijodkor o'z g'oyaviy-badiiy niyatidan kelib chiqqan holda

o'zi ifodalamoqchi bo'lgan g'oyalar, tasvirlamoqchi bo'lgan lirik yoki epik timsollar, asarda aks ettiriluvchi voqealar, hissiyotlarni yuksak badiiyat bilan jilolantirishga qo'l keladigan she'riy o'lchovlarga murojaat etadi, ularning ritm-ohang imkoniyatlari zaminida ta'sirchan, mazmundor va nafis misralar, baytlar, bandlar yaratadi.

Mumtoz she'riyatimizning bizga qadar yetib kelgan nodir qo'lyozmalarini to'g'ri o'qish va nashrga tayyorlash uchun ham aruz ilmi va amaliyotini bilish zaruriy shartlardan sanaladi. Zero, har qaysi asarning vazni, misralarning rukn xususiyatlari, har bir hijoning cho'ziq yoki qisqaligini anglash ularning bexato o'qilishiga imkoniyat yaratadi. Mumtoz she'riyatimizning ko'plab nashrlarida uchrab turadigan matn xatolari, saktaliklar nashrga tayyorlovchi olimlar va nashriyot xodimlarining vazn masalasiga e'tiborsiz qarashlari oqibati ekanligi shubhasizdir.


Hozirgi she'riyatimizda aruz vaznidagi g'azal va ruboiylar, muxammas va musaddaslar bitish an'anasi davom etmoqda. Yosh ijodkorlar orasida ham ushbu o'lchovga ishtiyoq kuchayib bormoqda. Ma'lumki, mazkur vazn asosida asar yaratish uchun aruz nazariyasi va amaliyotini puxta egallash darkor. Hozirgi adabiyotimizda aruz zaminida yozilgan she'rlarning vaznlar jihatidan cheklanganligi, ohanglar jilosining mahdudligi ijodkorlarning aruz imkoniyatini atroflicha o'rganib olmaganliklari, bu o'lchov tizimiga xos bir necha oson vazn bilangina kifoyalanayotganlari natijasidir. Aruz ilmini chuqur o'rganish, buyuk shoirlar ijodining vazn xususiyatlarini tadqiq etish, bu sohadagi mahorat sirlaridan bahramand bo'lish ushbu o'lchov asosida g'oyaviy-badiiy barkamol, ohanglar jihatidan rang-barang va jozibador badiiy durdonalar yaratishga imkon berishi muqarrar.

Aruz ilmini puxta egallash mumtoz adabiyotimiz obidalarini bo'lmish dilbar g'azal-u muxammaslarga musiqa bastalovchi bastakorlar-u shu asarlarni ijro etuvchi xonandalar uchun ham nihoyatda zarur.

She'riy asarning vazn xususiyatlarini yaxshi bilmaydigan bastakor unga musiqa tanlash yoki bastalashda nuqsonlarga yo'l qo'yishi, aruzda bitilgan asarlarni o'qiy olmaydigan xonanda ashula so'zlarini buzib talaffuz etishi tabiiy. San'atkorlar aruz xususiyatlarini puxta o'zlashtirgan holdagina bu kabi nuqsonlardan xalos bo'lishlari mumkin.

Turkiy adabiyotlar, jumladan, o'zbek she'riyatida, taxminan, IX asrdan beri qo'llanib kelinayotgan she'riy o'lchov tizimi aruz bo'lib, ko'pchilik aruzshunoslar ta'kidicha, ushbu ilm asoschisi Xalil ibn Ahmad yashagan joy yaqinidagi voha ismidan olingan. Alisher

Navoiy o'zining «Mezon ul- avzon» asarida bu haqda to'xtalar ekan: «Xalil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fanning voizidur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodi (bor) ermishki, ani «Aruz» derlar ermish va ul vodiya a'rob uylarini tikib jilva berib, bahoga kiyururlar ermish. Va uyni arab bayt der. Chun baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzunini nomavzundin ayururlar, go'yoki qiymat va bahosi ma'lum bo'lur. bu munosabat bila «aruz» debturlar», — deb ta'kidlagandi. (Rasmga qarang)



«Jami'-ul-muxtasar» asarining muallifi Vohid Tabriziy esa: «So'zlashuv tilida chodir uyni tutib turishi uchun uning o'rtasiga qo'yiladigan yog'ichni «aruz» deydilar. Aruziylar (ya'ni aruz bilimdonlari) baytdagi birinchi misraning oxirgi ruknini «aruz» deb ataydilar. Chodir uyni shu yog'och ushlab turganidek, bayt ham mana shu ruknga tayanadi, zero bu rukn o'qilganda, ushbu she'rning qanday vazn asosida yaratilganligi, uning to'g'ri yoki noto'g'riligi ayon bo'ladi», — deb yozadi.

Aruz tizimi qisqa va cho'ziq hijolarning she'r misralarida muayyan tarzda guruhlanib takrorlanishiga asoslanadi. Hijolarning bu xil takrori she'rda mayin va musiqiy ohang yaratishni ta'minlaydi.

Aruz tizimining eng kichik bo'lagi sokin, ya'ni mustaqil undosh yoki cho'ziq unli, shuningdek, mutaharrik, ya'ni harakatli, o'zidan keyin qisqa unlilar keluvchi undosh harflardir. Ularning turlicha birikuvidan sabab, vataad, fosila deb ataluvchi yirikroq bo'laklar, ularning ham birikuvidan esa aruz asosi bo'lgan 8 ta asosiy asl bo'laklar — ruknlar

yuzaga keladi. Faulun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, maf'ulotu, mutafoilun va mafoilatun leb ataluvchi ushbu asl ruknlarning aynan yoki turlicha birikib takrorlanishidan aruz tizimining asosiy o'lchovlari – bahrlar hosil qilinadi. Bahrlarning soni 19 ta bo'lib, ular **mutaqorib**, **mutadorik**, **hazaj**, **ramal**, **rajaz**, **komil**, **vofir** bahrlari bir xil rukn takroridan; **xafif**, **mujtass**, **muzori'**, **munsarih**, **muqtazab**, **tavil**, **madid**, **basit**, **qarib**, **mushokil**, **g'arib**, **sari'** bahrlari ikki xil rukn takroridan hosil bo'ladi. Bu o'n to'qqiz bahrdan 11 tasi o'zbek adabiyotida qo'llanilgan bo'lib, ular mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil, muzori', mujtass, xafif, munsarih va sari' bahrlaridir.

Har qaysi bahr bir necha vazn – o'lchovni o'z ichiga oladi. O'zbek she'riyatida jami 100 atrofida vazn qo'llangan.

Aruz tizimi vaznlari asosida yaratilgan lirik she'rlar yoqimli musiqiy ohangga ega bo'lib, kuylash uchun qulaydir. Bunday asarlar mumtoz musiqamiz va xalq musiqasining yuzlab kuylariga nihoyatda mos tushadi.

Arab she'riyatiga VIII asrdan tatbiq etilgan mazkur o'lchov tizimi IX asr boshlaridanoq fors-tojik adabiyotida ham qo'llanila boshlandi hamda Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, keyinroq Umar Xayyom, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy kabi buyuk shoirlar ijodidan mustahkam o'rin egalladi.

Qisqa va cho'ziq hijolarning she'r misralarida muayyan mutanosiblikda takrorlanishiga asoslangan o'lchov tizimi qadimgi turkiy adabiyotda arab istilosiga qadar ham qo'llanib kelingan edi. Shartli ravishda «Qadimgi turkiy aruz» deb atalishi mumkin bo'lgan mazkur o'lchov tizimi xususiyatlarini Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» kitobidan o'rin olgan qadimiy qo'shiqlar va lirik she'rlar misolida yaqqol kuzatish mumkin.

IX–X asrdarda turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan ko'plab shoirlar o'sha davr an'analari muvofiq o'z asarlarini arab tilida bitar ekanlar, aruz o'lchoviga asoslandilar. Xilma-xil musiqiy va jozibador vaznlar zaminida g'oyaviy va badiiy jihatdan barkamol qasida va g'azallar, ruboiy va qit'alar yaratdilar. XI asrning mashhur adabiyotshunos olimi Abu Mansur as-Saolibiyning «Yatimat-ud-dahr» kitobida bunday ijodkorlardan ko'plarining nomlari va asarlari zikr qilingan. Bu davrda turkiy tilda ham aruzning yengil va o'ynoqi o'lchovlarida ko'plab lirik she'rlar yozilganligi shubhasiz. Zero, bu xil tajribalarsiz XI asrda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik»dek yirik dostonining maydonga kelishi amrimahol edi.

XII asr turkmy adabiyotining namunasi sifatida bizgacha yetib kelgan «Hibatul haqoyiq» dostoni aruz nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirib, nafis badiiy asarlar yaratish an'anasi bu davrda ham davom etib rivojlanib borganidan dalolat beradi. XIII–XIV asrlar davomida aruz o'lchovi Pahlavon Mahmud, Badriddin Chochiy kabi mutafakkir shoirlarning forsiy she'riyatida ham, Nosiriddin Rabg'uziy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroyi kabi sohibi kalomlarning turkiy asarlarida ham keng qo'llandi va o'zbek alabiyotining asosiy she'riy mezon bo'lib qoldi. Bu ijodkorlar tomonidan ko'plab lirik she'rlar, «Qisasi Rabg'uziy» kitobidagi g'azal va qasidalar, qit'a va masnaviylar, «Muhabbatnoma» dostoni, «Xisrav va Shirin», «Guliston» tarjimalari kabi o'lmas asarlarni bitishda mohirona foydalanilgan 30 dan ortiq vazn aruz o'lchovining adabiyotimizga tobora chuqurroq kirib borganini, shoirlarimiz ushbu murakkab o'lchov tizimi nazariyasini tobora puxtarroq egallab, xilma-xil vaznlar asosida go'zal she'riy badialar yaratish mahoratini ham izchillik bilan o'rganib borganlarini ko'rsatib turibdi.

XV asr o'zbek aruzi rivojida alohida bosqich sanaladi. Chunki bu davrning birinchi yarmida Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Durbek, Sayfi Saroyi, Lutfiy singari turkigo'y ijodkorlar o'z asarlarini aruzning eng jozibali o'lchovlari asosida yaratib ko'plab vaznlarni she'riyatimizga olib kirgan bo'lsalar, buyuk Alisher Navoiy o'zining lirik she'rlari, dostonlarini yaratish jarayonida aruz o'lchovining barcha imkoniyatlarini sinovdan o'tkazib, yuzga yaqin vaznni qo'llab, bu sohada eng yaxshi muvaffaqiyatlarga erishdi.

Alisher Navoiyning mazkur sohadagi an'alarini davom ettirgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek aruzini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tardi.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur izidan borgan o'zbek shoirlari xilma-xil vaznlarni o'z she'riyatlarida san'atkorlik bilan qo'llab borib o'zbek aruzini kamol toptirdilar, qator-qator yangi o'lchovlarni kashf etib, uni yanada takomillashtirdilar. Bu sohada Mashrab va Nodira, Munis va Ogahiy, Muqimiy va Furqat, Hamza va Avloniy kabi sohibi kalomlarning xizmati katta bo'ldi.

Aruz inqilobdan keyingi davrda ham o'zbek she'riyatining asosiy she'riy mezonlaridai biri bo'lib xizmat qildi. Cho'lpon, H. Olimjon, G'G'ulom, Oybek, Uyg'un kabi shoirlarimiz asosan barmoq vazni asosida ijod qilgan bo'lsalar ham, eng yaxshi lirik she'rlarini yaratishda aruzga ham murojaat qildilar. Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy

kabi ijodkorlarning aksar asarlari mana shu she'rni mezon asosida yozilgan edi.

60-yillari iqtidorli yosh shoir Erkin Vohilov o'zining «Yoshlik devoni» bilan she'riyatimizda aruzning qayta jonlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning qadimiy, lekin g'oyat musiqiy, zamondoshimizga xos lirik kechinmalarni nihoyatda latif ifodalashga imkon beruvchi mazkur qadimiy o'lchovdagi she'rlari aruz imkoniyatlarini yana bir bor namoyish qildi, uning hali o'z umrini tugatmaganini, bu o'lchov zaminida rang-barang tuyg'ular mavjini eng dirlabo misralarda jilolantirish mumkinligini isbotlab berdi. 1960-80- yillardagi yoshlar she'riyatida aruz mezonidagi ko'plab lirik asarlar bevosita mana shu devonning ta'siri ostida yaratildi, desak xato bo'lmas. Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Oydin Hojiev, E'tibor Oxunova kabi ko'plab shoirlar o'z she'rlari bilan o'zbek aruzining go'zalligini, jozibali ohanglarga boyligini yana bir bor dalilladilar.

Hozirgi adabiyotimizda, 90-yillar she'riyatida ham aruz mustaqil O'zbekistonimizning dirlabo taronalarini, zamondoshimiz qalbdagi nozik va murakkab tuyg'ularni shaffof misralarda aks ettirish ishiga munosib xizmat qilib kelmoqda. Shoir Matnazar Abdulhakimning o'ziga xos ohanglarda aruz vaznida yaratgan she'rlari buning yaqqol misoli bo'la oladi.

Aruz tizimi asrlar davomida arab, fors-tojik va turkiy she'riyatlarda amaliy jihatdan qo'llanib kelishi bilan bir vaqtda ushbu adabiyotshunosliklarda nazariy jihatdan ham takomillashib bordi, aruz maxsus ilm sifatida maktab va madrasalarda muttasil o'rgatildi, mazkur she'riy mezon nazariyasi va amaliyotiga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratildi, risolalar bitildi. Xalil ibn Ahmadning «Al-aruz» risolasidan so'ng Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajiy kabi arab olimlari ushbu ilimga doir asarlar yaratib, aruz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar.

Aruz ilmi haqida, ayniqsa, fors-tojik adabiyotshunosligida ko'plab asarlar bitildi. Mavlono Yusuf Nishopuriy (X asr) forsiy tilda aruzga oid ilmiy asar yarapan olimlarning birinchisi edi. Rashiddin Vatvot (XIII asr)ning «Hadoyiq us-sehr», Shams Qays (XIII asr)ning «Al-mo'jam fi me'yor ash'or al-ajam», Nasriddin Tusiy (XIV asr)ning «Me'yorul ash'or», Salmon Savojiy (XIV asr)ning «Qasidatun masnuot al-aruz», Abdurahmon Jomiy (XV asr)ning «Risolayi aruz» asarlari fors-tojik aruzining nazariy va amaliy rivojida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Aruz ilmi rivojiga turkiy xalqlar orasidan etishib chiqqan adabiyotshunos olimlar ham munosib hissa qo'shdilar. Mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy (X asr), Abu Ali ibn Sino (X-XI asrlar), Abul Qosim Zamahshariy (XI-XII asrlar), Abu Ya'qub Yusuf ibn Abubakr Sakkokiy (XII-XIII asrlar) o'zlarining arab va forsiy tilda bitgan ilmiy asarlari bilan faqat arab va forsiy aruzlarga emas, ayni vaqtda turkiy aruz taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdilar.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishi va izchil rivojlanib borishida Alisher Navoiyning ilk bor *turkiy* tilda yaratilgan «Mezonul avzon» («Vaznlar o'lchovi») asari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug' mutafakkir shoir aruz qoidalarini, xilma-xil bahrlari hamda vaznlarini turkiy tilda mufassal bayon qilish bilan cheklanib qolmay, turkiy xalqlarning og'zaki she'riyati mezonini bilan aruz vaznlari hamohangligini atroflicha dalillash hamda turkiy til xususiyatlarini nazarda tutgan holda aruzning turkiy adabiyotlarda, xususan, o'zbek she'riyatida keng qo'llanishi mumkin bo'lgan ko'plab o'lchovlarini ham belgilab berdi.

O'zining lirik she'rlari va dostonlarini yaratishda aruzning rangorang vaznlarini sinchkovlik bilan sinovdan o'tkazgan Navoiy turkiy tillarda ham aruz o'lchovlari asosida turli-tuman janr va shakllarda g'oyat latif lirik asarlar yaratish va yirik dostonlarni bitish mumkinligini amalda isbot ham qilib bergan edi. Bu bilan shoir turkiy tilning beqiyos boyligi va betakror go'zalligini she'riy o'lchov jihatidan ham namoyish qildi.

O'zbek aruzining nazariy va amaliy jihatdan yanada kamol topishida Zahiriddin Muhammad Boburning «Muxtasar» deb nomlangan yirik ilmiy asarining axamiyati beqiyosdir. Olim va shoir Bobur aruzning nazariy asoslarini mukammal yoritadi, aruz o'lchovlarining forsiy va turkiy she'riyatlardagi mavqeyini, ko'lamini har ikki adabiyotning o'lmas namunalari bilan dalillaydi, ayni vaqtda o'zbek aruzi o'lchovlar doirasining nihoyatda kengligini ta'kidlash maqsadida she'riyatimizda qo'llanilishi mumkin bo'lgan 537 o'lchovni (ulardan 400 ga yaqini mutlaqo yangi, Bobur tomonidan kashf qilingan muxtari vaznlar) sanab o'tib, ulardan har biriga bir baytdan misollar keltiradi. Binobarin, «Muxtasar» o'zbek aruzi taraqqiyotida alohida o'rin tutadi.

XIX asr oxirlarida Zokirjon Furqat ham aruz ilmiga doir risola bitgan edi. Haligacha nashr qilinmagan bu asarni professor G'ulom Karimov Ostroumov fondidan topgan edi. 16 betlik bu kichik risolada shoir aruzning she'riyatimizda keng qo'llangan 55 vazni haqida ma'lumot

bergan, har qaysi o'lovga forsiy va turkiy adabiyotlardan misollar keltirgan³.

Inqilobdan keyingi davrda ham o'zbek aruzining nazariy va amaliy masalalarini ilmiy tadqiq etish davom etdi. 1936- yili Fitrat qalamiga mansub «Aruz haqida» risolasi nashr etildi. Olim unda aruz qonunlarini soddalashtirib bayon qiladi, she'riyatimizda qo'llangan eng musiqiy o'lovlarning ohang xususiyatlarini ta'kidlab, ularga o'zbek adabiyotidan misollar keltiradi.

1948- yili adabiyotshunos olim Sodiq Mirzayev «Navoiy aruzi» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yozib tugalladi. Tadqiqotda aruzning nazariy masalalari Navoiy «Mezonul-avzon»i asosida bayon qilingan, Navoiy she'riyatida qo'llangan bahrlar ta'kidlab ko'rsatilgan edi. Olimning ulkan xizmati shunda bo'ldiki, u Navoiyning «Xazoyin-ulmaoniy» asaridagi 3132 she'rning vazn xususiyatlarini ilk bor aniqlab chiqdi, ularning ruknlarini, chizmalarini belgilab berdi. Bu jadvallardan adabiyotshunoslarimiz hamuz foydalanib kelmoqdalar.

O'zbek aruzining nazariy va amaliy masalalari taniqli olim Alibek Rustamovning «Aruz haqida suhbatlar»⁴ risolasida ham o'z ifodasini topgan. Tadqiqotchi o'z asarida Fitrat risolasidagi an'analarni yanada rivojlantirib, aruz qonunlari, xilma-xil bahrlar, vaznlarning ohang xususiyatlarini osonlashtirib ifodalash usulini qo'lladi. Alibek Rustamovning Navoiy va Habibiy she'rlarining vazn xususiyatlari haqidagi tadqiqotlari ham o'zbek aruzidagi badiiy mahorat muammolarini hal qilish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Adabiyotshunos S.Hasanovning Bobur risolasi tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlari ham⁵ o'zbek aruzining nazariy va amaliy muammolarini hal qilishga, xususan, mazkur risolaning ilmiy-amaliy qimmatini atroflicha yoritishga bag'ishlangan edi.

Keyingi yillarda o'zbek aruzining nazariy masalalarini o'rganish ustida zahmatkash olim Ummat To'ychiyev jiddiy ilmiy tekshirishlar olib bordi, uning «O'zbek poeziyasida aruz sistemasi» sarlavhali yirik ilmiy asarida ana shu tadqiqotlarning natijalari o'z ifodasini topgan.

Adabiyotshunos A. Hojiahmedovning «Maktabda aruz vaznini o'rganish», «Aruz nazariyasi asoslari», D.Yusupovaning «Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari» asarlari ushbu o'lov tizimini

³ G'.Karimov. Xalq, tarix, adabiyot. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T.: 1977, 125-126-betlar.

⁴ Alibek Rustamov. Aruz haqida suhbatlar. T.: Fan, 1972.

⁵ S.Hasanov. Boburning «Aruz risolasi» asari, T.: Fan, 1981.

maktab va oliy o'quv yurtlarida o'rganishga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalari sifatida yaratildi.

Ko'rinib turibdiki, XV asrdan beri o'zbek aruzining ham nazariy, ham amaliy masalalari izchillik bilan tadqiq qilinib keldi, ushbu she'riy mezonning yetakchi xususiyatlari eng maqbul, musiqiy bahrlari hamda vaznlari belgilandi, imkoniyatlar ko'lami aniqlandi, ba'zi ijodkorlarning aruzdan foydalanishdagi mahorati munosib baholandi.

Lekin o'zbek aruzi tarixi, kamolat xususiyatlari, har qaysi o'zbek shoiri ijodidagi o'rni har bir sohibi kalomning ohang yaratishdagi san'atkorligini o'rganish sohasida ko'pdan ko'p muammolar adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan bo'lib turibdi. Bu muammolarni hal qilish uchun esa avvalo iqtidorli aruzshunos mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirish, maktab va oliy o'quv yurtlarida o'zbek aruzi nazariyasi va amaliyotini chuqur o'rganish lozim.

Aruz vaznida she'rning eng kichik bo'lagi bayt hisoblanadi. Bayt deganda biz, odatda, ikki misrani tushunamiz. Bayt ruknlardan, ruknlar esa juzvlardan tashkil topadi. Juzv so'zi arab tilida qism ma'nosini bildirib, jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanadi. Juzvlar arab alifbosidagi harflarning harakatli (*fatha, kasra, zamma*) yoki sokin tarzda qo'llanishidan hosil bo'ladi. Demak, baytning hosil bo'lishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:


harf → juzv → rukn → bayt

Hijo aruz tizimidagi she'riy nutqning eng kichik ritmik bo'lagi, ya'ni so'zning bir tovush to'ldirini bilan hosil bo'ladigan qismi. Hijo bo'g'in tushunchasiga yaqin bo'lsa ham, uning o'zi emas. Chunki hijo undosh tovushning o'zidan ham tashkil topishi mumkin. Bo'g'in barmoq vazniga xos bo'lib, so'zdagi unli tovushlar soniga qarab belgilanadi. Hijo esa unlilar soniga qarab emas, balki tovushning cho'ziq-qisqaligiga, ya'ni sifatiga qarab belgilanadi. Masalan, **osmon** so'zida ikkita bo'g'in mavjud, lekin hijo 4 ta (o-s(i)-mo-n(i)). Shuningdek, vasl, hajr, charx, baxt so'zlariga bir bo'g'in yoki ikki hijo sifatida qaraladi.

Hijolar unlilarning turlicha talaffuz etilishi, shuningdek, turlicha ajratilishi bilan ham bo'g'inlardan farq qiladi. Agar bo'g'inlar yozilishiga muvofiq ajratilsa, hijolar vaznga muvofiq o'qilishiga ko'ra ajratiladi. Bu holatda yopiq hijolar ochiq hijolarga aylanib qolishi mumkin.

Hijolar o'qilish jarayonida sarf bo'lgan vaqtiga qarab uch xil ko'rinishda bo'ladi: 1. Qisqa hijo. 2. Cho'ziq hijo. 3. O'ta cho'ziq hijo.

Bir qisqa unli yoki undoshdan keyin kelgan qisqa unli birikmasi (ochiq hijo) qisqa hijoni tashkil etadi. "Kitob", "vatan", "chaman"



soʻzlarining birinchi hijosi bunga misol. Bunday hijolar sheʼr chizmasida "V" belgisi bilan beriladi.

ARUZ JUZVLARI

Aruzning ruknlardan oldingi tarkibiy qismi juzvlar boʻlib, ular **sabab**, **vatad** va **fosila** deb nomlanadi. Agar ularning lugʻaviy maʼnosini aniqlamoqchi boʻlsak, sabab — arqon, vatad — qoziq, fosila — palos maʼnolarini beradi. yaʼni bu tushunchalar arablarning koʻchmanchi turmush tarzi bilan bogʻlanib ketadi.

Juzvlar	Juzv tarmoqlari	Paradigmasi
Sabab	hafif (yengil) saqiyl (ogʻir)	— VV
Vatad	majmuʼ (jamlangan) mafruf (ajratilgan)	V— —V
Fosila	sugʻro (kichik) kubro (katta)	VV— VVV—

Bu juzvlardan hafifi saqiyl va fosilayi kubro oʻzbek sheʼriyatida ishlatilmaydi.

Endi ayrim misollar tahlili orqali juzvlar nazariyasining amaliyotdagi ifodasini koʻrib oʻtamiz:

1. "Kam" (كم) — bu soʻz arab yozuvida ikki harf bilan ("kof" - k va "mim" - m) ifodalanadi. Birinchi harf harakatli (fatha - qisqa "a"), ikkinchisi esa sokin. Aruzshunoslikning hozirgi holatida bu soʻz bitta choʻziq hijoga teng, deb qaraladi. Aslida esa bu sababi xafif juzvidir.

2. "Kishi" (كش) — bu soʻz ikki harakatli harf ("kof" - k va "shin" - sh)dan tashkil topgan. Harakatlar (kasra) esa qisqa "i" tovushini ifodalaydi. Ikki qisqa hijodan iborat boʻlgan bu soʻz sababi saqiylidir.

3. "Tilim" (تلم) — bu soʻzda uchta harf ("te", "lom" va "mim") mavjud boʻlib, shundan ikkitasi harakatli ("te", "lom") va bittasi sokin ("mim"). Harakatlarning ikkisi ham kasra yaʼni qisqa "i". Demak bu bir qisqa va bir choʻziq hijodan iborat vatadi majmuʼ juzvidir.

4. "Kutma" (كتم) — Bu soʻzda ham uchta harf ("kof", "te" va "mim") mavjud. Shundan ikkitasi harakatli ("kof" - zamma - u; "mim" - fatha - a) va bittasi sokin ("te"). Biroq ularning ketma-ketligi oldingi misoldagiday emas. Bunda sokin harf ikki harakatli harfning oʻrtasida

kelgan. Shuning uchun bu soʻzning hijolar sifati teskari, yaʼni choʻziq + qisqa boʻladi va bu vatadi mafruqqa misol boʻla oladi.

Juzvlarning miqdori va tarkibiga oid bir-biridan farq qiluvchi qarashlar ham mavjud. Jumladan, Zahiriddin Boburning "Muxtasar" asarida:

➤ sababi mutavassit – bir harakatli va ikki sokin harf (*charx*);

➤ vatadi kasrat – ikki harakatli va ikki sokin harf (*daraxt*);

➤ fosilayi uzmo – besh harakatli va bir sokin harf (*tilamaganim*) kabi turlar ham koʻrsatilgan. Shuningdek, Boburning taʼkidlashicha, "Meʼyor ul-ashʼor"da faqat ikki juzv: sabab va vatad eʼtirof etilgan boʻlib, fosila shularning qoʻshilishi natijasidir. Xususan:

➤ fosilayi sugʻro – sababi saqiyl va sababi xafif;

➤ fosilayi kubro – sababi saqiyl va vatadi majmuʼ.

Juzvlarning turli tartibda qoʻshilishidan asl ruknlar hosil boʻladi. Masalan, "sen" va "san" soʻzlari bir harakatli va bir sokin harfdan iborat boʻlganligi uchun, yuqorida koʻrganimizdek, sababi xafif juzviga teng, "gulim" soʻzi esa, vatadi majmuʼ juzviga teng. Shu soʻzlarni turli tartibda keltirish orqali beshta rukn hosil qilish mumkin:

1. Gulim sen – vatadi majmuʼ + sababi xafif.

2. Sen gulim – sababi xafif + vatadi majmuʼ.

3. Gulim sen san – vatadi majmuʼ + sababi xafif + sababi xafif.

4. Sen gulim san – sababi xafif + vatadi majmuʼ + sababi xafif.

5. Sen san gulim – sababi xafif + sababi xafif + vatadi majmuʼ.

Mazkur beshta rukn vaznni ifodalovchi soʻzlar - **afoyil** yoki **tafoyillar** bilan hamda **paradigmalar**-shartli belgilar bilan quyidagicha ifodalanadi:

1. Gulim sen – Faʼuvlun: V – –

2. Sen gulim – Foʼilun: – V –

3. Gulim sen san – Mafoʼiylun: V – – –

4. Sen gulim san – Foʼilotun: – V – –

5. Sen san gulim – Mustafʼilun: – – V –

Asl ruknlar jami sakkizta boʻlib, ular harflar miqdoriga koʻra ikkiga ajratiladi:

1. Xumosiyy (besh harfli asllar) - 1, 2.

2. Suboʻiy (yetti harfli asllar) - 3, 4, 5, 6, 7, 8.

Sakkizta aslning hosil boʻlish usullari, afoyili va paradigmasi quyidagi jadvalda misollar bilan koʻrsatilgan.

Ogahiyning quyidagi baytini ruknlarga ajratib koʻramiz:

Hoki taning / barbo-d oʻlur / oxir jahon / da necha yil,

— — V — — — V — — — V — — — V —
 Say-r et Sulay / mondek agar / taxting qurub / bo-d ustina.
 — — V — — — V — — — V — — — V —

Demak, bayt "mustaf'ilun" aslining sakkiz marta takrorlanishidan hosil bo'lgan.

Alisher Navoiyning guvohlik berishicha, mazkur asllarning beshtasi fors-tojik va turkiy she'riyatda qo'llanadi: "Va ulcha bu sekkiz usuldin forsiy she'rda kasirul vuqu'dur – beshdur: mafo'iyun va fo'ilotun va mustaf'ilun va maf'uvlotu va fa'uvlun. Va turkcha she'rda ham ulcha mulohaza qililibdur, bu arkondin o'zga vuqu' topmas".

Shundan kelib chiqqan holda, biz ham mazkur besh asl va ulardan hosil bo'ladigan bahrlarga ko'proq e'tibor qaratamiz. Zero, asosiy maqsadimiz mumtoz she'riyatimizda qo'llanuvchi vaznlarni chuqurroq o'rganishdir. Barcha asl va juzvlar haqida qo'shimcha ma'lumot olmoqchi bo'lgan talabalar ko'rsatilgan adabiyot va manbalarga murojaat qilishlari mumkin.

Umumiy savollar:

1. Aruz vazni haqida ma'lumot bering.
2. Aruz vazni taraqqiyotiga alohida hissa qo'shgan shoirlardan kimlarni bilasiz?
3. Aruzshunos olimlardan kimlarni bilasiz?
4. Aruz vaznida yozilgan dastlabki turkiy tildagi asar qaysi?
5. Hijo va bo'g'in haqida ma'lumot bering.
6. Juzv turlarini sanab bering.
7. Hijo turlari farqlab bering.

Adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – T.: "O'qituvchi", 1995.
2. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. – T.: "Sharq", 1998.
3. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. – T.: 1972.
4. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA'LIM-MEDIA, 2019.
5. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. T.: 2006, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 196-201-betlar.
6. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. T. 14. – T.: Fan, 1967. – B.137.

2-mavzu: ARUZDA RUKN VA BAHK TUSHUNCHASI HAQIDA MA'LUMOT

Reja:

1. Asl ruknlar va ularning o'zgarish usullari.
2. Aruzda qo'llanuvchi ruknlar afoyli va paradigma.
3. Bahrlar va ularning hosil bo'lishi.
4. Aralash bahrlar haqida ma'lumot berish.

Tayanch iboralar: solim-to'liq, zihof, furu', qisqarish, sodda va murakkab zihoflar, hafz-mahzuf, qasr-maqsur, xarb-axrab, xarm-axram, kaff-makfuf, qabz-maqbuz va hokazo zihof va furu'lar

RUKN VA ULARNING TUZILISHI

Rukn arabcha «ustun» ma'nosini bildirib, aruz o'lchov tizimi asosidagi she'riy baytlarni tashkil qiluvchi kichik ritmik bo'lak hisoblanadi.

Juzvlarning turlicha birikuvidan tuzilib, ularga qaraganda yirikroq elementlardan aruz ruknlari tashkil topadi. Ularning soni sakkizta, ya'ni 8 ta asl rukn deb nomlanadi. Yuqorida ko'rsatilgan sabab, vatad, fosilalarning turlicha birikuvi ruknlarni hosil qiladi.

Rukn nomi	Bo'g'in soni	Tarkibi	Paradigma si
Faulun	uchta	vatadi majmu'+sababi hafif	V --
Foilun	uchta	sababi hafif+vatadi majmu'	-- V --
Mafoiylun	to'rtta	vatadi majmu'+ikkita sababi	V ---
Foilotun	to'rtta	hafif	-- V --
Mustaf'ilun	to'rtta	sababi hafif +vatadi majmu' +	-- -- V --
Maf'o'lotu	to'rtta	sababi hafif	-- -- -- V
Mafoilatun	beshta	ikkita sababi hafif+vatadi	V -- V V
Mutafoilun	beshta	majmu'	V V -- V
		ikkita sababi hafif+vatadi	
		mafruq	
		vatadi majmu'+fosilayi sug'ro	
		fosilayi sug'ro+vatadi majmu'	

Ruknlar har qaysi baytdagi o'rniga ko'ra ham turlicha nomlanadi: birinchi misraning birinchi rukni **sadr** (rais, boshliq ma'nosida), oxirgi rukni **aruz**, ikkinchi baytning birinchi rukni **ibtido'** (boshlovchi), oxirgisi – **zarb**, sadr bilan aruz, ibtido' bilan zarb o'rtasidagi barcha ruknlar sonidan qat'i nazar **hashv** deb ataladi.

Sadr / hashv / hashv / aruz
Ibtido / hashv / hashv / zarb (ajuz).

Ushbu ruknlarning turlicha birikuvidan aruzning 19 bahri kelib chiqadi.

Baytlar to'rttadan 36 tagacha rukndan tashkil topishi mumkin. To'rt ruknli baytlar murabba' (4 ruknli), olti ruknlilari musaddas (6 ruknli), sakkiz ruknlilari musamman (8 ruknli), 12 dan ortig'i (16, 20, 30, 36) mutatavvil (ko'p ruknli) deb yuritiladi.

Baytlardagi ritmik bo'laklarni o'lchash uchun qo'llanuvchi maxsus atamalar ham umumiy tarzda rukn deb yuritiladi. Ular asosiy va tarmoq ruknlarga (asllar va furu'larga) bo'linadi. Aruzga xos bahrlar tarkibini tashkil etuvchi asosiy sakkiz (ba'zi aruzshunoslar fikri bo'yicha o'nta asosiy ruknlar asllar (afoiylu tafoiyl yoki avzoni mavozin) deyiladi. Ular uch hijoli: faulun (chizmasi: V --), foilun (- V -); to'rt hijoli: mafoiylun (V -- -), foilotun (- V --), mustaf'ilun (- - V -), maf'ulotu (- - - V); besh hijoli: mutafoilun (V V - V -) hamda mafoilatun (V - V V -) ruknlaridir. Ushbu asllar mumtoz aruzshunoslik ilmiga ko'ra sokin va mutaharrik harflarning turli tarkibdagi birikuvidan, hozirgi aruzshunoslik ilmiga ko'ra esa qisqa va cho'ziq hijolarning turlicha tarkibidan hosil bo'ladi.

Yuqoridagi asllar she'riy baytlardagi turli-tuman hajm va ko'rinishdagi ritmik bo'laklarni o'lchash, aniqlash uchun kifoya qilmaydi. Shuning uchun ularni turli xilda o'zgartirib, ko'plab tarmoq ruknlari (furu'lar)ni yuzaga keltiriladi. Bunday tarmoq ruknlar (furu'lar) Bobur ta'kidicha, shaklan 40 xil bo'lib, jami 96 tadir. Ulardan 22 xili o'zbek she'riyatida qo'llangan.

Bahrlar.

Yuqorida tilga olingan 8 ruknniing maf'o'lotu ruknidan tashqari ettitasining aynan takrorlanishidan 7 bahr paydo bo'ladi. (musaddas shaklidagi ko'rinishi)

1. Mutaqorib (yaqinlashuvchi)	Faulun	V -- / V -- / V --
2. Mutadorik (anglashilgan)	Foilun	- V - / - V - / - V -
3. Hazaj (qo'shiq)	Mafoiylun	V --- / V --- / V ---
4. Ramal (yelish)	Foilotun	- V --- / - V --- / - V ---
5. Rajaz	Mustaf'ilun	-- V - / -- V - / -- V -

(kuybop)		
6. Komil (to'liq)	Mutafoilun	V V - V - / V V - V - / V V - V -
7. Vofir (mo'l)	Mafoilatun	V - V V - / V - V V - / V - V V -

Eslatma. Vofir bahri arab she'riyatiga xos.

Sakkiz aslning biri biri bilan qo'shilib takrorlanishidan yana 12 bahr hosil qilinadi. Shulardan 7 tasi bittadan olingan ikki asl takroriga asoslanadi:

1. Mafoiylun va foilotun asllari takroridan – *muzori'*,
2. Foilotun va mustaf'ilun asllari takroridan – *xafif*,
3. Mustaf'ilun va foilotun asllari takroridan – *mujtass*,
4. Mustaf'ilun va maf'ulotu asllari takroridan – *munsarih*,
5. Maf'ulotu va mustaf'ilun asllari takroridan – *muqtazab*,
6. Faulun va mafoiylun asllari takroridan – *tavil*,
7. Foilotun va foilun asllari takroridan – *madid*,
8. Mustaf'ilun va foilun asllari takroridan – *basit*

bahrlari hosil qilinadi.

Ikkita bir xil va bitta ikkinchi xil asl takroridan yana to'rt bahr tuziladi.

1. 2 ta mafoiylun va 1 foilotun asllari takroridan – *qarib*,
2. 2 ta foilotun va 1 mafoiylun asllari takroridan – *mushokil*,
3. 2 ta foilotun va 1 mustaf'ilun asllari takroridan – *g'arib*,
4. 2 ta mustaf'ilun va 1 maf'ulotu asllari takroridan – *sari'*

Ba'zi aruzshunoslar (shu jumladan, Bobur ham) yuqoridagi 19 bahrga yana ikki bahrni qo'shadilar. Bulardan biri *ariz* deb atalgan bahr bo'lib, **mafoiylun** va **faulun** asllari (mafoiylun oldin keladi) takroridan tuziladi. **Amiq** deb nomlangan keyingi bahrni esa **foilun** va **foilotun** asllarining (foilun oldin keladi) takrori hosil qiladi.

Yuqoridagi 21 bahrdan 9 tasi, ya'ni vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, ariz va amiq baxrlari bizning she'riyatimizda mutlaqo qo'llanmagan, ular arabiy va forsiy she'riyatga maxsus o'lchov turlari sanaladi; mutadorik, komil va tavil bahrlaridan esa juda kam shoirlar foydalanganlar. 9 bahr, ya'ni hazaj, ramal, rajaz, muzori', xafif, mujtass, munsarih, sari', mutaforib bahrlari she'riyatimizda faol qo'llanilgan.

Aruz ilmi asoschisi bo'lgan Xalil ibn Ahmad bahrlar sonini 15 ta qilib ko'rsatgan edi. Bular tavil, madid, basit, komil, vofir, ramal, hazaj, rajaz, munsarih, muzori', sari', xafif, mujtass, muqtazab, mutaforib

bahlari edi. Forsiy aruzshunoslar bu ro'yxatga yana to'rt asosiy o'lchovni — mutadorik, qarib, g'arib (jadid), mushokil bahlarini qo'shdilar. Ba'zilar esa ariz va amiq bahlarini ham bahlar sirasiga kiritdilar.

BAHRLARNI ANIQLASH USULLARI

Aruz tizimi asosida yaratilgan she'riy asarlarning bahlarini aniqlash uchun bir necha usuldan foydalanish mumkin. Mumtoz aruzshunoslikda bahlar **taqti'** usuli bilan belgilangan. Buning uchun bayt ohang bo'laklari — ruknlarga ajratilib, har qaysi ruknning asl yoki tarmoq ruknlardan qaysi biriga teng kelishi belgilanib, shu asosda bahr nomi topilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas

bayti ruknlarga «Meni men is — tagan o'z suh — batig'a ar — juman detmas, meni istar — kishining suh — batin ko'nglum — pisan detmas» tarzida ajratiladi. Endi og'zaki ravishda har qaysi ruknning aruz tizimiga mansub qaysi asl yo tarmoqlarga mosligini aniqlaymiz. Masalan, «meni men is» rukni ohang xususiyatiga ko'ra «mafoiylun» asliga teng keladi (uni foilotun yoki mustaf'ilun asllari bilan o'lchab ko'rsak muvofiq tushmaydi). Keyingi har qaysi rukn ham shu aslga mosdir. Binobarin, baytdagi barcha ruknlar mafoiylun asliga teng ekan. Ushbu asl takroridan tuzilgan baxr esa **hazaj** deb atalishini bilamiz. Shunga ko'ra g'azalning hazaj bahriga mansubligini aytishimiz mumkin bo'ladi. Maxmurning «Xapalak» she'ri bahrini aniklaydigan bo'lsak, undagi biron baytni shu tarzda taqti' qilib ko'ramiz. Chunonchi:

Yashagan kulbalarin banda bayon gar qilsam,

Bir kapa, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak

bayti «Yashagan kul / balarin ban / da bayon gar / qilsam, bir kapa ik / ki kapa uch / olachuq to'rt / katalak» tarzida ruknlarga bo'linadi. «Yashagan kul» rukni ohang jihatidan «failotun» tarmoq rukniga teng; «balarin ban», «da bayon gar» ruknlari ham shu o'lchovda, «qilsam» rukni «fa'lun» tarmoq rukniga teng. **Failotun** va **fa'lun** tarmoq ruknlari foilotun aslidan hosil bo'lgani bizga ma'lum. Binobarin, ularning o'rniga shu aslni qo'ysak, **foilotun** asli takroriga asoslangan mazkur bahr **ramal** ekanligini belgilashimiz mumkin.

Erkin Vohidov qalamiga mansub:

Barg ostidan muloyim boqqan iboli g'uncha,

Ne sirni saqlagaysen, bag'ring nechun tuguncha

bayti taqti' bilan ruknlarga «Barg os ti — dan mulo yim — boqqan i — boli g'uncha, Ne sir ni — saqlagaysan — bag'ring ne — chun tuguncha» tarzida ajratiladi. «Barg osti», «boqqani» ruknlari **maf'ulu** tarmoq rukniga, «dan muloyim», «boli g'un-cha» ruknlari esa «foilotun» asliga teng. **Maf'ulu** rukni **mafoiylun** aslidan hosil bo'lgani ma'lum. Demak, she'r bahri **mafoiylun** va **foilotun** asllarining ketma-ket takroriga asoslangan, shu tufayli **muzori'** deb ataladi.

Bahlarni aniqlashda taqti' usulini qo'llash uncha oson emas. Chunki aruz tizimi xususiyatlari, asl va tarmoq ruknlarning ohang o'lchovlarini puxta o'zlashtirib olmagan o'quvchi xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Shu tufayli bahlarni yozma tarzda aniqlash usuli ancha qulay hisoblanadi. Bu xil yo'l tutilganda, bayt avval ifodali o'qiladida, barcha hijolarning chizmasi belgilanadi, shundan so'ng bayt ruknlarga ajratilib, har bir rukn chizmasiga ko'ra qaysi asl yoki tarmoq ruknga mosligi anshutanadi. Jumladan, Lutfiyning

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma

baytini ifodali o'qib, so'ng ruknlarg'a ajratsak

-- V V -- V V -- V V --

chizmasi hosil bo'ladi. Har qaysi rukn chizmasi asosida bayt misralari

maf'ulu mafoiylu mafoiylu faulun

tarmoq ruknlariga muvofiqligini belgilaymiz. Har uch tarmoq rukn mafoiylundan hosil bo'lgan, shunga ko'ra g'azal hazaj bahrida yozilgani ma'lum bo'ladi.

Umumiy savollar:

1. Asl ruknlarni sanab bering.
2. Murabba, musaddas, musamman, mutatavvil istilohlari haqida ma'lumot bering.
3. Sokin va mutaharrik harflarni tushuntiring.
4. Bahrlar haqida ma'lumot bering.
5. Arab she'riyatiga xos bahlarni sanab bering.
6. G'azal bahrini qay tarzda aniqlash mumkin?

Adabiyotlar:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. — T.: TA'LIM-MEDIA, 2019.
2. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. — T.: O'qituvchi, 1995.
3. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. — T.: Sharq, 1998.

4. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. T.: 2006, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti.
5. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. T. 14.-T.: Fan, 1967.-B.137.
6. Ro'zimboyev S. Aruz nazariyasi. Urganch, 2006.

3- mavzu: **MUSTA'MAL BAHRLAR, ULARNING TURKIY SHE'RIYATDA QO'LLANILISH DARAJASI.**

Reja:

1. Turkiy she'riyatdagi musta'mal bahrlar haqida.
2. Hazaj bahri tarmoqlari.
3. Ramal bahri tarmoqlari.

Tayanch iboralar: solim-to'liq, Zihof, Mafoiylun, mahzuf, maqsur, makfuf, musabbag', azall, abtar, axram, axrab, axtam, ajabb, maqbuz, ashtar zihof, furu', qisqarish, sodda va murakkab zihoflar, hazf-mahzuf, qasr-maqsur, xarb-axrab, xarm-axram, kaff-makfuf, qabz-maqbuz va hokazo zihof va furu'lar

Aruz ruknlarining turlicha o'zgarishlarga uchragan holda qo'llanishi zihoflar deb yuritiladi. Yuqorida ko'rganimiz 8 rukn 45 xilgacha o'zgarishga uchrashi mumkin.

1. Ruknlar tarkibidagi bo'g'inlar orttiriladi. Yoki tushiriladi, ya'ni son jihatdan o'zgaradi. Ruknlar tarkibidagi qisqa bo'g'inlar uzunga aylantiriladi yoki aksincha, uzunlari qisqaga aylantiriladi, ya'ni sifat jihatidan o'zgaradi.

2. Yuqoridagi ikki o'zgarish bir paytda yuz berishi ham mumkin, ya'ni ruknlar tarkibi ham son, ham sifat jihatidan o'zgaradi.

Aruzda ruknlar tarkibini turlicha o'zgartirib xilma-xil vaznlar uchun o'Ichov (afo'il va tafo'il) yuzaga keltiriladi.

Har bir o'zgarish natijasida yuzaga kelgan shoxobcha rukn «far'» (butoqcha, shoxobcha) deb yuritiladi. Far'ning ko'pligi «furu'» deb ataladi.

Aruzshunoslarning asarlarida zihoflar soni jihatidan turlicha: Ibn Hojibda – 35, Nasriddin Tusiya – 34, Qays Roziya – 33, Al-Mo'jamda – 37, Vohid Tabriziyya – 30, G'iyosiddin Rampuriya – 42, Akram Ja'farda – 50.

Bobur 5 rukndan yasalgan 44 zihof va ularning 96 furu'larini fors-tojik aruzlari bilan solishtirib, usul va qoidalarini bayon qiladi.

Bobur «Aruz risolasi»da 537 vazn haqida ma'lumot beradi. Navoiyda – 125, Jomiyda – 140, Bahrom Sirusda – 311 vazn haqida fikr yuritilgan.

Solim so'zi arab tilida to'liq, butun degan ma'noni bildiradi. Yuqorida ko'rib o'tganimiz sakkizta asl rukn ayni holatda solim ruknlar hisoblanadi. Aruz nazariyotchilari, xususan, Xalil ibn Ahmad, mazkur solim ruknlarni turli tarzda o'zgartirish natijasida qisqargan, aniqrog'i o'zgargan shakllarini yuzaga keltirishgan. Masalan:

"Fa'uvlun" rukni ayni holatda solim hisoblanadi. Yuqorida ko'rganimizdek, bu rukn bitta vatadi majmu' va bitta sababi xafifdan tashkil topgan.

Fa'uv - ikkita harakatli va bitta sokin harf

Lun - bitta harakatli va bitta sokin harf

Ushbu rukn **"hazf"** usulida qisqartirilganda uning oxiridagi sababi xafif (lun) to'laligicha olib tashlanadi. Natijada, fa'uv qoladi. Uning o'rnida talaffuzi qulayroq bo'lgan fa'ul so'zi qo'llanadi. Chunki bu ikki so'z harakatli va sokin harflar tarkibi va paradigmasiga ko'ra tengdir. **"Hazf"** usuli natijasida hosil bo'lgan rukn **"mahzuf"** deb aytiladi.

Biz yuqorida **"qisqarish usuli"** deb nomlagan hodisa aruz tilida **"zihof"**, **"qisqarish natijasi"** esa **"furu"** atamasi bilan yuritiladi.

Yana bir misol:

"Fa'uvlun" rukni **"qasr"** usuli (zihofi)da qisqartirilganda uning oxiridagi sababi xafif (lun) to'laligicha olib tashlanmaydi. Undagi harakatli **"lom"** harfi sokinga aylantirilib, **"nun"** harfi olib tashlanadi. Natijada, fa'uvl qoladi. Bu usul (zihof)ning hosilasi (furu'i) **"maqsur"** deyiladi.

Demak **"zihof"** deganda o'zgarish usuli (**"hazf"**, **"qasr"**) **"furu"** deganda esa o'zgarish natijasi, hosilasi (**"mahzuf"**, **"maqsur"**) tushuniladi.

Alisher Navoiy **"zihof"**ni quyidagicha ta'riflaydi: **"Va bu besh aslning har biriga necha far'durkim tag'ayurlar sababidinki, ani aruziylar "zihof" derlar, hosil bo'lur"**.

Bobur esa qisqa qilib: **"Bilgilki har tag'ayyurkim usulg'a kirar ani "zihof" derlar. Ul rukni mug'ayyarni muzohafu furu' derlar"**, deb yozadi. Shuningdek **"tag'ayyur"**ni yanada aniqlashtirib **"...rukning mutaharrikini sokin qilmoqdur, yo rukndin o'ksutmak, yo rukng'a ortturmak"**, deb sharhlaydi.

Aruziylar (aruzshunoslar) zihof va furu'larni tushuntirishda asosan ikki xil yo'ldan borishadi.

Alisher Navoiy har bir asl ruknning zihoflarini alohida sanab izohlaydi va furu'larini keltiradi. Bu nisbatan sodda usul bo'lib, aruzga endi kirishayotgan talabalar uchun qulay.

Bobur esa har bir zihofning o'zini izohlaydi va uni asl ruknlarda qo'llash bo'yicha ko'rsatma beradi. Bu usul bir oz murakkab bo'lsa-da, nazariy jihatdan puxta. Zero, zihofning o'zini tushunib olgan kishi uni barcha asl ruknlarga qo'llashi mumkin bo'ladi. Quyidagi matnga e'tibor berib, uni "zihof va furu'lar" jadvali bilan solishtiring:

"Xabn" sababi xafifning sokinini hazf qilmoqliqdurkim, ruknning ikkinchi harfi bo'lg'ay, nechukkim, fo'ilun – fa'ilun, fo'ilotun – fa'ilotun bo'lur, mustaf'ilun-mutaf'ilun, maf'uvlotu – ma'uvlotu bo'lurkim, mafo'ilung'a naql qilurlar, mug'ayyar ruknni maxbun derlar".

Endi Navoiy uslubidan bir misol olib ko'raylik:

"Mafo'iylun zihofoti o'n birdir va furu'i dag'i o'n birdir. Ammo zihofi:

1. Qabz – mafo'iylun "yo" sining isqotidur (olib tashlamoq), to mafo'ilun qolg'ay.

2. "Kaf" – mafo'iylun "nun"ining isqotidur, to mafo'iylu qolg'ay.

3. "Xarm" – mafo'iylun "mim"ining isqotidur, to fo'iylun qolg'ay va maf'uvlun aning o'rnig'a bitirlar.

4. "Xarb" – mafo'iylun "mim"i va "nun"ining isqotidur, to fo'iylu qolg'ay va maf'uvlu aning o'rnig'a bitarlar.

5. "Shatr" – mafo'iylun "mim" va "yo" sining isqotidur, to fo'ilun qolg'ay.

6. "Hazf" – mafo'iylunning oxir sababi xafifi isqotidur, bas mafo'iylundin mafo'iy qolg'ay va fa'uvlun aning o'rnig'a qo'yarlar.

7. "Qasr" – oxir juzvining, ya'ni sababi xafif oxirining isqotidur va maqobilining (undan oldingi harfning) iskonini bas mafo'iylun mafo'iy bo'lg'ay.

8. "Xatm" – "Hazf" va "qasr" ijtimoi (jamlanishi ya'ni birgalikda qo'llanishi), bas mafo'iylunda mafo' qolg'ay va fa'ul aning o'rnig'a qo'yarlar.

9. "Jabb" ikki sababi xafif isqotidur, bas mafo'iylundin mafo qolg'ay va fa'ul aning o'rnig'a qo'yarlar.

10. "Zalal" – "Xatm" va "xarm" ijtimoidur, mafo'iylunda bas fo' qolg'ay.

11. "Batar" – "jabb" va "xarm" ijtimoidur, mafo'iylunda bas fo qolg'ay, fa' aning o'rnig'a qo'yarlar.

Navoiy har bir aslning o'zgarish usullarini shu tarzda sanab o'tadi.

Asllarning o'zgarishi natijasida jami 42 ta rukn hosil bo'ladi. Shulardan 39 tasi turkiy she'riyatda qo'llanadi.

Eslatma: Afoyillarning paradigmasini aniqlashda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish mumkin:

1. Undosh tovush yoki harf bilan, shuningdek, "o" tovushi bilan tugaydigan hiyo doim cho'ziq "-" sanaladi.

2. a, i, u qisqa unlilari bilan tugaydigan hijolar qisqa "V" hiyo sanaladi.

3. Ikki undosh (-yl, -vl) yoki "o" tovushidan keyin undosh qo'llangan (-ot, -on) hijolar o'ta cho'ziq "~" sanaladi.

Izoh: Bu qoidalar faqat afoyillarga tegishli, she'riy matnlarda ularga doim ham amal qilinmaydi.

Zihoflar tarkibiga ko'ra ikki guruhga ya'ni sodda va murakkab zihoflarga bo'linadi.

1. Sodda zihoflar birgina o'zgarish vositasida hosil qilinadi. Masalan: "Kaff" zihofida rukndagi so'nggi sababi xafifning sokin harfi olib tashlanadi. Bu ruknnig ettinchi harfiga to'g'ri keladi:

Mafo'iylun → mafo'iylu yoki Fo'ilotun → fo'ilotu
V --- V -- V - V -- - V - V

2. Murakkab zihoflar ikki yoki undan ortiq zihofning qo'shilishidan, aniqrog'i bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq o'zgarishning amalga oshirilishidan hosil bo'ladi. Masalan:

Yuqorida "kaff" zihofini tushunib oldik.

"Xarm" zihofida "mafo'iylun" rukni boshidagi vatadi majmu'(mafo)ning birinchi harakatli harfi (mim-ma) olib tashlanadi:

Mafo'iylun → fo'iylun
V --- ---

Va bu ruknning o'rnida talaffuzi qulayroq bo'lganligi uchun maf'uvlun rukni qo'llanadi. Zero ularning harflar miqdori va sifati, shuningdek, paradigmasi bir xil.

"Xarb" zihofida esa, yuqorida ko'rib o'tganimiz "kaff" va "xarm" usullarini birgalikda qo'llaymiz:

Mafo'iylun → mafo'iylu → fo'iylu → maf'uvlu
V --- V -- V - V -- - V - V

Demak, "Xarb" zihofi murakkab yoki tarkibli sanaladi.

Shunday qilib, har bir rukndan far'lar ajralib chiqishi natijasida tarmoq ruknlar kelib chiqadi. Masalan, mafoiylun ruknining zihoflarga duch kelishi natijasida uning 12 tarmoq rukni hosil bo'ladi va tubandagicha ataladi:

1. Mafoiylon (V---~) - musabbag' (to'ldirilgan)
2. Mafoilun (V-V-) - maqbuz (ushlab qolingani)
3. Mafoiylu (V--V) - makfuf (qaytarish)
4. Mafoiyl (V-~) - maqsur (qisqartirish)
5. Ma'ulun (---) - axram (burunni kesish)
6. Ma'ulu (--V) - axrab (vayron qilish)
7. Faulun (V--) - mahzuf (tashlash)
8. Foilun (-V-) - ashtar (aybli qilish)
9. Faal (V-) - ajabb (bichish)
10. Faul (V~) - ahtam (tishni sindirish)
11. Fa' (-) - abtar (daraxtni ildizidan ag'darish)

12. Fo' (~) - azall (sonning go'shtsiz qolishi)

Mafoiylun ruknining tarmoqlari shu ruknning takrori asosiga qurilgan hazaj bahri vaznlarida, shuningdek, muzore' bahri vaznlarida qo'llaniladi.

Vaznlarni aniqlash uchun she'riy asar baytlari, asosan birinchi bayti vaznga muvofiq o'qiladi. So'ngra har bir misra ruknlarga ajratilib, ularning yuqorida ko'rib o'tganimiz - qaysi asl yoki tarmoq ruknlarga teng ekanligi og'zaki yoki yozma tarzda - chizmasini chizish yo'li bilan aniqlanadi. Tarmoq rukn qaysi asldan hosil qilingani aniqlangach, bahr ma'lum bo'ladi. So'ngra baytda rukn necha marta takrorlanganiga ko'ra vaznning murabba', musaddas yoki musamman ekanligi belgilanadi. Misralarda qaysi ruknlar ishtirok etgani hisobga olinib, vazn topiladi.

Ma'lumki, mafoiylun ruknining takroridan hazaj bahri yuzaga keladi. Mafoiylun rukni va uning furu'lari hazaj bahrining ko'pgina vaznlarini belgilash imkoniyatini yaratadi.

OLTI RUKNLI VAZNLAR

1. Hazaji musaddasi mahzuf

Nedur ahvo/ling, ey zori/ g'aribim,

V - - - / V - - - / V - - -

(mafoiylun mafoiylun faulun)

Visoling davlatidin benasibim. (A. Navoiy)

2. Hazaji musaddasi maqsur

Eshitti chun / bu afsunlar/ ni Farhod,

V - - - / V - - - / V - - -

(mafoiylun mafoiylun mafoiyl)

Bagoyat bo'ldi andin xotiri shod. (A. Navoiy)

3. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (mazkur vaznda mafoiylunning uchta furu'i – maf'ulu, mafoilun va faulun ruknlari ishtirok etadi):

Qoshingg'a/ teguzmagil /qalamni,

– – V / V – V – / V – –

(maf'ulu mafoilun faulun)

Bu xat bila buzmagil raqamni. (Amiriy)

4. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur

Tutgil bu / jahonni, ey/ dilafgor,

– – V / V – V – / V – ~

(maf'ulu mafoilun mafoiyl)

Bir dilbari sho'xu noz kirdor. (Ogahiy)

Ushbu misralarning yuqoridagi misralardan faqat bitta farqi – oxirgi bo'g'inning o'ta cho'ziq o'qilishidir. Shu sababli ham u mahzuf emas, balki maqsurga tengdir.

SAKKIZ RUKNLI VAZNLAR

1. Hazaji musammani solim

Sanamning shav/qida tinmay /yurub ovvo/ra Mashrabman,

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

(mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun)

Ko'zi yoshlig', qadi xamlig', dili sadpora Mashrabman.

3. Hazaji musammani musabbag'

Sitam ermas/edikim, ay/lading ko'nglim/ni yuz parxand,

V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

(mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun)

Sitam budurki tinmak birla istarsen anga payvand. (A. Navoiy)

3. Hazaji musammani axrab

Sayding qo'ya ber, sayyod, /sayyora/ ekan mendek,

– – V / V – – – / – – – V / V – – –

(maf'ulu mafoiylun maf'ulu mafoiylun)

Ol domini bo'ynidin bechora ekan mendek. (Furqat)

4. Hazaji musammani ashtar

Mehnat-u /alamlarga/ muftalo /Uvaysiymon,

– V – / V – – – / – V – / V – – –

(foilun mafoiylun foilun mafoiylun)

Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiymon.

6. Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf

Sensan se/varim, xohi/ inon, xohi/ inonma,

-- V / V -- V / V -- V / V --
 (maf'ulu mafoiylu mafoiylu faulun)
 Qondur jigarim, xohi inon, xohi inonma. (Lutfiy)

FOILOTUN RUKNINING TARMOQLARI.

Foilotun ruknining turli o'zgarishlarga duch kelishi natijasida uning o'zbek adabiyotida qo'llaniladigan quyidagi tarmoqlari (furu') mavjud:

T/r	Afoyl	Taqte'si	Zihof nomi
1	foiliyyon	- V - ~	musabbag'
2	failotun	VV --	maxbun
3	faiiyyon	VV -- ~	maxbuni musabbag'
4	foilotu	- V - V	makfuf
5	failotu	VV - V	mashkul
6	foilun	- V -	mahzuf
7	foilon	- V ~	maqsur
8	failun	VV -	maxbuni mahzuf
9	failon	VV ~	maxbuni maqsur
10	fa'lun	--	maqtu'
11	fa'lon	- ~	maqtu' musabbag'

Foilotun ruknining solim va tarmoq ko'rinishlari ko'proq ramal va muzore' bahrlarida qo'llaniladi.

1. Ramali musaddasi mahzuf.

Bu vazn: foilotun foilotun foilon tarzida bo'ladi:

Yorning vas/li emas o/zorsiz.

- V -- / - V -- / - V -

Gulshan ichra gul topilmas xorsiz. (Nodira)

2. Ramali musaddasi maqsur.

Bu vazn: foilotun foilotun foilon shaklida bo'ladi.

Qilmagil zin/hor izhor /ehtiyoj ,

- V - ~ / - V -- / - V ~

Kim aziz elni qilur xor ehtiyoj .

3. Ramali musaddasi maxbuni mahzuf.

Bu vazn: foilotun failotun failun shaklidir.

Vah necha tor/tay ul oy dar/du g'amin,

- V -- / VV -- / V V -

Yo g'ami dardi yo'q elning sitamin. (A. Navoiy)

4. Ramali musaddasi maxbuni maqtu'.

Bu vazn: foilotun failotun fa'lun shaklidadir.

Ne kun o'lgay /ki nigorim /kelgay,

- V - - / V V - - / - -

Bog'i umrimda nigorim kelgay. (A. Navoiy)

* * * * *

1. Ramali musammani mahzuf.

Bu vazn: foilotun foilotun foilotun foilon shaklida keladi:

Kun Hamalg'a /kirdi ersa, /keldi olam/ navro'zi

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Kechdi baxman zamharir qish qolmadi qori-buzi. (Rabg'uziy)

2. Ramali musammani maqsur.

Bu vaznning oxirgi rukni foilonga o'zgaradi, xolos:

Necha tortay/ vasl uchun men /zori mahzun /intizor,

- V - - / - V - - / - V - - / - V ~

(foilotun foilotun foilotun foilon)

Vahki ko'zdin to'kti selobi jigarxun intizor. (A. Navoiy)

Ma'lumki, ushbu vaznning oxirgi ruknidagi so'nggi bo'g'in o'ta cho'ziq o'qiladi. Bu vaznni aniqlash uchun tabiatan cho'ziq unlilar - o, o', e va qo'sh undosh bilan tugagan so'zlarga e'tiborni qaratish lozim (shavq, zavq, sard, dard kabi).

3. Ramali musammani maxbuni mahzuf.

Bu vazn: foilotun failotun failotun failun tarzida bo'ladi:

Ko'zi ul yuz/ o'tidin xal/q ichini do/g' etadur,

- V - - / V V - - / V V - - / V V -

Yoxud ikki qoshining yolarini chog' etadur. (A. Navoiy)

4. Ramali musammani maxbuni maqtu'.

Bu vaznda oxirgi rukn fa'lunga aylanadi:

Manga o'lmak /lik erur haj/rida oson /sensiz,

- V - - / V V - - / V V - - / - -

(foilotun failotun failotun fa'lun)

O'layin, lek dame bo'lmayin, ey jon, sensiz. (A. Navoiy)


5. Ramali musammani maxbuni maqtu'i musabbag'.

Bu vaznda ham faqat oxirgi rukn fa'lunga aylanadi.

Ul pari cheh/ra chu ko'rguz/sa jamolin /maqbul

- V - - / V V - - / V V - - / - -

(foilotun failotun failotun fa'lon)



Ko'rgan ermasturur o'z aqlig'a qolmoq ma'qul. (A. Navoiy)

6. Ramali musammani mashkul.

Bu vazn: failotu foilotun failotu foilotun tarzida bo'ladi:

Ochilib tu/man tarovat /bila sahni/ bog' aro gul,

V V – V/ – V – –/ V V – V/ – V – –

Yeturub chamanga har yon necha zeb ila safo gul. (Ogahiy)

Umumiy savollar:

1. Zihof deganda nimani tushunasiz?
2. Ramal rukni tarmoqlarini sanab bering.
3. Tuyuq janri vazni haqida nimalarni bilasiz?
4. Hazaj rukni tarmoqlarini sanab bering.

Adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – T.: "O'qituvchi", 1995.
2. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. – T.: "Sharq", 1998.
3. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. – T.: 1972.
4. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. T. 14. – T.: Fan, 1967. – B.137.
5. Adabiyot nazariyasi. II tom. Adabiy – tarixiy jarayon. – T.: Fan, 1979. – Fitrat. Aruz haqida (nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi H.Boltaboyev). – T.: O'qituvchi, 1997. – B.25-26.
6. Ro'zimboyev S. Aruz nazariyasi. Urganch, 2006.

4- mavzu: RAJAZ VA MUTAQORIB BAHRI LARI

Reja:

1. Mustaf'ilun rukni tarmoqlari.
2. Mutaqorib bahri zihoflari.

Tayanch iboralar: rajaz – mustaf'ilun, mutaqorib, mutadorik, musta'mal taqte', zihof va furu'lar, sadr, ibtido, hashv va hashvayn, aruz, zarb yoki ajuz, murabba', musaddas, musamman.

MUSTAF'ILUN RUKNINING TARMOQLARI.

Mustaf'ilun rukni to'qqizta zihofga duch kelishi natijasida undan 14 tarmoq yuzaga keladi. Shulardan adabiyotimizda to'rttasi qo'llaniladi:

1. mafoilun – maxbun; (V – V –)
2. muftailun – matviy; (– V V –)

3. mustaf'ilon – muzol; (-- V ~)

4. mafoilon – maxbuni muzol; (V – V ~)

Bular asosan rajaz, hafif, mujtass kabi bahrlar vaznida qo'llaniladi.

1. Rajazi murabbayi solim.

Bu vazn: mustaf'ilun mustaf'ilun tarzida keladi:

Yoshi kichik, /yo'ni ulug'

-- V - / - V --

Zoti orig' bek To'qbug'a

Ul Nosiriddin kunyati. (Rabg'uziy)

2. Rajazi musaddasi solim.

Bu vazn: mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun tarzida keladi:

Bir ko'rsatib /g'amza bilan /diydor o'zing,

-- V - / - V - - / - V - -

Lutфу karam qilding kulib izhor o'zing. (Habibiy)

3. Rajazi murabbayi muzol.

Bu vazn: mustaf'ilun mustaf'ilon tarzida bo'ladi.

Ammo nazar/da roshidon

-- V - / - V --

Firdavs bog'idin nishon.

O'ynab oqar obi ravon,

Sahni guli gulzor ekan. (Muqimiy)

4. Rajazi musammani solim.

Bu vazn mustaf'ilun ruknining aynan to'rt takroridan yuzaga keladi:

Mushkin qoshi/ning hay'ati/ ul chashmi jal/lod ustina,

-- V - / -- V - / -- V - / -- V -

Qatlim uchun /nas keltirur /nun eltibon/ sod ustina. (Ogahiy)

5. Rajazi musammani muzol.

Bu vazn mustaf'ilonning qo'shilishidan tuziladi;

Gar netar er/sang, ey ko'ngil/ qilmoq seni/ masrur ganj,

-- V - / -- V - / -- V - / -- V ~

Tutgil qanoat kunjinikim, ul erur mavfur ganj. (Ogahiy)

4. Rajazi musammani matviyi muzol.

Bu vazn: muftailun mafoilun muftailun mafoilun tarzida bo'ladi.

Ashkima gar/ kanora yo'q/ bo'lmasa bo'l/masun netay,

-- V V - / V - V - / - V V - / V - V -

Ohima ham shumora yo'q, bo'lmasa, bo'lmasun netay. (Ogahiy)

Mutaqorib vazni Firdavsiyning "Shohnoma" asari tufayli mashhur bo'lib, keyinchalik, Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidan boshlab

"Xamsa"lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo'ldi. Amir Xusravning "Oyinayi Iskandariy", Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy", Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari ham shu vaznda yaratilgan.

Mazkur vazn jangnoma dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq didaktik ruhda qator asarlar ham shu vaznda yaratilgan. Xususan, turkiy adabiyotdagi ilk dostonlar - "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), Sa'diyning mashhur asari "Bo'ston" shular jumlasidan.

MUTAQORIB BAHRI VAZNLARI

1. Mutaqoribi musammani maqsur.

Bu vazn: *faulun faulun faulun faul* shaklida bo'ladi.

Zihi shah/du no'shing/ bag'oyat/ malih,

V - - / V - - / V - - / V ~

Musalsal so'zing benihoiat malih. (A. Navoiy)

2. Mutaqoribi musammani mahzuf.

Bu vaznda oxirgi rukn faalga almashadi.

Seningdek/bute yo'q/turur Chi'n aro,

V - - / V - - / V - - / V -

Buti Chin sening bandang oyin aro. (A. Navoiy)

3. Mutaqoribi musammani aslam.

Uning shakli: *fa'lun faulun fa'lun faulun* tarzida bo'ladi.

Ishqing/o'tig'a/ kuyga/li keldim,

- - / V - - / - - / V - -

Oydek yuzingni ko'rgoli keldim.

Ko'rsat/ jamoling/ masto/larga,

- - / V - - / - - / V - -

Ishqing/da kuygan/ devo/nalarga. (Mashrab)

4. O'n olti ruknli mutaforibi aslam.

Ushbu vaznda fa'lun va faulun ruknlari baytda un olti marta aralashib takrorlanadi.

Sensan/latofat/taxti/uza shah/ husn qh/lidurlar

- - / V - - / - - / V - - / - - / V - -

(fa'lun faulun fa'lun faulun fa'lun faulun)

xayli/ sipohing,

— — / V — —

(fa'lun faulun)

Bo'lsin ilohi to ro'zi maxshar afzuni oliy iqboli johing. (Ogahiy)

5. O'n olti ruknli mutaqoribi aslami musabbag' vazni.

Bu vaznda oxirgi rukn faulon (mafoiyl)ga almashadi:

Aqlim/ni oldi/hayrat/ga soldi/bir tur/fa jonon/

sulto/ni xubon

— — / V — — / — — / V — — / — — / V — — / V — —

Ul bir tabassum aylab takallum chun mohitobon bo'ldi namoyon. (Furqat)

6. O'n olti ruknli mutaqoribi maqbuzi aslam rukni.

Bu vazndagi shakl faulu fa'lun faulu fa'lun faulu fa'lun faulu fa'lun tarzida bo'ladi.

Ne pok/majnun/ki bir pa/ri cheh/ra pok/ husni/g'a zor/ bo'lg'ay.

V — V/ — — / V — V/ — — / V — V/ — — / V — V/ — —

Bu pok ishq ichra pok jon tarki etsang ne ixtiyor bo'lg'ay. (A. Navoiy)

Umumiy savollar:

1. *Rajaz bahrining zihoflanishini tushuntirib bering.*
2. *Mutaqorib bahrining zihoflanishini tushuntirib bering.*
3. *Mutadorik bahrining zihoflanishini tushuntirib bering.*

Adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. — T.: "O'qituvchi", 1995.
2. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. — T.: "Sharq", 1998.
3. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. — T.: 1972.
4. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. T. 14. — T.: Fan, 1967. — B.137.
5. Adabiyot nazariyasi. II tom. Adabiy — tarixiy jarayon. — T.: "Fan", 1979.
6. Fitrat. Aruz haqida (nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi H.Boltaboyev). — T.: O'qituvchi, 1997. — B. 25-26.
7. Ro'zimboyev S. Aruz nazariyasi. — Urganch, 2006.

5-ma'ruza. TURLI ASLIY RUKNLAR VA ULARNING TARMOQLARIDAN TARKIB TOPGAN BAHRLAR.

Reja:

1. *Sari'* va *xafif bahrlari* haqida ma'lumot.
2. *Mujtass, muzore'*, *munsarih bahrlari* haqida ma'lumot.
3. *Sharq adabiyotida keng qo'llanilgan masnaviylar vazni*.

SARI' BAHRI

Sari' (arabcha "tez") aralash bahr hisoblanib, **mustaf'ilun**, **mustaf'ilun**, **maf'o'lotu** shaklida bo'ladi

1. *Jonimg'a yuz/dardu alam/ kelturdung,*

- - V - / - - V - / - - -

Ko'nglung'a yuz ranju sitam kelturdung.

Mustaf'ilun mustaf'ilun maf'uvlun

Sari'i musaddasi aruz va zarb mavquf.

2. *Ko'ngluma yuz /ranju sitam/ kelturdung,*

- V V - / - V V - / - - ~

Jonima ming mehnatu g'am kelturdung.

Mufta'ilun mufta'ilun maf'uvlon

Sari'i musaddasi matviyi mavquf.

3. *O'zni ko'ngul /aysh ila tut/moq kerak,*

- V V - / - V V - / - V -

Bizni unutmakni unutmak kerak.

Mufta'ilun mufta'ilun fo'ilun

Sari'i musaddasi matviyi makfuf.

4. *Ey bevafo / kelgil beri / guzar et,*

- - V - / - - V - / V - -

Rahm aylabon men xastag'a nazar et.

Mustaf'ilun mustaf'ilun fa'ulun

Sari'i musaddasi aruz va zarb maxbuni maksuf.

5. *Istamasang, / eslamasang/ bizni,*

- V V - / - V V - / - -

Men qo'yaram yo'lung uza izni.

Mufta'ilun mufta'ilun fa'lun

Sari'i musaddasi matviyi, aruz va zarb aslam.

6. *Qaro ko'zum, / beriga kel, / qil karam,*

V - V - / V - V - / - V -

Visol birla qil meni muhtaram.

Mafo'ilun mafo'ilun fo'ilun

Sari'i musaddasi maxbuni matviyi makfuf.

7. *Qaro ko'zum, / beriga kel, / karam qil,*

V - V - / V - V - / V - -

Meni visol birla muhtaram qil.

Mafo'ilun mafo'ilun fa'uylun

Sari'i musaddasi maxbuni maksuf.

XAFIF BAHRI

Xafif bahri ko'p qo'llanilgan bahrlardan biridir. U aralash bahr hisoblanib, foilotun va mustaf'ilunning ketma-ket takroridan hosil bo'ladi.

1. *Qayda erding, ey mahvashim, sharh qilg'il,*

- V - - / - - V - / - V - -

O'lgum erdi gar bir zamon kelmasang bil.

Fo'ilotun mustaf'ilun fo'ilotun.

Xafifi musaddasi solim.

2. *Vaslin ul oy /manga hilo/ qilibtur,*

- V - - / V - V - / V V - -

Hajridin meni xasta hol qilibtur.

Fo'ilotun mafo'ilun fa'ilotun.

Xafifi musaddasi maxbun.

3. *Vaslin ul oy manga mahol qilur,*

- V - - / V - V - / V V -

Hajridin meni xasta hol qilur.

Fo'ilotun mafo'ilun fa'ilun.

Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf.

4. *Hech bilmon/ki chinmudur/ bu so'zing,*

- V - - / V - V - / V V ~

Yaxshiliqqa yaqinmudur bu so'zung.

Fo'ilotun mafo'ilun fa'ilon.

Xafifi musaddasi maxbuni maqsur.

5. *Zuhd ketti/ esa karam/ qildi,*

- V - - / V - V - / - -

Ishq keldiyu muhtaram qildi.

Fo'ilotun mafo'ilun fa'lun.

Xafifi musaddasi maxbuni abtar.

6. *Kelki sench /yor topil/ madi hargiz,*

- V - V / - V V - / V V - -

Bilki mencha zor topilmadi hargiz.

Fo'ilotu musta'ilun fa'ilotun.

Xafifi musaddasi makfufi matviyi maxbun.

7. Kelki sencha /yor topil/mas yana,

— V — V / — V V — / — V —

Bilki mencha zor topilmas yana.

Fo'ilotu musta'ilun fo'ilun.

Xafifi musaddasi makfufi matviyi mahzuf.

8. Ko'raolmon yiroqdin,

— V — — / V — V —

O'ladurmen firoqdin.

Fa'ilotun mafo'ilun,

Xafifi murabba'i maxbun.

9. Sarvinoz /sencha qani,

— V — V / — V V —

Ishqboz mencha qani.

Fo'ilotu musta'ilun,

Xafifi murabba'i makfufi matviy.

MUJTASS BAHRI

Mujtass (arabcha “yulinish”) bahri aralash bahr hisoblanib, asosi **mustaf'ilun** va **foilotun** asllarining ketma-ket takroridan hosil bo'ladi.

№	Asl tarmoq ruknlar	va	Qaysi asldan	Rukn chizmasi	atalishi
1	Mafoilun		Mustaf'ilun	V — V —	Maxbun
2	Failotun		Foilotun	V V — —	Maxbun
3	Failun		Foilotun	V V —	Maxbuni mahzuf
4	Failon		Foilotun	V V ~	Maxbuni maqsur
5	Fa'lun		Foilotun	— —	Maqtu'
6	Fa'lon		Foilotun	— ~	Maqtu'i musabbag'

1. Ishq ahlig'a /garchi doim /ko'p javrdur, / ko'p jafodur,

— — V — / — V — — / — — V — / — V — —

Husn ahlig'a neqilaykim, bemehru bevaforur.

Mustaf'ilun fo'ilotun mustaf'ilun fo'ilotun

Mujtassi musammani solim.

2. Yuzi gul-u /sochi sunbul, / xadi suman, / xati rayhon,

V - V - / V V - - / V - V - / V V - ~

Lab uzra xatti zumurrad, xat ichra lablari marjon.

Mafo'ilun fa'ilotun mafo'ilun fa'iliyyon

Mujtassi musammani maxbuni musabbag'.

3. *Ramida ko'ng'lu m'erur ish/q' mubtalo/si hanuz,*

V - V - / V V - - / V - V - / V V ~

Bashimda bordur ul sarv qad havosi hanuz.

Mafo'ilun fa'ilotun mafo'ilun fa'iloton

Mujtassi musammani maxbuni maqsur.

4. *Har kishikim/ labu yuzung/ jonibig'a/ nazar etgay,*

- V V - / V V - - / - V V - / V V - -

Ham qonini sadar aylab, ham boshini guzar etgay.

Mufta'ilun fa'ilotun mufta'ilun fa'ilotun

Mujtassi musammani matviyi maxbun.

5. *Ulki manga/ yori dilna/vozdurur,*

- V V - / - V - - / - V V -

Javri aning ko'pu mehri ozdurur.

Mufta'ilun fo'ilotun mufta'ilun

Mujtassi musaddasi matviyi makfufi

6. *Beriga kel,/ ey nigor,*

V - V - / - V ~

Necha chekay intizor.

Mafo'ilun fo'ilon

Mujtassi murabba'i maxbuni maqsur.

MUZORE' BAHRI

Muzori' bahri o'zbek she'riyatida ko'p qo'llanilgan o'lchov turlaridan hisoblanib, mafoiylun va foilotun asllarining almashinib qo'llanilishidan hosil bo'ladi. She'riyatimizda bu bahrning musamman ko'rinishi ko'proq qo'llanilgan.

Chizmasi quyidagicha:

mafoiylun foilotun mafoiylun foilotun

V - - - / - V - - / V - - - / - V - -

Muzori' bahrining zihoflarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

N ^o	Asl tarmoq ruknlar	va	Qaysi asldan	Rukn chizmasi	atalishi
1	Mafo'ulu		mafoiylun	-- V	axrab
2	Mafoiylu		mafoiylun	V -- V	makfuf
3	Foilotun		foilotun	- V --	solim
4	Foilotu		foilotun	- V- V	makfuf
5	Foiliyyon		foilotun	- V ~	musabbag'
6	Foilon		foilotun	- V -	mahzuf
7	Foilon		foilotun	- V ~	maqsur

1. Jafojo 'ye, / bevafoye/ qani sendek/ bu jahonda,
V --- / - V -- / V - - - / - V - -
Duogo 'ye, benavoye qani mendek bu zamonda.
Mafo'iylun fo'ilotun mafo'iylun fo'ilotun
Muzore'i musammani solim.
2. Qoshig'a bor/g'ali ko'ngil/ o'ziga kel/madi ul
V - V - / V V - - / V - V - / V V -
Yuzini ko'rgali ko'zim ko'ziga ilmadi ul oy.
Mafo'ilun fa'ilotun mafo'ilun fa'ilotun
Muzore'i musammani maqbuzi maxbun.
3. Kel, ey yori / guluzor, /ne xush fasl/dir bahor,
V - - V / V V - V / V - - V / - V ~
Ketur jomi xushguvor, manga berma intizor.
Mafo'iylu fa'ilotu mafo'iylu fo'ilon
Muzore'i musammani makfufi mashkuli maqsur.
4. Meni ishq /dilfigor / agar qilsa/ ne qilay,
V - - V / - V - V / V - - V / - V -
Meni shavq beqaror agar qilsa ne qilay.
Mafo'iylu fo'ilotu mafo'iylu fo'ilun
Muzore'i musammani makfufi mahzuf.
5. Meni ishq /dilfigor /agar qilsa / naylay,
V - - V / - V - V / V - - V / --
Meni shavq beqaror agar qilsa naylay.
Mafo'iylu fo'ilotu mafo'iylu fa'lun
Muzore'i musammani makfufi abtar.

6. *Ruxsori/ jonibida / ul xoli/ anbar olud,*
 - - V/ - V - V/ - - V / - V - ~
 O't go'shasida go'yo anbar tushub qilur dud.
Maf'uvlu fo'ilotun maf'uvlu fo'iliyyon
Muzore'i musammani axrabi musabbag'.
7. *Ko'k vusma/da ul oy qo/shi go'yo xa/yoldur,*
 - - V / - V - V / V - - V / - V -
 Yo oy boshida ko'kta ko'ringan hiloldur.
Maf'uvlu fo'ilotu mafa'iyu fo'ilun
Muzore'i musammani axrabi makfufi mahzuf.
8. *Jonona /bizni zor⁴ / qilibtur,*
 - - V/ - V - V / V - -
 Devona bizni yor qilibtur.
Maf'uvlu fo'ilotu fa'uvlun
Muzore'i musaddasi makfufi mahzuf.
9. *Mehru va/foni ag'yor,*
 - - V / - V - ~
 Ko'p ko'rdi sendin, ey yor.
Maf'uvlu fo'iliyyon
Muzore'i murabba'i axrabi musabbag'.
10. *Hajringda / ey parirol,*
 - - V / - V - -
 Ko'zumdin uchti uyqu.
Maf'uvlu fo'ilotun
Muzore'i murabba'i axrab.

MUNSARIH BAHRI

Munsarih bahri aralash bahr turlaridan hisoblanib, asosi mustaf'ilun va maf'o'lotu asllarining ketma-ketligidan tashkil topadi.

1. *Sendek qani /husn ahlida /ham bedavo / ham bedard,*
 - - V - / - - - V/ - - V - / - - ~
 Mendek qani ishq ahlida mehnatkashu g'amparvard.
Mustaf'ilun mav'uvlotu mustaf'ilun mav'uvlotu
Munsarihi musammani solim.
2. *Shoxi gulu/ nastaran/ yod⁴ berur/ bo'yidin,*
 - V V - / - V - / - V V - / - V -
 Atrini mushki Xo'tan kasb qilur mo'yidin.
Mufta'ilun fo'ilun mufta'ilun fo'ilun
Munsarihi musammani matviyi, matviyi makshuf.

3. *Ishq yuki /ayladi/ sipehri a'loni xam,*
 - V V - / - V - / V - V - / - V -
 Ne ajab ar aylasa meningcha shaydoni ham
Mufta'ilun fo'ilun mafo'ilun fo'ilun
Munsarihi musammani matviyi makshufi maxbun.
4. *Javru jafu /qilursen,/ vafu dog'i/ qil ey yor,*
 - V V - / V - - / V - V - / V - ~
 Triyg'i sitam urursen, davo dog'i qil ey yor.
Mufta'ilun fa'uvlun mafo'iylu mafo'iyl
Munsarihi musammani matviyi maxbuni makshuf.
5. *Mehr yuzi/din, ey oy, /bizga vafu /qilg'aysen,*
 - V V - / - - - / - V V - / - - -
 Javrnii ham qo'yg'aysen, tarki jafu qilg'aysen.
Mufta'ilun maf'uvlun mufta'ilun maf'uvlun
Munsarihi musammani matviyi makshuf.
6. *Ishq meni/ qildi xor, /ne qilayin,*
 - V V - / - V - V / - V V -
 Shavq meni qildi zor ne qilayin.
Mufta'ilun fo'ilotu mufta'ilun
Munsarihi musaddasi majzuvi matviy.
7. *Ishq meni/ qilsa xor,/ netgaymen,*
 - V V - / - V - V / - - -
 Shavq meni qilsa zor netgaymen.
Mufta'ilun fo'ilotu maf'uvlun
Munsarihi musaddasi matviyi maqtu'.

SHARQ ADABIYOTIDA KENG QO'LLANILGAN MASNAVIYLAR VAZNI

Masnaviy" so'zi arabcha "ikki" sanoq sonini bildiruvchi "isnan" so'zidan yasalgan bo'lib ikkilik ma'nosini ifodalaydi. Sharq mumtoz she'riyatida har juft misra o'zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya'ni qofiyalanuvchi she'riy shakl masnaviy deb nomlanadi. O'rta asrlarda yirik hajmli dostonlarga nisbatan ham, ikkilik shaklida yozilgan kichikroq hajmdagi she'rlarga nisbatan ham masnaviy atamasini qo'llash odatiy hol edi. Hozirgi adabiyotshunoslikda esa bu atama ikki xil ma'noda ya'ni janr va she'riy shakl ma'nosida qo'llanadi.

1. Mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, ikkilik shaklida yozilgan dostonlarga nisbatan masnaviy atamasi **she'riy shakl** ma'nosida

qo'llanadi. Masalan: "Lison ut-tayr"ning janri doston, shakli esa masnaviydir.

2. Lirik asarlar majmuasi, xususan, devonlar tarkibiga kiritilgan va ikkilik shaklida yozilgan lirik she'rlarga nisbatan masnaviy **janr** nomi sifatida qo'llanadi.

Masnaviylarning muhim jihatlaridan biri vazn bo'lib, bu borada o'rta asrlarda ham, keyingi davr, xususan, hozirgi adabiyotshunoslikda ham ko'plab fikr-mulohazalar aytilgan. Aruzshunoslikka oid yaratilgan deyarli barcha asarlarda masnaviylarga xos bo'lgan vaznlar va bu boradagi an'analar alohida qayd etiladi, tahlilga tortiladi. Jumladan, "Funun ul-balog'a", "Mezon ul-avzon", "Muxtasar" kabi turkiy tildagi manbalardan bu masalaga oid ma'lumotlar olish mumkin:

"Bilmak kerakkim, aksar masnaviyning iyrodi qisasu hikoyat... bayonida voqe' bo'lurkim, qasida va g'azal amsolig'a gunjoyish ul yo'qtur, bu jihatdindurkim necha maxsus vaznda — o'q masnaviy aytibturlar. Ul jumladin besh vazni mashhurdurkim "Xamsa"lar ul avzondadur. Yana bir vazn agarchi "Xamsa"da yo'qtur fil jumla shuhrati bor. "Mantiq-ut tayr" va "Masnaviy" bu ikki kitobning qoyili azizlarning aksar masnaviylari bu vaznda voqe' bo'lubturlar. Yana bir vazndurkim, agarchi shuhrati kamdur vale xeyli latif vazndur. Mavlono Abdurahmon Jomiy "Sabha"si ul vazndadur".

Masnaviynavislikda qo'llanuvchi vaznlar jami to'qqizta bo'lib, ular Amir Xusrav Dehlaviyning "No'h sipehr" dostonida o'z ifodasini topgan. Har bir sipehr (falak) alohida vaznda yozilgan. Mazkur to'qqiz vazndan yettitasi Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang" dostonlar turkumida qo'llangan:

1. Sari'i musaddasi matviyi makshuf.

Mufta'ilun /mufta'ilun /fo'ilun

— V V — / — V V — / — V —

Sadr, ibtido matviy, hashv matviy, aruz va zarb matviyi makshuf.

Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tufayli bu vazn xamsanavislikdagi dastlabki doston vazni sifatida qat'iy maqomga ega bo'ldi. "Matla' ul-anvor" (Amir Xusrav), "Tuhfat ul-ahror" (Jomiy) va "Hayrat ul-abror" (Navoiy) dostonlari ham shu vaznda. Turkiy adabiyotda yaratilgan mashhur dostonlardan Mavlono Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" hamda Durbekning "Yusuf va Zulayho"si shu vaznda yaratilgandir.

Mazkur vazn falsafiy-didaktik mavzularni ifodalash uchun qulay deb hisoblanadi.

2. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur).

Mafo'iyun mafo'iyun fa'uvlun (mafo'iy)

V --- / V --- / V -- (V ~)

Sadr, ibtido solim, hashv solim, aruz va zarb mahzuf (maqsur).

Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni tufayli shuhrat qozongan bu vazn "Xamsa"lardagi ikkinchi dostonlarga xos bo'lib, unda ishqiy-sarguzasht syujetlar bayon etiladi. Amir Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Mazkur vazn turkiy adabiyotda keng iste'molda bo'lgan. Jumladan, Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va uning naziralari, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostonlari buning yorqin misollaridir.

3. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur).

Mafo'uvlu/ mafo'ilun/ fa'uvlun (mafo'iy).

- V / V - V - / V -- (V ~)

Sadr, ibtido axrab, hashv maqbuz, aruz va zarb mahzuf.

"Xamsa"larning uchinchi dostonlari shu vaznda bo'lib, ko'proq ishq izzitroblari, dard va mahzun ohanglarni ifodalashga mo'ljallangan. Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Alisher Navoiyning Layli va Majnun haqidagi dostonlari, Hoju Kirmoniyning "Gavharnoma"si shu vaznda yozilgan.

4. Xaffi musaddasi maxbuni abtar.

Fo'ilotun/ mafo'ilun/ fa'lan

- V --- / V - V - / - -

Sadr, ibtido solim, hashv maxbun, aruz va zarb abtar.

Ta'kidlash lozimki, ushbu vaznda yozilgan masnaviyalarda so'nggi rukn turli shaklda aralash qo'llanadi. Shunga ko'ra vazn nomi ham farqlanadi. Jumladan:

fa'lan - abtar; fa'lon - abtari musabbag';

- -

- ~

fa'ilun - maxbuni mahzuf; fa'ilon - maxbuni maqsur.

V V -

V V ~

Bu vaznda yozilgan ilk masnaviylardan biri mashhur so'fiy shoir Sanoiyning "Hadiqat ul-haqoyiq" dostonidir.

In kitobe /ki guftaam /dar pand,

- V - - / V - V - / - ~

Chun ruxi hu/r dilbaru /dilband.

- V - - / V - V - / - ~

Fo'ilotun mafo'ilun fa'lon

Falsafiy-tasavvufiy pandnoma ruhidagi bu doston Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga ilhom bag'ishlagan deb aytiladi. Biroq bu vaznda Nizomiy o'zining to'rtinchi dostoni "Haft paykar"ni yaratdi. Shundan boshlab, Bahrom haqidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar shu vaznda yoziladigan bo'ldi. Xususan, "Hasht bihisht" (Amir Xusrav), "Sab'ayi sayyor" (Navoiy), "Haft avrang" (Ashraf) vahokazo. Abdurahmon Jomiy esa Sanoiy izidan borib, bu vaznda yana bir falsafiy-didaktik dostoni "Silsilat uz-zahab"ni yaratdi.

5. Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur).

Fa'uvlun/ fa'uvlun/ fa'uvlun/ fa'al (fa'uvl)

V - - / V - - / V - - / V - (V ~)

Sadr, ibtido, hashvayn solim, aruz va zarb mahzuf (maqsur).

Bu vazn Firdavsiyning "Shohnoma" asari tufayli mashhur bo'lib, keyinchalik, Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidan boshlab "Xamsa"lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo'ldi. Amir Xusravning "Oyinayi Iskandariy", Jomiyning "Xiradnomayi Iskandariy", Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari ham shu vaznda yaratilgan.

Mazkur vazn jangnoma dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq didaktik ruhdagi qator asarlar ham shu vaznda yaratilgan. Xususan, turkiy adabiyotdagi ilk dostonlar - "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), Sa'diyning mashhur asari "Bo'ston" shular jumlasidan.

Umumiy savollar:

1. Rajaz bahrining zihoflanishini tushuntirib bering.
2. Mutaqorib bahrining zihoflanishini tushuntirib bering.
3. Mutadorik bahrining zihoflanishini tushuntirib bering.

Adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. - T.: O'qituvchi, 1995.
2. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. - T.: Sharq, 1998.
3. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. - T.: 1972.

4. Yusupova D. Aruz vazni qoidalar va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA'LIM-MEDIA, 2019.
5. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – T.: 2006, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 196-201-betlar.
6. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. T. 14. – T.: Fan, 1967. – B.137.

2-Modul. MUMTOZ POETIKAGA KIRISH.

6-mavzu. MUMTOZ POETIKA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

BALOG'AT ILMI.

Poetika (yun. poietike – poetik san'at) – badiiy asarlarda ifoda vositalari tizimi haqidagi fan, eng qadimiy adabiyotshunoslik fani. Keng ma'noda poetika adabiyot nazariyasi tushunchasiga to'g'ri keladi. Adabiyot nazariyasi sifatida poetika adabiy tur va janrlar xususiyatini, oqim va yo'nalishlar, uslub va metodlarni o'rganadi hamda badiiylilik darajasi o'rtasidagi ichki bog'lanish va o'zaro munosabat qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Poetika 3 tarkibiy qismdan iborat: umumiy poetika, tavsifiy (xususiyy) poetika, tarixiy poetika. Umumiy poetika har qanday asarning badiiy vositalari va qurilish qonuniyatlarini janrga, adabiy tur va jinslarga qarab muallif niyatining mujassamlanish usullarini tadqiq etadi. Tavsifiy poetika ayrim olingan bir muallif asarlarining yoki davrlar va yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi. Tarixiy poetika badiiy vositalar taraqqiyotini (obrazli ifodalar, shakllar, qofiyalar) va *kategoriyalarni (badiiy qilib berilgan zamon, makon, ritm) o'rganadi.*

"Poetika" termini dastlab Aristotelning "Poetika" asarida qo'llanilgan. Bu asar badiiy asar va uning tiliga oid nazariy masalalarni yoritishda dastlabgi asarlardan hisoblanadi. Asarda yunon adabiyotidagi ilk realizm nazariyasi haqida ma'lumot berilgan. Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy ham ushbu asar ta'sirida "Shoirilar san'ati qonunlari haqida risola"sini yozgan. Realistik adabiyotning klassitsizm bosqichi haqidagi nazariy masalalar fransuz olimi va shoiri N. Bualoning "Poetik san'at" asari (1674)da yoritildi. Bualo bu asarida klassitsizm poetikasi asoslarini yaratdi, bu oqim uchun xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berdi va ularni badiiy ijod qonuniyatlari sifatida talqin qildi. Klassitsizm nazariyasining dogmatik g'oyalarga qarshi kurashda fransuz yozuvchisi

va faylasufi D.Didroning "Dramatik poeziya haqida" (1758), G.Lessingning "Gamburg dramaturgiyasi" (2 jildli, 1767-69) asarlari vujudga keldi. Bu asarlarda ijodda erkinlik, hayotiy haqiqat masalalari, hayotni dinamik tarzda tasvirlash talablari nazariy asoslandi.

Musulmon Sharqi adabiyotida mumtoz poetika 3 qismdan: 1) ilmi aruz, 2) ilmi qofiya, 3) ilmi badi'dan iborat maxsus fan sifatida shakllangan va bu fanning mazkur yo'nalishlari bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar yaratilgan (Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Atoullah Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" va boshqalar).

Adabiy-badiiy mezonlar, ya'ni poetikaning muayyan qonun-qoidalari ayrim adabiy yo'nalish, oqim va maktablarda, alohida xalqlarda (tasavvuf she'riyati poetikasi, xalq dostonchiligi poetikasi, ma'rifatparvarlik adabiyoti poetikasi, Sharq adabiyoti poetikasi, o'zbek adabiyoti poetikasi kabi), hatto buyuk qalam sohiblari ijodida pishgan, puxta ishlanib, sayqal topgan (Navoiy poetikasi, Bobur poetikasi, Qodiriy poetikasi va boshqalar).

"Balog'at" tushunchasi. Lug'atda "balog'at" so'zi yetish, oxiriga yetish ma'nolariga ega. Tilshunoslikda esa nutqdan ko'zlangan yetuk darajadagi ma'noni to'g'ri fasohat bilan yetkazishga aytiladi. Unda har bir gap munosib o'rinda keladi va eshitgan ko'ngillarga yaxshi ta'sir qiladi.

1. Nutq balog'ati. Nutqning fasohatli bo'lishi bilan bir qatorda holat taqozosiga ham mos kelishi. Balog'atli kalom mazmunan aniq bo'lgan, iborasi fasih bo'lgan, aytilayotgan o'rniga va tinglovchilarga munosib bo'lgan kalomdir.

Balog'atning 2 chegarasi bor:

a) Eng yuqori darajasi. Bu – so'z bilan ojiz qoldirish darajasi.

b) Eng pastki darajasi. Bu – agar undan ham pastroq darajaga tushilsa, balog'at sohiblari nazdida "hayvonlar tovushi" darajasiga tushib qolinadigan daraja.

Ushbu 2 chegara o'rtasida ko'pgina darajalar bo'lib, ular so'zga husn bag'ishlaydigan jihatlarning ko'lami va sifatiga bog'liq. Nutqdagi balog'at fasohat shartlariga rioya qilishi bilan bir vaqtda quyidagi jihatlarga ham e'tibor qaratadi. (quyidagi gaplarni yana ko'rib chiqish maqsadga muvofiq)

a) **Hol.** U "maqom" ham deyilib, gapiruvchiga o'z iborasini muayyan bir suratda bayon qilishga undaydigan omil.

b) **"Al-muqtazo".** Uni "holga yarasha e'tibor" ham deyiladi. U nutq bayon qilinadigan maxsus surat degani. Masalan, madh (maqto'v), oshirib

gapirishga chorlaydigan hol. Yoki eshituvchining zakovati. Bu qisqa suratda bayon qilishga chorlovchi hol. Madh va zakovatning har ikkisi – hol. Oshirib va qisqa qilib gapirish – taqozo. Gapni uzun yoki qisqa soʻzlash vaziyatga muvofiq kelish deyiladi.

2. Notiq balogʻati. Har qanday maqsadni ifodalash boʻlmasin, oʻz fikrini balogʻatli nutq bilan bayon etish qobiliyati.

Har bir balogʻatli notiq fasohatli boʻladi, lekin fasohatlilikning hammasi ham balogʻatli emas. Nutqdagi nomutanosiblik uni talaffuz qilish bilan, morfologik qiyosga zid kelishi sarfga qiyoslash bilan, sintaktik jihatdan nuqsonli yoki lafziy chigal boʻlishi nahv bilan, soʻzning “begonaligi” arab tilidan yaxshi xabardor boʻlish bilan hamda maʼnoviy chigallik esa bayon qilish orqali maʼlum boʻladi. Balogʻat tolibi tilni, sarf va nahvni yaxshi bilishi hamda arab tilidan yaxshi xabardor boʻlishi kerak. Balogʻatning elementlariga quyidagilar kiradi: lafz, maʼno, shuningdek, soʻzlarni taʼkid, taʼsir va husn jihatdan kuchli joylashtirish, soʻng nutqning vaqti, oʻrni, mavzusiga koʻra, tinglovchilar holatiga, hukmronlik qilib turgan kayfiyat eʼtiboriga koʻra soʻzlarni va uslubni tanlashdagi sinchkovlik. Balogʻat ilmini oʻrganish asnosida biz quyidagi foydalarga erishishimiz mumkin:

- Qurʼoni Karimni moʻjizaviy, aqlarni hayron qoldiradigan muqaddas kitob ekanligini anglash;

- Aytilgan gapdagi yaxshi bilan yomonni toʻla farqlay oladigan boʻlish;

- Maʼnoni ifodalab berishda xatarli (shubhaga soladigan) narsalardan uzoqda boʻlish;

- Aytilgan gapdagi soʻzlarning joylashuv tarkibini yaxshi oʻrganib olish;

- Sof adabiy iboralar bilan soʻzlagan holda tinglovchi eʼtiborini jalb qilish va zeriktirib qoʻymaslik.

Sharqda adabiyot nazariyasi 3 yoʻnalishdagi mustaqil sohalar doirasida olib borilgan. Bular: aruz ilmi, qofiya ilmi va balogʻa ilmi, yaʼni badiiy soʻz sanʼatlari haqidagi sohalardan iborat.

Adabiyot soʻzi oʻzagi adabdir. XII asrda “ilmi adab” yoki “ilmi bade” atamasi vujudga keldi. Bu soʻz sanʼatidagi badiiy vositalar, usullar va turlarni oʻrgatishga bagʻishlangan. Oʻsha davrda adabiyot soʻzi keng maʼnoda umuman kitoblar, risolalar, maqolalar, yaʼni koʻpchilikning oʻqishi uchun yozilgan asarlarni bildirgan. Tor maʼnoda esa yozma badiiy adabiyotni anglatgan. Hozir arab mamlakatlarida badiiy adabiyot maʼnosida ishlatiladi; tasavvufda tariqatdan saboq beruvchi pir yoki shayx

va saboq oluvchi murid yoki solihning rioya qilishi zarur bo'lgan qonun-qoidalar nazarda tutiladi. Shayxlar va solihlar adabi xususida ko'plab asarlar yozilgan.

Sharq mumtoz adabiyotshunosligi tarixiga nazar tashlansa, yuqorida ko'rsatilgan 3 yo'nalishdagi ilmiy manbalar alohida-alohida bayon etilganligi ma'lum bo'ladi. Mas., Muhammad bin Umar ar-Roduyoniyning "Tarjimon ul-balog'a", Rashiddin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r", Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Boburning "Muxtasar", Husayn Voiz Koshifiyning "Badoyi' ul-afkor fi sanoyi' ul-ash'or", Atoulllo Husayniyning "Badoye' us-sanoyi'", Vohid Tabriziyning "Jam'i muxtasar" kabi asarlarida aruz, qofiya va badiiy san'atlar haqida alohida-alohida fikr yuritilgan. Sharq adabiy-nazariy ta'limoti asosan she'riyat materialiga asoslangan bo'lib, ularda badiiy nasr, dramaga oid nazariy kuzatishlar uchramaydi. Chunki Sharq mumtoz adabiyotida badiiy nasr va drama janrlari mavjud emas edi. Sharq adabiy-nazariy qarashlari rivojiga Abu Nasr Forobiy "Kalom fish-she'r va al-qavofi'" ("She'r va qofiyalar haqida so'z"), "Kitob fil-lug'ot" ("Til haqida kitob"), "She'r san'ati" kabi asarlari bilan katta hissa qo'shdilar.

O'zbek filologiyasi tarixida poetika bo'yicha dastlabki kuzatishlar "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Xojib), "Devonu lug'otit-turk" (M.Koshg'ariy) asarlaridan boshlangan. She'r nazariyasini rivojlantirishda Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", Boburning "Muxtasar" asarlari muhim rol o'ynadi. Adabiyot va san'atning yuksak badiiyligi, g'oyaviyligi uchun kurash borgan va borayotgan keyingi davrlarda o'zbek adabiyotshunoslari ham poetika masalalarini tadqiq etishga katta e'tibor berdilar.

O'zbek adabiyotshunosligida adabiyot nazariyasiga oid haqiqiy yaxlit ilmiy asar 20-asrning 20-yillarida Fitrat tomonidan yaratildi. Uning "Adabiyot qoidalari" kitobida badiiy adabiyotning o'ziga xosligi, ijtimoiy tabiati, adabiy tur va janrlar, sujet, kompozitsiya, badiiy nutq va mahorat masalalari haqida ilk bor yaxlit ma'lumotlar berilgan. Abdurahmon Sa'diyning "Adabiyot nazariyasi" asari adabiyot nazariyasiga oid ilk asarlardan hisoblanadi. Shulardan keyin adabiyot nazariyasiga oid ikkinchi asar 1939-yilda Izzat Sulton tomonidan yaratildi. Keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan ikki jildli "Adabiyot nazariyasi" (1-jild 1978, 2-jild 1979), 1980-yilda Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" darsliklari chop ettirildi. Adabiyot nazariyasi rivojiga H.Yoqubov, M. Yunusov, M. Qo'shjonov kabi olimlar ham katta hissa qo'shdilar.

Navoiy ijodi poetikasini o'rganishda V.Zohidov, M.Shayxzoda, A.Hayitmetov, Y.Is'haqov va boshqalarning tadqiqotlari, Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor romanlari poetikasi bo'yicha M.Qo'shjonov, U.Normatov va boshqalarning o'zbek she'riyati poetikasi haqida O.Sharafiddinov va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. O'zbek folklori namunalari poetikasi ham tadqiq etilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1995.
2. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. – T.: Sharq, 1998.
3. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA'LIM-MEDIA, 2019.
4. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – T.: 2006, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 196-201-betlar.
5. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon. Asarlar. O'n besh tomlik. T. 14. – T.: Fan, 1967. – B.137.

7-mavzu: MUMTOZ ADABIYOTDA ADABIY TURLAR VA SHE'R NAV'LARI

Reja:

1. *Adabiy tur tushunchasi.*
2. *Lirik tur haqida.*
3. *Musammatlar haqida.*

She'riy janrlar **Badiiy adabiyotning lirik turiga** mansub.

Badiiy adabiyot ham san'atning bir turi hisoblanadi. Hayotni aks ettirishda rassom uchun rang, bastakor uchun ohang, haykaltarosh uchun marmar, yozuvchi, shoir, dramaturg uchun so'z asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun Badiiy adabiyot "**So'z san'ati**" deyiladi. Badiiy adabiyotning o'rganadigan obyekti **Hayot**, yanada aniqroq aytganda **Inson**. Insoniyat paydo bo'lgandan to shu vaqtga qadar yuzlab tilda yaratilgan butun og'zaki va yozma adabiyot 3 turga bo'linadi: **1.Epos (Epik tur) 2.Lirika (Lirik tur) 3.Dramaturgiya (Dramatik tur)**

Bu 3 adabiy turni "Hayotni so'z orqali aks ettirishning 3 yo'li" deb hisoblash mumkin. (Badiiy adabiyotni **Aristotel** o'zining "**Poetika**" asarida tur va janrlarga bo'lgan). Voqelikni so'z orqali badiiy yo'sinda

tasvirlashning qandaydir bir yangi - 4- yo'lini insoniyat kashf etgani yo'q. Lekin bitta qorishiq adabiy tur bor. U lirika va epik tur xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Biz buni **liro-epik tur** deb ataymiz. Bunga yozma adabiyotdagi doston, she'riy hikoya, she'riy qissa, she'riy roman, xalq ertaklari asosida shoirlar tomonidan she'riy yo'l bilan yaratilgan adabiy ertaklar kiradi (Hamid Olimjon "Semurg' yoki Parizod Bunyod", "Oygul bilan Baxtiyor"; Pushkin "Shoh sulton haqida ertak", "Oltin baliq va baliqchi chol haqida ertak"..)

Lirik tur

Lirikada, asosan, 1 shaxsning – lirik qahramonning ichki kechinmalari, muhabbat va nafrati, sog'inch va iztiroblari, orzu va armonlari, dard-u g'amlari, tuyg'ularga chulg'angan fikr-o'ylari aks ettiriladi. Lirikada bu his-tuyg'ular boshqa adabiy turlarga nisbatta chuqurroq aks ettiriladi.

Lirik turga mansub janrlarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin:

I. Qat'iy vaznda yoziladigan janrlar:

1.Tuyuq. 2.Ruboiy. 3.Mustazod. 4.Sayohatnoma.

II. O'zining qat'iy vazniga ega bo'lmagan janrlar:

1.Fard. 2.Qit'a. 3.G'azal. 4.Masnaviy. 5.Murabba. 6.Muxammas. 7.Musaddas. 8.Musabba'. 9.Musamman. 10.Muashhar. 11.Qasida. 12.Muammo. 13.Chiston.

(Lug'z). 14.Ta'rix. 15.Tarji'band. 16.Tarkibband. 17.Marsiya.

18.Soqiynoma.

III. Rus va jahon adabiyoti ta'sirida o'zbek adabiyotiga kirib kelgan janrlar:

1.Sonet. 2.Gimn. 3.Mansura (Sochma). 4.Oq she'r.

Lirik turga mansub yana shunday asarlar borki, ular qandaydir bir janr bilan nomlanmaydi. Oddiygina qilib **she'r** deb yuritiladi.

She'riy janrlarni o'rganishdan oldin **qofiya** nimaligini uni yuzaga keltiradigan unsurlarini bilish kerak!

Qofiya – she'r misralaridagi ohangdosh so'z va so'zlar uyushmasi. Qofiyani ham o'ziga xos unsurlari – uni yuzaga keltiradigan tovushlari bor.

Raviy – qofiyadosh bo'lib kelgan tub so'zlar oxiridagi, yasama so'zlar negizinig oxirgi tovushlaridir.

Raviysiz qofiya umuman yo'q!

Oshiqki erur ishida sodiq

Ma'shuq bo'lur boshida oshiq.

Ushbu baytda **sodiq** va **oshiq** qofiyadosh so'zlardir. Raviy esa q tovushi!

Qofiyada raviydan boshqa yana 8 ta tovush mavjud:

1.Ta'sis. 2.Ridf. 3.Qayd. 4.Daxl. 5.Vasl. 6.Xuruj. 7.Mazid.

8.Noyira.

Qofiyaning bu sifatlari ham o'z navbatida 2 ga bo'linadi:

1.**Muqayyad qofiya sifatlari.** 2.**Mutlaq qofiya sifatlari.**

Muqayyad qofiya unsurlar qofiyadosh so'zlarda raviygacha uchraydi:

Ta'sis, Ridf, Qayd, Daxl. Mutlaq qofiya unsurlari esa, qofiyadosh so'zlarda raviydan keyin keladi: **Vasl, Xuruj, Mazid, Noyira.**

She'riy nav'lar

FARD. Lug'aviy ma'nosi "yakka, yolg'iz". Bu janr lirik turdagi eng kichik janr hisoblanadi. Chunki fard 2 misradan iborat bo'ladi.

Kishi aybing desa, dam urmag'ilki, ul erur ko'zgu

Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?!

Devon tuzish an'anasiga ko'ra, fard devonga oxirida kiritiladi. Ko'pligi **mufradot** deb ataladi.

Mumtoz dostonlarning oxirida qissadan hissa tarzida keltirilishi mumkin:

Niyozim bu turur sendin, nigoro,

Unutma bandani bahri xudoro. (Xorazmiy «Muhabbatnoma» dostonining xotimasidan)

Turkiyalik olim Tohirul Mavlaviy fardni ikkiga ajratadi:

a) **Musarra'** – bayt qofiyadosh bo'ladi.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

b) **Fard** – bayt qofiyadosh bo'lmaydi.

Bilagi zo'r birni yiqar,

Bilimi zo'r – mingni.

QIT'A. Lug'aviy ma'nosi "parcha, bo'lak, qism". Qit'alar pandnoma – tarbiyaviy ruhda yoziladi. Qit'a kamida ikki baytdan iborat bo'ladi. Qofiyalanishda toq misralari ochiq qolib, juft misralari o'zaro qofiyalanadi (b-a, v-a, g-a.)

*Yuqori o'ttirurni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil.
O'ttirur safda yuqoriliqdin
O'ttirur safda yaxshiroq bilgil.*

Qit'a ikki xil yo'l bilan yoziladi:

1. Sho'r tomonidan mustaqil yaratilishi mumkin.

2. G'azalning birinchi va oxirgi baytlaridan tashqari, qolgan baytlarni olib yozish orqali.

Navoiy 300 dan ortiq qit'a yozgan bo'lib, "Xazoyin ul-ma'oniyy"ga 210 tasi kiritilgan.

G'AZAL. Lug'aviy ma'nosi "Oshiqona so'z". G'azal 5(3) - 17(19) baytdan iborat bo'ladi. G'azalning birinchi bayti o'zaro qo'fiyalanadi. Qolgan baytlarning toq misralari ochiq kelib, juft misralari birinchi baytga qo'fiyalanadi (a-a, b-a, d-a, e-a..)

Jonimdin o'zga yoru vafodor topmadim,

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdek o'zga jonni dila'fgor ko'rmadim,

Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim...

...Bobur, o'zungni o'rgatako'r, yorsizki, men

Istaj jahonni, muncha qilib, yor topmadim.

G'azalning birinchi bayti **matla'** yoki **mabda'** deb yuritiladi (matla'-quyosh chiqishi). Oxirgi bayti esa **maqta'** deyiladi (maqta'-quyosh botishi). Maqta'da odatda ijodkorning taxallusi bo'ladi.

G'azal devonga birinchi kiritiladi.

Turkiy tilda g'azalning ilk namunasini "Qissasi Rabg'uziyda" ~~Burhoniddin Rabg'uziy~~ yozib qoldirgan. (Fors-tojik she'riyatida birinchi g'azalni Abu Abdulloh Rudakiy (Odam ush-shuaro) yozib qoldirgan). Turkiy tilda eng ko'p Alisher Navoiy g'azal yozgan. Uning "Xazoyin ul-ma'oniyy" ("Ma'nolar xazinasi", devonining 2-nomi "Chor devon") nomli devonning ichki to'rt devonining har birida 650 tadan 2600 ta g'azal kiritilgan. "Devoni foniy"ga kiritilgan fors-tojik tilidagi g'azallari soni esa 600 ta.

G'azal kompozitsiyasiga – tuzilishiga ko'ra 4 ga bo'linadi:

1. Musalsal g'azal; 2. Yakpora g'azal;

3. Voqeaband g'azal; 4. Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azal.

Bundan tashqari **Muvashshah** g'azallar ham bo'ladi. Bunda har bir baytning birinchi misralaridagi birinchi harflar olib yozib chiqilsa, kishi ismi kelib chiqadi.

O'zbek adabiyotida g'azallarni qofiyalanish tartibiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. **Oddiy g'azal** – g'azalning bu turi juda keng tarqalgan. Qofiyalanishi a-a, b-a, v-a

2. **G'azali husni matla'** – bunda g'azalning birinchi baytidan tashqari ikkinchi bayti ham qofiyalangan bo'ladi. Sxemasi: a-a, a-a, b-a, v-a, g-a...

3. **G'azal-qit'a** – bunday g'azalning qofiyalanish tartibi qit'aning qofiyalanish tartibi bilan bir xil bo'ladi: b-a, v-a, g-a...

4. **G'azali musajja'** – bu g'azalda odatdagi qofiyalardan tashqari ichki qofiyalar ham bo'ladi.

5. **G'azal-muvashshah** – bu g'azalning tuzilishi muvashshahning aynan o'zini eslatadi.

6. **G'azal-muoshira** – bu g'azal ikki yoki undan ortiq shoirning dialogi – munozarasi tarzida tuziladi.

7. **G'azal-zulqofiyatayn** – bu kam uchraydigan hodisa bo'lib, unda har bir bayt o'zaro qofiyalanadi: a-a, b-b, v-v, g-g...

8. **G'azal zebqofiya** – bunda g'azalning barcha baytlari qofiyalangan bo'ladi. Bu ham kam uchraydigan hodisadir. Sxemasi: a-a, a-a, a-a, a-a, a-a,...

*Og'zi fastuq, ko'rki tangsuq, o'zi mushfiq yor erur,
Husning chovi Xito-u Chin ichinda bor erur.*

*Asli alchin, so'zlari chin, ko'zlari totor erur,
Ming yashar har kim dudog'i sharbatin totor erur.*

*Ishqining elchisina ko'nglum munaqqash dor erur,
Zulfina tushgan ko'ngullarning maqomi dor erur.*

*Nechakim ishqi o'ti bu jon ichinda bor erur,
Qahrabo uzra ko'zumda dam-badam dur bor erur.*

*Shahd so'zi, orif o'zi, voqifi asror erur,
Vasli bo'stonida xush oshiq-larin asror erur.*

*Vasfina Sayfi Saroyining ishi ash'or erur,
Andin o'zga birla oshiqqa demak ash'or erur.*

9. **G'azal-chiston** – bu topishmoqning o'zi.

10. **G'azal-nazira (tatabbu', tazmin)** – shoirning boshqa bir shoir g'azaliga o'xshatib yozilgan g'azalidir.

G'azalning oxirgi bayti maqta' deb atalib, unda shoirning taxallusi keltiriladi.

MASNAVIY. Lug'aviy ma'nosi "ikkilik". Masnaviyning har bir bayti o'zaro qo'fiyalanadi. Mumtoz adabiyotimizdagi eng yirik she'riy asarlar masnaviy janrida yozilgan.

*To'rt devon birla nazmi panj ganj
Dast berdi chekmayin anduhu ranj.*

*Nazmi nasrin kotibi taxminshunos
Yo'zsa yuz ming bayt etar erdi qiyos.*

Alisher Navoiy "Me'zon ul-avzon" risolasida masnaviy janrini "**Vase' maydon**" deb ta'riflagan.

Masnaviyda yaratilgan asarlar: «Xamsa», «Shohnoma» (Firdavsiy), «Qutadg'u bilik» (Y.X.Hojib), «Hibatul haqoyiq» (Ahmad Yuguakiy), «Muhabbatnoma» nomalari (Xorazmiy), «Shayboniynoma» (Muhammad Solih), «Tanobchilar» (Muqimiy), «Ilm xosiyati» (Furqat), «Ogohnoma» (Ogahiy), «Suhayl va Guldursin» (Sayfi Saroyi).

MURABBA'. Lug'aviy ma'nosi "to'rtlik". Har bir bandi to'rt misradan iborat bo'lgan she'riy janr. Murabba'ning birinchi bandi o'zaro qo'fiyalandi, keyingi bandlarining 1-2-3- misralari o'zaro qo'fiyalanib, 4-misrasi birinchi bandga qo'fiyalanadi yoki birinchi bandning 4-misrasi takrorlanadi.

*Hamd-u sanolar aytay xudoga,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?
Yetgaymu dodim nazuk adoga,
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?
Shum toleyimdan ko'r'dum jafoni,
Zolim raqiblar ko'r'di vafoni,
Holim so'r emdi, bergil davoni
Yorga yetar kun bormu, yoronlar?*

MUXAMMAS. Lug'aviy ma'nosi "beshlik". Har bir bandi 5 misradan iborat bo'lgan she'riy janr. Mumtoz adabiyotimizda muxammasning 2 xil ko'rinishi bor:

1.Muxammasi tabi xud. Bunda shoir muxammasni to'lig'icha o'zi ijod qilib yozadi.

2.Muxammasi taxmis (tazmin). Bunda ijodkor o'zga shoirning g'azalidan ta'sirlanib, o'sha g'azalning vaznini qo'fiyalanishini, g'oyasini

saqlagan holda, g'azalning har bir baytidan oldin 3 misra o'zi ijod qilib qo'shadi. Bunday muxammaslarning oxirgi bandida har ikki ijodkorning taxallusi bo'ladi.

*So'kmoq o'tganlar ishin notavonlar rasmikim,
O'z zamonin rost etar qavmi marddir aslikim,
Bul hayot tilsimlarin ochmoq Omonlar kasbikim,
Ey Navoiy, qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,
Shoh G'oziyga karam avvalgilarga o'xshamas.*

Tuyuq – bevosita turkiy adabiyotda shakllangan bo'lib, qat'iy ramali musaddasi maqsur vaznida yoziladigan, to'rt misradan iborat bo'lgan, misra oxirida radiflar omonim so'zlardan iborat bo'lgan she'r. Tuyuq sof turkcha so'z bo'lib, yechilmaydigan qilib tuyuq degan ma'noni bildiradi. A.Navoiy tuyuqni "turk shuarosining xossasi" deb ta'kidlagan. Turkiy yozma adabiyotida dastlabki tuyuqni Yusuf Xos Hojib yaratgan, lekin bu shakl vazn nuqtayi nazaridan tuyuqqa mos kelmaydi. Qo'fiyalanishi: a-a-a-a, a-a-b-a.

Ruboiy – o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanib kelingan, hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yoziladigan, to'rt misradan iborat ishqiy, axloqiy, siyosiy-falsafiy mavzulardagi she'r. Forsiylarda dubaytiy deb ham atalgan. Ruboiylar ikki xil bo'ladi:

1. **Oddiy ruboiylar (ruboiyi xossa yoki xosiy ruboiy):** qo'fiyalanishi: a-a-b-a-

2. **Tarona ruboiylar (taronai ruboiy):** qo'fiyalanishi: a-a-a-a

Musammat – bandli she'rlar bo'lib, musammat deganda, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, muashshar shakllari anglashiladi. Bu atama arabcha bo'lib, ipga terilgan marvarid degan ma'noni anglatadi.

Musallas – uch misrali band usulida yozilgan she'r.

Qo'fiyalanishi: a-b-b, v-g-g... H.H.Niyoziyning «Dardiga darmon istamas» she'ri musallas janrida yozilgan. O'zbek she'riyatida **uch chanoq**, G'arb she'riyatida **tersina**, yapon she'riyatida **xokku** deb yuritiladi.

Murabba' – o'zaro qo'fiyalangan to'rt misralik band usulida yozilgan she'r.

Qo'fiyalanishi: a-a-a-a, b-b-b-a, d-d-d-a, ...

Muxammas – beshlik band usulida yozilgan she'r. Muxammaslar ikki xil bo'ladi:

1. Bir shoirning o'z muxammasi (mustaqil muxammaslar)

2. Taxmis – boshqa shoirga ergashib, izdoshlik, uning g'azalidan ta'sirlanish, ilhomlanish usulida yozilgan muxammaslar. Qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-a

Musaddas – har bir bandi olti misradan iborat bo'lgan she'r.

Musaddaslar ham ikki xil bo'ladi: 1. Mustaqil yaratilgan musaddaslar. 2. Boshqa shoir tomonidan yaratilgan g'azallarning vazni va qofiyasiga mos yaratilgan musaddaslar.

Qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a...

Furqatning «Sayding qo'ya ber, sayyod» (7 band, 42 misrali) musaddasi mashhur. (Yosh hofiz Sa'dullo degan yigitning fojiali o'limidan ta'sirlanib yaratilgan). Aslida Furqat bu she'ni turkman shoiri Nurmuhammad Andalibning «Layli va Majnun» dostonidan olingan «Seyding go'ya ber, seyyad» (4 band, 20 misrali) muxammasiga tazmin usulda yaratgan.

Musabba' – har bandi yetti misradan tashkil topgan she'r.

Qofiyalanishi: a-a-

a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a...

Musamman – sakkiz misrali band usulida yozilgan she'r.

Qofiyalanishi: a-a-

a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a...

Mutassa' – har bandi to'qqiz misradan iborat she'r. Qofiyalanishi:

a-a-a-a-a-

a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a...

Muashshar – har bandi o'n misradan iborat she'r shakli.

Qofiyalanishi: a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-b-a... Nodiraning turmush o'rtog'i Amir Umarxon vafotiga atab yozgan «Firoqnoma» asari shu janrda yaratilgan.

Tarkibband – har bir hajman g'azalga teng bo'lgan va g'azal singari qofiyalanuvchi bandlardan tuzilgan she'r bo'lib, bunda har qaysi band oxiridagi ikki misra mustaqil ohangdoshlikka ega bo'ladi.

Tarji'band – qofiya tuzilishi tarkibbandnikiga o'xshash she'r shakli. Farq shundaki, tarkibbandda bandlar oxiridagi bir bayt mustaqil qofiyalansa, tarji'banddagi hamma bandlar oxirida bir xil bayt takrorlanib keladi. Navoiyning «G'aroyib us-sig'ar» devoniga kiritilgan «Xarobot aro kirdim...» tarjibandi 10 band, 200 misradan iborat bo'lib, maqta'si quyidagicha takrorlanadi:

*Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'on safol.*

Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» to'plamiga 4 ta tarjiband kiritilgan. Ogahiyning «Dahr uyi bunyodkim...» deb boshlanuvchi tarjibandining takrorlanuvchi maqta'si: *Dahr bir vayronayedurkim, xarob obod erur,*

Chiqsa ondin har kishi – g'am bandidin ozod erur.

Mustazod – orttirilgan degan ma'noni ifodalaydi, g'azalga monand she'r misralaridan har biriga yana yarim misra orttiriladi, oqibatda har qatori bir yarim misralik she'r hosil bo'ladi. A.Navoiy mustazodni qo'shiq deb atagan. Mustazod hazaji axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan g'azalga qo'shimcha ikki rukn orttirilgan she'r hisoblanadi. O'zbek adabiyotida Ogahiyga nisbatan "mukammal mustazod kashfiyotchisi" degan ta'rif qo'llaniladi. Chunki u mustazoddagi yarimta misrani juftlashtirgan.

*Ey yor, sango ushbu jahon bog'i aro gul,
bir oshiqi hayron,
diydoringa shaydo
Bir sheftadur kokuli mushkuninga sunbul,
ham holi parishon,
ham boshida savd*

Muammo – bir bayt, ba'zan ikki-uch baytdan iborat bo'lgan, arab harflari orqali biror narsani yashirishga suyangan ta'kid yoki ishora asosida yozilgan topishmoq-she'r.

Chiston – biror narsa yoki hodisaning o'ziga xos xususiyatlari, belgilarni ta'riflash orqali o'quvchilarni o'sha narsa yoki hodisani topishga undaydigan topishmoq-she'r. Adabiyotda lug'z deb ataladi.

Qasida – shohlar, amirlar, mashhur kishilar, tarixiy voqealarga bag'ishlangan maqtoqli va dabdabali xarakterga ega bo'lgan she'r.

Qasidaning umumiy hajmi 15-20 baytdan kam bo'lmaydi. Qasida voqelikni aks ettirish usuli, xarakteri va mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Qasidayi bahoriya* – bahor tasviriga bag'ishlangan qasida.
2. *Qasidayi holiya* – o'z ruhiy holati ifodalangan, taqdirdan, hayotdan shikoyat qilish g'oyalari asosiy o'rin tutadigan qasida.
3. *Qasidayi ishqiya* – ishqiy mavzudagi qasida.
4. *Qasidayi xamriya* – shoirning o'z-o'zodan faxrlanishga bag'ishlangan qasida.
5. *Qasidayi hajviya* – biror shaxs va voqea hajviga bag'ishlangan qasida.
6. *Qasidayi xazoniya* – kuz fasliga bag'ishlangan qasida.
7. *Qasidayi masnu'* – san'atli, ya'ni bezakli qasida. Qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a,...

Qasidalar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. **To'liq** qasidalar – *nasib*, *gurizgoh*, *madh*, *qasd* kabi qismlardan iborat bo'ladi.

- **Nasib** – Qasidaning tabiat tasviri ifoda etiluvchi kirish qismi.
- **Gurizgoh** – Kirish bilan madhni bog'lovchi, 4-5 baytlik she'r
- **Madh** – Shaxsning fazilat va sifatlarini maqtaydigan qism.
- **Qasd** – Shoirning maqsadi, niyati, qasida bag'ishlangan shaxsga tilak va istaklari.

2. **Chala** (mujarrad) qasidalar – yuqoridagi qismlar to'liq bo'lmaydi.

O'zbek adabiyotida eng ko'p qasidani Sakkokiy (11 qasida) yaratgan.

Sakkokiy Xalil Sultonga ikkita, Arslon Xo'ja Tarxonga to'rtta, Xo'ja Muhammad Porsoga bitta, Mirzo Ulug'bekka to'rtta qasida bitgan.

Navoiy 1469-yilda Husayn Boyqaro taxtga o'tirishi munosabati bilan «Hiloliya» qasidasini yozgan.

Ogahiy Feruz taxtga o'tirishi munosabati bilan «Ogohnoma» qasidasini yozgan.

Marsiya – biror kishining vafoti munosabati bilan g'am-alamni ifodalagan lirik she'r.

Mufradot – ayrim baytlardan tuzilgan mustaqil asar, fardlar majmui.

Soqiynoma – soqiya murohaat bilan boshlanib, lirik qahramon kechinmalarini masnaviy tarzida yoziluvchi, goho qisqa lirik, goho liro-epik poemani eslatuvchi she’rdir.

Nazira – lirikada ergashish yo’li bilan, javob va o’xshatish tariqasida yoziladigan she’r.

Shiru-shakar – ma’lum bir tartibda ikki til ishtirokida yozilgan she’r.

Noma – xat, maktub. Badiiy adabiyotda maktub tarzida yozilgan she’riy asarning bir turi.

Madhiya – biror kishi, hodisa yoki qadrlı narsaga atab, uni madh etib yozilgan she’r.

Muvashshah – ma’naviy san’atlardan biri, ayni vaqtda she’riy janr. Bunda she’r asosan g’azal shaklida yozilib, she’r misralari boshidagi harflar yig’indisidan birona kishi ismi yoki narsa nomi kelib chiqadi.

Umumiy savol va topshiriqlar:

1. *Adabiy tur va janr atamalarini tushuntirib bering.*
2. *Lirik turga mansub janrlarga ta’rif bering.*
3. *Bandli va baytli she’rlarni farqlab bering.*
4. *G’azalning kompozitsiyasiga ko’ra turlarini farqlab bering.*
5. *Faqat turkiy she’riyatga xos bo’lgan janr qaysi?*
6. *Qasida va uning turlari haqida nima bilasiz?*

Adabiyotlar:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA’LIM-MEDIA, 2019.
2. Hojiahmedov A. O’zbek aruzi lug’ati. – T.: “Sharq”, 1998.
3. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. T.: 2006, «O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 196-201-betlar.
4. Alisher Navoiy. Mezonu-l-avzon. Asarlar. O’n besh tomlik. T. 14. – T.: Fan, 1967. – B.137.

TALQINI.

Reja:

1. *Ilmi bade' haqida ma'lumot.*
2. *Lafziy san'atlar haqida.*
3. *Ma'noviy san'atlar haqida.*

Ilmi badi', **ilmul badi'** - balog'at tarkibiga kiruvchi uch ilmnining biri hisoblanadi. **Ilmul badi'**ga oid dastlabki asarlar arab tilida yaratilgan bo'lib, IX-X asrlarga oid Nasr bin Hasanning "Mahosin ul-kalom", Ibn Mu'tazning "Kitob ul-badi'", Qudama Ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" risolalari shular jumlasidandir. Shuningdek, fors tilida yaratilgan Umar Roduyoniyning "Tarjimon ul-balog'a", Atoullloh Husayniyning "Badoyi us-sanoyi'" asarlari ilmu-l-badi'ning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, turkiy tildagi **ilmul badi'**ga doir ilk asar sifatida Shayx Ahmad Xudoydodning XV asrda yaratilgan "Funun ul-balog'a" risolasi e'tirof etiladi. **Ilmul badi'** aytiladigan gapni vaziyatga muvofiq ravishda bezash, go'zal shaklga keltirish, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, tasniflanishi, nutqning estetik funksiyasini oshirish, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash kabi masalalarni o'rganuvchi ilm. Bu ilm yana "badiiy bezovchi vositalar" deb ham ataladi. **Ilmul badi'** ba'zan lafz, ba'zan esa ma'no bilan bog'liq bo'ladi.

Badiiy san'atlar tarixiga bir nazar. Arab olimlari she'riy nutq go'zalligi (san'atlari) ni zotiy (tabiiy) va oriziy (bezakli) guruhlariga ajratib (bu haqidagi ilmni «Balog'at ilmi» deb nomlab) o'rganishgan bo'lsalar, fors-tojik va turk-o'zbek olimlari esa zotiy va oriziy go'zalliklarni qo'shib, "sanoyi' bade'" (badiiy san'atlar) va bu haqdagi ilmni «Ilmi sanoyi'» (4 san'at ilmi) deb atashgani. Bu soha bo'yicha asrlar davomida arab, fors-tojik va qisman turkiy tilda risolalar yozilganitarixiy poetika ilmi ravnaq topgani, biroq bunday nodir asarlar o'zbek tiliga to'la tarjima qilinmagani, hozirgi zamon she'rshunosligi yutuqlari zaminida puxta o'rganilmaganligi- tarixiy poetik ko'ngildagidek targ'ib va tashviq qilinmayotganini ko'rsatadi.

«Sanoyi' bade'» metodik jihatdan quyidagi uch guruhga ajratib o'rganilishi:

1. **Lafziy san'atlar** – so'zning tovush jihati bilan bog'liq san'at hodisaai ekanligi. Lafziy san'atlarda so'z shakli poetik mazmun (ma'no)ga xizmat qildirilishi. Lafziy san'atlar g'oyatda ko'p va ular rang-barang ekanligi. Lafziy san'atlardan namuna sifatida tarsi', saj', mulamma',

qaytarish, radd ul-aks, radd ul-matla, radd ul qofiya tahliliga alohida e'tibor berish.

2. **Ma'naviy san'atlar.** She'r ma'nosi, g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan san'atlar «ma'naviy san'atlar» deb yuritilishi. Ma'naviy san'atlar ham ko'p va ular rang-barangdir. Shulardan tashbih, iyhom, ishtiyoq, lutf, tazod, tadrij, irsoli-l-masal, kalom-i-jomi', ruju', tajohulu-l-orif, tansiq us- sifot, iltifot, laffu nashr, husni ta'lil, savolu javob, ta'dil, talmih, muammo, muvashshah, ta'rix, chiston kabilar tahlili.

3. **Ma'naviy-lafziy** (mushtarak) san'atlar. She'rning ham tovush (shakl), ham ma'no (mazmun) jihati bilan uzviy bog'liq bo'lgan san'atlar. Bu turda ham ko'plab san'atlar mavjud: mutobaqa, tadbij, muqobala, tafvif, irsod, tanosib, ittirad, muzovaja, iqtibos, darj, xall, tazmin va boshqalar. Bu turdagi san'atlardan, masalan, tanosib va tajnis san'atlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

TASHBIH

Tashbih – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, «o'xshatish» ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbih san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalandirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

Sharq adabiyotshunosligida tashbihlar haqiqiy (real) va majoziy tashbihlarga bo'lingan. Aniq, hayotiy buyumlar, uxshatish uchun tanlangan bo'lsa, **haqiqiy tashbih**, noaniq, mavhumiy tushunchalar tanlangan bo'lsa **majoziy tashbih** hisoblangan.

Masalan, Furqatning

Labing g'uncha, yuzing ikki qizil gul,

Qading sarvu, soching guyoki sunbul

baytida ma'shuqaning a'zolari aniq narsalarga: labi g'unchaga, yuzi qizil gulga, qaddi sarvga, sochi esa sunbulga o'xshatiladi. Binobarin, bu o'rinda haqiqiy tashbih qo'llanilgan.

Tashbih san'ati quyidagi to'rt juzv asosida qo'llaniladi:

1. Mushabbih – nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yo tushuncha.

2. Mushabbihun bih – nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.

3. Vajhi shabih – mushabbih bilan mushabbihun bih orasidagi munosabat.

4. Vositai tashbih – o'xshatish belgisi.

Masalan: «Sevgilim go'zallikda Shirin kabidir» deb tasvirlansa, «sevgilim» so'zi mushabbih, «Shirin» – mushabbihun bih, «go'zallikda» – vajhi shabih, «kabidir» – vositai tashbihdir.

Hamma juzvi mavjud bo'lgan o'xshatish «**tashbihi mufassal**» deb ataladi.

She'riyatda vajhi juzvi qo'llanmasligi ham mumkin. Masalan, Muqimiyning

Ko'zlaring cho'lpona o'xshar, qoralig'da sochlaring

Orazing oydin munavvar, osmondir qoshlaring

baytidagi «ko'zlaring cho'lpona o'xshar» degan tasvirda «ko'zlaring»-mushabbih, «cho'lpona»-mushabbihun bih, «o'xshar» so'zi esa vositai tashbih bo'lib, vajhi tushirib qoldirilgan. Bu xil o'xshatish «**tashbihi mujmal**» sanaladi.

She'riyatda ko'pincha vajhi shabih va vositai tashbihning har ikkisi tushirib qoldiriladi. Bu holda faqat mushabbih va mushabbihun bihdan tashkil topgan o'xshatish «**tashbihi muyaqqad**» deb ataladi.

Tashbihi muyaqqad tashbihi mufassalga qaraganda o'xshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi. Masalan,

Gul yuzing hajrinda o'zdim ketgay erdim dam-badam,

Gar bu sorig' yuz uza ko'z urmasa har dam gulob

misrasida Lutfiy «go'zallikda gulga o'xshash yuzing» jumlasida o'rniga «gul yuzing» tarzidagi qisqa, aniq tashbihni qo'llar ekan, u mufassal holdagi o'xshatishga qaraganda ma'shuqa latofatini yorqinroq gavalantiradi.

Alisher Navoiyning

Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg'a ayt,

Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandoming'a ayt,

Atoyining

Ey **menglari mushku, engi lola, ko'zi ohu**,

Zulfig g'amida tutti ko'ngulni qora qayg'u,

kabi misralarida ham ana shu xildagi tashbih qo'llangan.

Mazkur san'at qo'llanilar ekan, mushabbih va mushabbihun bih juzvlari birdan ortiq kelishi mumkin, albatta.

Muqimiyning

La'li labing qandu asal, qildi tamannosi kasal,

Kom olmaganda filmasal, men mubtalo qayga boray

Misralarida ma'shuqa labi (mushabbi) bir vaqtning o'zida la'lga, qandga va asal (mushabbihun bihlar)ga o'xshatilgan. Bu kabi hollarda, ya'ni mushabbih bitta bo'lib, mushabbihun bih birdan ortiq bo'lsa, bu xil o'xshatish «**tashbihi jam**» deb ataladi.

Ba'zi mushabbihun bih bitta bo'lgan holda mushabbih birdan ziyod keltirishi mumkin. Masalan, Furqatning

Lab-gul, oraz-gul, badan-gul, jabha-gul, bir nahldin

Ey vujuding gulshanida bor bu miqdor gul

baytida ana shu holni ko'ramiz. Ya'ni ma'shuqaning labi ham, yuzi ham, badani ham, jabhasi ham (mushabbihlar) bitta narsaga-gul (mushabbihun bih)ga o'xshatilgan. Bu xil o'xshatish «**tashbihi tavsiiya**» nomi bilan yuritiladi.

Sharq she'riyatida mushabbih va mushabbihun bihning har ikkisi birdan ortiq qo'llangan hollar ham ko'p uchraydi.

Ba'zan mushabbih va mushabbihun bihlar juft-juft bo'lib kelishi ham mumkin. Jumladan, Boburning

Engi mengi oyu, dog'i, yuzi, so'zi-gulu mul,

Qadi ravonu tani jonu erni marjondur

baytining birinchi misrasida mushabbihlar-«engi, mengi» va «yuzi, so'zi» so'zlari hamda ularning mushabbihun bihlari-«oyudog'i», «gulu mul» so'zlari juft-juft bo'lib kelgan.

Bu xil tashbihlar ham ikki turlidir. Ba'zan she'r misralarida mushabbih va mushabbihun bihlar ketma-ket, ya'ni bir mushabbih va mushabbihun bihdan so'ng ikkinchi, keyin uchinchisi sanaladi. Bu xil o'xshatishlar «**tashbihi mafruq**» («ajratilgan tashbih») deyiladi Masalan:

Pari ruxsoralarning ko'rka boyi,

Yuzung navro'zu, qoshing bayram oyi

...Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

...Falak ishqing yo'lida besaru poy,

Isirg'ang donasi Zuhra, yuzung oy. (Xorazmiy)

Birinchi misrada mushabbihlar, ikkinchisida mushabbihun bihlar sanalsa, bu xil o'xshatish «**tashbihi muallif**» deyiladi.

Uvaysining

Yuzi zulfu qadi ra'nosini ko'rganda dermishman

Ham ul guldur, ham ul sunbul, ham ul bir naxli shamshodi

baytining birinchi misrasidagi «yuz», «zulf», «qad» so'zlari mushabbih bo'lib, keyingi misrada ana shu a'zolar o'xshatilgan narsalar «gul», «sunbul», «naxli shamshod» tilga olinyapti.

Ogahiyning

Olida ham sarvu gul, ham g'uncha bo'lmishdur hijil,

Ul paridin o'zgaga bo'yhton qadu ruxsoru lab

baytidagi birinchi misrada mushabbihun bihlar (sarv, gul, g'uncha),
ikkinchisida esa mushabbihlar (qad, ruxsor, lab) sanalgan.

Sakkokiy qalamiga mansub bo'lgan

Bo'yu yuzu la'l ernu xatu xaddina tush yo'q,

Sarvu gulu mul nastaranu yosuman ichra

Baytidagi birinchi misrada mushabbihlar, ikkinchisida mushabbihun
bihlar keltirilgan.

Alisher Navoiyning

Andoq ko'rindi sabza orasinda lolalar

Kim sabz xatlar ilgida oltin piyolalar

baytida ham shu xil tashbih qo'llangan. Diqqat qilinsa, birinchi
misradagi «sabza», «lolalar» so'zlari mushabbih bo'lib, «sabz xatlar ilgi»,
«oltin piyolalar» so'zlari mushabbihun bih ekanligini aniqlash qiyin emas.

Mazkur baytda shoir mushabbihun bihlar tarzida tanlangan narsalarni
o'zaro munosabatta kiritgan holda ikkita ayrim-ayrim o'xshatish o'rniga
va takrorlanmas badiiy manzara yaratgan.

Mumtoz adabiyotimizda shoirlarning bu xil tashbihga juda ko'p
murojaat etganini ko'ramiz. Xususan, Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiy,
Ogahiy, Furqat, Komil Xorazmiy kabi yirik so'z ustalarining lirik va epik
ijodida, bu san'atga murojaat qilinib, ko'plab takrorlanmas manzaralar
yaratilgan. Masalan:

Ko'nubdur xol ul ruxsor uzra,

Ki zangi bachasi gulzor uzra. (Xorazmiy)

Tashbih san'atining bir necha turi mavjud bo'lib, ular tashbihi
mutlaq, tashbihi kinoya, tashbihi mashrut, tashbihi tasviya, tashbihi aks,
tashbihi izmor va tashbihi tafzil nomlari bilan ataladi.

TASHBIHI MUTLAQ. «Aniq o'xshatish» ma'nosini ifodalovchi bu
xil san'at guyo, singari, -day, -dek kabi so'z yoki qo'shimchalar (odoti
tashbih) qo'llangan, shuningdek, shart, kinoya, tavsiya, aks, imzor va
tafzildan xoli bo'lgan tashbihni anglatadi. Masalan, Xorazmiy
«Muhabbatnoma»sidagi

Bo'yung sarvi sanubartek, beling – qil,

Vafo qilg'on kishilarga vafo qil

baytida mahbuba bo'yi sarv bilan sanobarga o'xshatilganligi –tek
qo'shimchasidan aniq ko'rinib turibdi. Ayni vaqtda uning beli qilga
tashbih qilingani ham ochiq-oydin ko'zga tashlanadi. Lutfiyning

Zihi sarv ustida yuzung kamardek,
Qani bir shoxi gul sen siymbardek
baytida ma'shuqa yuzi qamarga -dek qo'shimchasi vositasida aniq
o'xshatilgan. Furqat qalamiga mansub

Orazing erur jannat, chashm huru g'ulmoning;

Qomating erur to'bi, xatt-sabz rayhoning

baytidagi o'xshatishlar ham shu tarzda mutlaq tashbithdir

TASHBIHI KINOYA. She'riy ijodda tashbih qo'llanilar ekan, ko'pincha o'xshatilayotgan narsa (mushabbih) nomi tushirib qoldiriladi-da, o'xshatilgan narsa (mushabbihun bih) nomigina saqlanadi. Ammo mushabbihni ya'ni nima o'xshatilayotganini osongina aniqlash mumkin. Masalan, Lutfiy o'zining

Ul la'l labing birla tishing turfa tushibdur,

Kim ko'rgali bor shakli surayyo shafaq ichra

misralarida yor labini la'lga o'xshatadi va bu xil tashbih «la'li labing» birikmasida yaqqol ko'rinib turadi: unda mushabbih ham, mushabbihun bih ham mavjud. Endi Lutfiyning mana bu baytiga diqqat qilaylik:

La'lig'a boqsam bilurkim, ko'nglum ul yon tortadur,

Noz ila o'lturg'ali aytur «Seni qon tortadur».

Birinchi misradagi «la'lig'a» so'zi aslida «yoqutiga» deb tushuniladi. Ammo o'quvchi bu so'zda «la'l labig'a» ma'nosini angelaydi. «Lab» so'zining tushirib qoldirilishi bayt ma'nosiga xalal bermagan, aksincha, uni yanada kuchaytirgan.

Bu san'at mumtoz she'riyatimizda ham, zamonaviy adabiyotimizda ham keng qo'llaniladi.

TASHBIHI MASHRUT (shartli o'xshatish). Bu xil tashbihda bir narsaning ikkinchi bir narsaga o'xshashi ma'lum shartga bog'liq qilib qo'yiladi. Alisher Navoiyning quyidagi baytlari shu san'atga asoslanib yozilgan:

Qadingg'a sarv ra'no o'xshagay, lek ul zamonkim sarv

Xiromon bo'lg'ayu, gul bergay, ul guldin samar bo'lg'ay.

Ogahiy qalamiga mansub bo'lgan:

Ko'ngil bir bahri zaxxor, ondadur pokiza gavhar so'z,

Vale shart ulki, ma'ni shohidig'a bo'lsa zavar so'z,

Shuningdek,

Emas charx oftobi, ul quyoshga o'xshamoq mumkin,

Magar bo'lsa ongo sarvu sihi qad, obihayvon lab

baytlarida ham tashbihi mashrut qo'llangan. Zero, birinchi baytda so'z gavharga o'xshashi uchun uning «ma'ni shohidiga zavar bo'lishi», ya'ni chuqur mazmunga ega bo'lishi shart qilib qo'yilyapti, ana shunday talabga javob bersagina, so'z gavhari o'xshaydi. Ikkinchi baytda esa oftobning to'g'ri o'sgan sarvdek qaddi, hayot suvidek labi bo'lsa quyoshimga, ya'ni sevgili yoringa o'xshashi mumkin, degan fikr ifodalangan.

TASHBIHI TASVIYA (tenglashtirilgan o'xshatish). Bu xil tashbihda shoir o'zidagi biron narsani tasvirlanayotgan shaxsdagi biron narsaga o'xshatadi-da, so'ng undagi biron narsa bilan o'zidagi narsani qiyoslaydi. Masalan, Navoiyning

Mening firoqimu oning visoli tun bila tong,

Bu nav' dahrda yo'q ehtimole tun bila tong.

...Tunung hujasta, tonging qutlug' o'lsun, ey mahvash,

Ki ikki banda sanga bo'ldi xoli tun bila tong

baytlarining birinchi misrasida tashbihning ana shu turi ishlatilgan. Shoir ushbu misrada o'z firog'ini ham, yor visolini ham tun bilan tongga o'xshatadi.

Boburning

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,

Sen shu'lasen, ul shu'laga men quldurmen

misralarini ham ana shu tashbihga nisbat berish mumkin.

TASHBIHI IZMOR (yashirin o'xshatish). Bu xil tashbihda shoirning diqqati boshqa narsaga qaratilgandek tuyiladi, ammo uning asl maqsadi o'xshatish bo'ladi. Masalan:

Yuzinda xaymudur yo manglayidin qatra, vah, ko'rgil,

Ki guldinmi oqar shabnam, quyoshdinmu oqar axtar? (Navoiy)

TASHBIHI TAFSIL. Bu xil tashbihni qo'llar ekan, shoir avval bir narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatadi-yu, keyin o'z o'xshatishidan voz kechgandek, undan qaytgandek bo'ladi. Bu voz kechish jiddiy bo'lmay, aksincha tasvirlanayotgan belgini yanada kuchaytirish maqsadini ko'zlaydi. Masalan:

Sarosar guiyo ul nay guhardir,

G'alat qildim, labolab nayshakardir. (Navoiy)

TASHBIHI AKS (teskari o'xshatish). Bu xil tashbih qo'llanganda shoir bir narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatish bilan cheklanmay, ikkinchi narsani yana birinchiga qiyoslaydi, ya'ni avval mushabbihni

mushabbihun bihga, cho'ng aksincha, mushabbihun bihni mushabbihga o'xshatadi. Masalan, Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidan olingan mana bu baytni ko'zdan kechiraylik:

Do'zax o'lub gulshani jannat sirisht,

Do'zax oning qoshida bog'i behisht.

Shoir birinchi misrada do'zaxni jannat gulshaniga o'xshatgan bo'lsa, ikkinchi misrada aksincha jannat bog'ini do'zaxga qiyoslaydi.

TALMIH

Talmih («nazar solmoq») she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir.

Shoirilar muhabbat mazusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Vomiq va Uzro», «Tahir va Zuhro» kabi qissalar, dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O'quvchi u yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z oldida o'sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo'lgan g'oyani, fikrni, tuyg'uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero bu jarayonda o'quvchi o'zi mutolaa qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi. Masalan, Lutfiyning

Husni naslidan seningdek oy paydo bo'lmadi,

Mohi Kan'oniy dagi ham muncha zebo bo'lmadi

Baytidagi «Mohi Kan'oniy»ga ishorani ko'rar ekan, darhol ko'z oldiga mashhur «Yusuf va Zulayho» dostoni, undagi Yusuf qiyofasini keltiradi. Ma'lumki, Yusuf jahondagi bor go'zallikning o'ndan to'qqizini o'zida mujassamlantirgan inson. O'quvchi endi Lutfiy tasvirlagan mahbubani Yusuf bilan qiyoslab, uning Yusufdan ham go'zalligi haqidagi tasavvurga ega bo'ladi.

She'riyatimizda Sharqda keng mashhur bo'lgan muhabbat qissalari, ularning qahramonlari nomlariga ishora qilish ham juda ko'p uchraydi. Alisher Navoiyning

Sendin o'rgangan kibi Laylo-yu Shirin zulmu kin,

Mendin o'rganmak kerak Majnun bila, farhod ishq,

Uvaysiyning

Jafo tegdi boshimga Layliyu, Shirinu Uzro din,

Bukun Vomiq ila Majnunu Farhodimni sog'indim

kabi baytlaridagi talmehlar shu xil ishoralardir.

Shoirilar ko'pincha Qur'on suralarida aks ettirilgan afsonalar, hikoyalar qahramonlari: paygambarlar, farishtalar nomlariga ishora qiladilar. Atoiyning

Senga bersun ilohi Nuh umrin,
Manga ham furqatingda sabri Ayyub.
...Bu gam kim bizdadur, bu husn sizda,
Seni Yusuf desunlar, bizni Ya'qub,

Gadoiyning

Gaybtin bo'lgon huvaydo Xizri farruxpaymudur.
yo magar Jabriyl qildi arshi a'zamdin nuzul
kabi baytlaridagi talmehlar shular jumlasidandir.

HUSNI TA'LIL

«Husni ta'lil» arabcha «chiroyli dalillash» ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biron sabab ko'rsatish san'ati shu nom bilan ataladi.

Masalan, mana bu baytda Navoiy xusni ta'lil san'atidagi foydalangan holda takrorlanmas timsoliy ifoda yaratgan:

Qatra qonlarkim tomar ko'ksimga urg'on toshdin,
Zahmdindir demakim, qon yig'lar ahvolimga tosh.

Hijron alamiga chiday olmagan oshiq o'z ko'ksiga tosh urar ekan, yerga qon tommoqda. Shoir ta'rificha, buning sababi toshning badanga yetkizgan yarasi emas (qon yaradan oqayotgani yo'q balki oshiq qalbiga urilgan tosh uning bag'ridagi g'amning kuchliligiga chiday olmasdan qonli yosh to'kib yig'lamoqda. Ko'rindiki, bu xil ta'lil-sabab obrazli fikrning kuchaytirilishiga xizmat qilgan.

She'rda keltirilgan husni ta'lil, Sharq adabiyotshunosligida ta'kidlanishicha, qat'iy bo'lishi lozim. Agar gumon ma'nosida qo'llanilsa, u holda bu xil sabablar «shibhi xusni ta'lil ya'ni «shubhali chiroyli sabab» deb ataladi.

Takror qilur vasfi qading sarv, oning uchun

Ko'p tebranur andoqki kishilar sabaq ichra. (Lutfiy)

TAMSIL

Tamsil «misol keltirish» ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat-mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'lib, ijodkor diqqati ham badiiy tafakkur

bilan hayotiy voqealik orasidagi o'xshashlikka qaratilgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, birinchi misrada bayon qilingan fikr hayotiy hodisaga o'xshatiladi, shoir ifodalayotgan timsollar hayotiy misoldagi narsa yoki tushunchalarga g'oyatda mos bo'lib tushadi. Jumladan, Navoiyning mashhur

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lgach quyosh

baytida qo'llangan tamsil san'ati yulduzlar paydo bo'lganidan so'ng quyosh ko'rinmay qolishi hodisasi bilan birinchi misrada ifodalangan timsoliy ifoda: mahbuba yuzini bekitgach, oshiq ko'zidan yosh sochilishi hodisasi o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan. Yor orazi bilan quyosh, oshiq ko'z yoshi bilan yulduz qiyoslanib, birinchi misradagi fikrning yorqin badiiy tasviriga erishilgan.

Tamsil asosan birinchi misradagi ifodani o'xshatish yoki dalillash maqsadini ko'zlaydi. Yuqoridagi baytda shoir diqqati o'xshatishga qaratilgani aniq ko'rinib turibdi.

Lutfiyning

Ey ko'ngul, jonni xayoli olida qil peshkash,
Har nima bo'lsa aziz, eltur kishi mehmon sori

baytida esa ikkinchi misrada keltirilgan hayotiy hodisa-mezbonning o'zi uchun eng aziz bo'lgan narsani mehmon oldiga qo'yishi birinchi misradagi fikr qiyosi emas, balki dalili, tasdig'iga xizmat qiladi. Baytdagi «Har nima aziz bo'lsa, kishi mehmoniga tutadi, shuning uchun, ey ko'ngul, sen ham joningni, ya'ni eng aziz narsangni yor xayoliga peshkash qil», – degan mazmun ham tamsil mohiyatini ko'rsatib turibdi.

IRSOLI MASAL

Irsoli masal «maqol kiritish» ma'nosini bildirib, she'riyat va nasrda ifodalanayotgan biron fikrni isbotlash uchun xalq maqolnini keltirish san'ati sanaladi. Masalan, Navoiyning

O'qlaring ko'nglumba tushgach kuydi ham ko'z, ham badan,

Kim kuyar ulu g'urug' chun naysitong'a tushdi o't

baytining ikkinchi misrasida keltirilgan «qamishzor (nayiston)ga o't tushsa ho'lu qurug' baravar yonadi» maqoli birinchi misrada aytilayotgan fikrni dalillash vositasida yanada chuqurlashtirishga xizmat qilgan. Shuningdek, shoirning

Chun masal bo'ldi soching zulm ichra yoshurmoq ne sud,
Mushk isin yoshursa bo'lmas, bu masal mashhur erur

baytining ikkinchi misrasida qo'llangan «mushk isini yashirib bo'lmaydi» maqoli ham avvalgi misradagi fikr-ma'shuqa sochiniing xushbo'yligi haqidagi fikrni ta'kidlashga yordam beryapti.

Ba'zan ikkita maqol keltirilgan baytlar ham uchraydi. Masalan, Atoiyning

Bo'ldi bag'rim suv g'amingdin «Yaxshilik qil, sol sug'a»,

Oxir ey gul xirmani albatta, «har ekkan o'rar»

baytida ikkita maqolga murojaat qilingan. Bu holda shoir «irsoli masalayn» (ikkita maqol keltirish) san'atiga asoslangan.

O'zbek mumtoz she'riyatida ba'zan «irsoli masal» san'ati asosida hamma baytlarida maqol ishlatilgan she'rlar ham uchrab turadi. Masalan, Lutfiyning mana bu g'azali shunday asarlardandir:

Ayoqing'a tushar har lahza gisu,

Masaldurkim: «Charog' tubi qorong'u».

Tutarmen ko'zki, ko'rsam orzingni,

Ki derlar: «Oqqan ariqqa oqar suv».

Yuzungni tuttim ortuq oyu kundin,

«Kishining ko'zidir, ore, tarozu».

Ko'zung qonimdin iymalmas, ajabtur,-

Ki: «Qo'r qar qaydakim qon ko'rsa hindu».

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat.

Ki ayturlar: «Tilaganni tilagu».

She'rning har qaysi baytidagi ikkinchi misrada oldingi misradagi fikr bilan bog'liq bo'lgan, uni ta'kidlash, tasdiqlashga xizmat qiluvchi maqol keltirganini ko'rish qiyin emas.

She'riyatda qo'llangan maqol hamma vaqt ham aynan, o'zgarishsiz qo'llanavermaydi. Ko'pincha maqollar ayrim tahrirlar bilan she'r mazmuniga singdirib yuborilishi ham mumkin.

LAFF VA NASHR

«Yig'ish va yoyish» ma'nosini ifodalovchi ushbu san'at she'r baytida avval bir necha narsa yoki tushuncha nomini ketma-ket keltirib, keyin ular haqidagi hukmlarni ketma-ket bayon qilishni nazarda tutadi. Bundan asosiy maqsad esa nomlari keltirilgan narsa yoki tushunchalarni bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlashdir. Shoirilar ana shu maqsadni ko'pincha tashbih yoki mubolag'a vositasida amalga oshiradilar. Shu jihatdan qaraganda laff va nashrni aksar hollarda yashirin tashbih deb atash mumkin. Chunki shoir narsalar va ular haqidagi hukmlarni sanar ekan, aniq o'xshatish yo mubolag'a qo'llamayotgandek bo'lib ko'rinadi. Masalan, Atoiy bir g'azalida

Bu orazu zulfu qadu qomatki seningder,

Rashki suman-u sunbul-u ar'ar etilibsen

Baytining birinchi misrasida mahbuba orazu, zulfi, qaddu qomatini sanab keltiradi-da, ikkinchi misrada ulardan har biri haqidagi fikrlarni bayon qiladi: orazni sumanga, zulfni sunbulga, qaddu qomatni esa ar'arga qiyoslaydi, lekin misra mazmuniga ko'ra shoir «Rashki suman-u sunbul-u ar'ar yetilibsen» deb ta'riflar ekan, diqqati boshqa narsaga-rashkka qaratilgandek tuyuladi. Vaholanki, uning muddaosi tashbihdan boshqa narsa emas.

Nashrdagi hukm faqat tashbih-u tavsifdangina iborat bo'lmay, birinchi misrada sanalgan nomlar haqidagi xilma-xil fikrlardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, Boburning

Hadisu la'lu raftoru jamolingdin erur hardam

Tilim go'yo, so'zim rangin, ko'ngul xurram, ko'zim ravshan

Baytidagi laff va nashrda mahbuba husni jamolining vasfi berilmay, uning oshiq kechinmalari, xulq-u odobiga ko'rsatgan hayotbaxsh ta'siri o'z aksini topgan. Ogahiyning

Xoli mushkinlarki, yer tutmish labi shirinida,

Xayli hindudurki, gavgo qildi shakkar ustida

yoki

Ikki mushkin kokili ostida gulgun chehrasi

Husn ganjidurki, yotmish ikki ajdar ustida

baytlaridagi nashrlar nafis bir hayotiy lavha ko'rinishini olgan.

Ushbu shoirning

Xolu ruxsori gamida o'yla o'zdin bormisham,

Kim tafovut faxm eta olmon qarou oq aro

baytidagi nashr rang ifodasida aks etadi.

Laff va nashr bir misraning o'zida ham qo'llanishi mumkin. Bu holda misraning birinchi qismida narsa yoki tushunchalar nomi sanalsa, ikkinchi qismida ular haqidagi hukmlar bayon qilinadi. Masalan, Sakkokiy qalamiga mansub

Og'zingu tishingni ko'rdi, g'unchau dur dedi rost,

Qaddinga qilgan nazar sarvi xiromon otadi

baytining birinchi misrasida avvaliga mahbuba og'zi-yu tishi tilga olinib, aniqrogi yigilib (laff), so'ng ularning tashbihiy atamalari: g'uncha va dur ifodalangan. Mazkur shoirning

Ul tishingu erningni ko'rub bir kularingda

Bu ikki ko'zum la'lu gao'har bahri-yu koni

baytida laff va nashrning yanada murakkabroq-silsilali bir turi qo'llangan. Chunki birinchi misrada mahbuba tishi-yu irni (labi) sanalib, ikkinchi misrada avvaliga ular la'l va guharga qiyoslanadi-da, so'ng ketma-ket ushbu so'zlarning ham nashri berilib, la'l bahri va guhar koni tushunchasi ro'yobga chiqadi.

She'riyatimizda laff bilan nashr tartibining o'zgarishi ham uchraydi. Aksar hollarda laff avval ko'pincha, birinchi misrada, nashr ikkinchi misrada keltiriladi, lekin buning aksi, ya'ni avval nashr, keyin laff kelgan holatlarga ham duch kelamiz. Chunonchi, Gadoiyning

Sunbulu gul butgusidur tufrog'indin begumon,

Zulfu yuzung hasratinda chunki qilgumdur vafot,

Boburning

Sabru hushu aqlu dinimni olibdur, naylayin,

Sarv qaddi, gul ruhi, rayxon xati, nasrin bari

baytida shunday holatni kuzatamiz.

Laff va nashr boshqa san'atlar bilan birgalikda ham qo'llanaveradi, xususan, tajohul orif usuli bilan bitilgan baytlarda laff va nashr yanada jozibaliroq ohang beradi. Masalan, Ogahiy qalamiga mansub

Yuzida qatrai ho'ymu ekan tomar yohud,

Nujum mehr uza sayyormu ekin oyo

baytida qo'llangan nomurattab laff va nashr, Komil Xorazmiyning

Xating ichra gulfom la'lingmudur

Va yo bargi gul tushdi rayxon aro?

baytidagi laff va nashr ham xuddi shunday tajohul orif usuli bilan

uyg'undir.

ISTIORA

Istiora arabcha so'z bo'lib, «biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq» degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uni haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati sanaladi. Ko'pincha bu ikki ma'no o'zaro o'xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih san'atiga yaqin turadi. Istiora aksar hollarda tashbihi kinoyaga, ya'ni mushabbihi tushirilgan tashbihga teng keladi. Masalan, Boburning

Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,

Oyog'inga tushub bargi xazondek muncha yolg'irdim

baytidagi «gul» so'zi o'z ma'nosida qo'llanayotgani yo'q, ya'ni shoir haqiqiy gulga emas, balki gul kabi go'zal mahbubaga murojaat qilmoqda.

Binobarin, gul so'zi mahbuba, inson ma'nosida ishlatilyapti. Shuning uchun uni istiora deb hisoblash mumkin.

Umumiy savollar:

1. *Ilmi badi' haqida ma'lumot bering.*
2. *Balog'at ilmi taraqqiyotiga alohida hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?*
3. *Ilmi badi' haqida yozilgan dastlabki turkiy tildagi asar qaysi?*
4. *Lafziy san'atlar haqida ma'lumot bering.*
5. *Ma'naviy san'atlar haqida ma'lumot bering.*

Adabiyotlar:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA'LIM-MEDIA, 2019.
2. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. T.: 2006, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 196-201-betlar.
3. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: "O'qituvchi", 1996. – B. 124.
4. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999. – 240 b.

9-mavzu: ILMI QOFIYA HAQIDA MA'LUMOT

Reja:

1. *Qofiya unsurlari.*
2. *Muqayyad qofiya.*
3. *Mullaq qofiya.*

Lirik asarlarning o'qimishlilikini ta'minlashda, ta'sir kuchini oshirish, badiiy nafosatini ro'yobga chiqarishda, albatta, qofiya alohida o'rin tutadi. Shoir o'z badiiy – g'oyaviy niyatini o'quvchiga oshkor qilar ekan, uning diqqatini she'rning asosiy nuqtasi – qofiyaga jalb qiladi. Bu bilan she'r faqat qofiya uchun yaratilar ekan, degan fikr uyg'onmasligi kerak. Ijodkor yaratgan asarining mukammalligini ta'minlashda qofiyaga alohida e'tibor qaratishi tabiiy. Bunda har bir ijodkorning mahorati qanday qofiya tanlashi, raviy va unga yondosh tovushlarning o'zaro mutanosibligi muhimdir.

Qofiya – arabcha (قافية) so'z bo'lib, "ergashuvchi, izidan boruvchi" degan ma'nolarni anglatib, o'zaro ohangdosh so'zlarning she'r misralarida tizimli bo'lib kelishidir⁶.

O'zbek adabiyotshunosligida qofiya bo'yicha bir qator ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilgan⁷. Bu ishlar ichida eng ahamiyatlisi

⁶ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: "O'qituvchi", 1996. – B. 108.

filologiya fanlari doktori To'xta Boboyevning "She'r ilmi ta'limi" risolasidir. Unda she'r ilmi asoslari, xususan, qofiya mukammal tarzda tasniflab, misollar yordamida ilmiy asoslab berilgan.

Qofiya tarkibida o'zak va qo'shimchalarning ishtirokiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1) Muqayyad qofiya (o'zak qofiya) – bunda qofiya so'z faqat o'zakdan iborat bo'ladi, ya'ni raviydan so'ng qo'shimcha kelmaydi.

2) Mutlaq qofiya – bunda qofiya so'z o'zak (negiz) va qo'shimchalardan tashkil topadi.

Bundan tashqari har bir qofiya tipi tarkibidagi tovushlar (ta'sis, ridf, qayd, daxil; vasl, xuruj, mazid, noyira) taqozosiga ko'ra ham bir necha turga bo'linadi. Bunday hodisa qofiya ilmida qofiya turlari deyiladi⁸.

Muqayyad va mutlaq qofiya tiplarining har biri tarkibida bir qancha qofiya turlari mavjud bo'lib, ularning adadini aniq belgilab berish mushkul masala. Biz bu borada T.Boboyev va A.Hojiahmedovlarning ilmiy yondashuvlariga tayanamiz.

Mumtoz qofiya tarkibini 9 ta tovush tashkil qilib, 4 tasi (ta'sis, ridf, daxil, qayd) raviydan oldin (o'zak qofiya unsurlari), 4 tasi (vasl, xuruj, mazid, noyira) raviydan so'ng (qo'shimchali qofiya unsurlari) keladi. Raviyning o'zi esa qofiyaning o'q tomiri hisoblanadi. Qofiya turlari esa ana shu elementlarning o'zaro ma'lum tartibda mujassamidan yuzaga keladi.

Muqayyad qofiya va uning turlari

1. Muqayyadi mujarrad qofiya – bunday qofiya turi bir o'zakdan iborat bo'lib, qisqa unli tovushga tayanadigan yopiq hijodan tashkil topadi. Bunda, ko'pincha, raviy harakatsiz undosh tovush bilan ifodalanadi. (safari – zar qofiyasida "r" tovushi raviy – harakatsiz undosh). Shunday qofiyalar "mujarrad", ya'ni "yalang'och qofiya" deb yuritiladi.

Tuzgali lashkarga yarog'i safari,

⁷ To'ychiyev Ummat. Qofiyada tirkak // O'zbek tili va adabiyoti. – 1962. – №6. – B. 24.; Shu muallif. Qofiya va she'r sistemasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1975. – №4. – B.36.; Yana shu muallif. "Badoyi" ul – bidoya" devonida qofiya. – 1993. – №1. – B. 44.

Sarimsoqov Bahodir. Saj' va qofiya. / O'zbek tili va adabiyoti. – 1972. – №1. – B. 78.; Shu muallif. Sodiq Mirzayevning "O'zbek adabiyotida qofiya" nomli ilmiy maqolasi va uning matni. – 1972. – №5. – B. 81.

Mirhaydarov H. Qofiyaning lirik she'r kompozitsiyasini yaratishdagi roli. // O'zbek tili va adabiyoti. – 1972. – №4. – B.51.

Rustanov Alibek. Qofiya strukturasiga oid bir "nazariya" haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1976. – №3. – B.43.

Sharofiddinov Xursand. O'zbek she'riyatida qofiya va urg'u munosabati // O'zbek tili va adabiyoti. – 1998. – №6. – B.12.

⁸ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: "O'qituvchi", 1996. – B. 124.

*Panjai ehsoni bila to'kti zar*⁹.

Quyosh tobidin raf' bo'ldi asar,

Tog' ajzosida mahv bo'ldi shara. (227-b)

Agar borining vasfin etsam raqam,

Tamom o'lmag'ay hashrg'a tegru ham. (284-b)

2. **Qofiyayi muqayyadi muassasa** – ta'sisli (mustahkam) qofiya. Ushbu qofiya turida raviydan oldin bir harakatli undosh bo'lib, undan ilgari bir cho'ziq unli "o" keladi:

Jahonda bu esa zolim ma'oli,

Kechar tongla oning ne nav' holi. (40-b)

Motami ichra yoqib, ko'kni ko'ngullar ohi,

O't kuli ichra nishon anjum-u mehr-u mohi. (117-b)

Tuzub ul mezbonlar Xusravona,

Ziyofatkim, qilib tahsin zamona. (177-b)

3. **Ta'sisli va daxilli muqayyad qofiya.** Bu qofiya ta'sisli va daxilli o'zak tovushlaridan tashkil topadi. M-n., qoyil – zoyil: "I" raviy, "o" cho'ziq unlisi ta'sis, "i" – daxil.

Chu mindi shoh oni ul ikki nodir,

Boshig'a sochtilar turluk javohir. (177-b)

Bu baytdagi "r" raviy, "o" cho'ziq unlisi ta'sis, "i" daxil hisoblanadi. Bunday qofiya asarda juda ko'plab uchraydi.

Chun falak hayrat aylasa zohir,

Man nechuk sharhig'a bo'lay qodir. (185-b)

Uchmoq bilaki havog'a lochin,

Hayratdin etib ulusni sokin. (305-b)

4. **Ridf-i asliyli muqayyad qofiya.** Bu qofiya turi ridf-i asliy (undosh raviydan oldidan "o" cho'ziq unlisi va vazn talabiga ko'ra "u", "o'", "i", "e" cho'ziq unlilarining kelishi) unsurlari ishtirokida hosil qilinadi.

Hamisha bo'lub hozir-u xurramkor,

Mudom ehtiyot aylamak ixtiyor. (109-b)

Gohi uchubon baland shunqor,

Bir damda ov oldi necha xarvor. (305-b)

Yetushgach bodi sarsar, sadmati tez,

Par-u kohi nechuk bo'lmas sabukxez. (121-b)

Bu misollarda 1-, 2-baytlarda "o" ridf-i, 3-baytda "u" ridf-i, 4-baytda "e" ridf-i kuzatiladi.

⁹ Firdavs ul-igbol. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo'ja, S.Ro'zimboyev, A.Ahmedov. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 384 b. Bundan keyingi misollar bevosita shu manbadan olinganligi tufayli faqat sahifasi ko'rsatilib kutilaveradi.

5. Ridf-i mufradli muqayyad qofiya. Bunday qofiyaning tarkibida ridf-i mufrad unsuri (raviyga old tomonidan qo'shilgan undosh tovush¹⁰) bo'ladi.

*Gar ul qildi daryoyi rahmatg'a g'ays,
Jahon etti bahri musibatg'a g'ays . (155-b)
Nihoyatdin ortiq erdi anda sayd,
Bori ko'rmagan tushda ham dami qayd . (179-b)
Sipah bahri ichra tushub o'yla mayj,
Bosib yer yuzin na haziz, na ayj . (184-b)*

6. Ridf-i murakkabli muqayyad qofiya. Bunday qofiya tizimida ridf-i murakkab (raviy bilan ridf-i asliy orasida keladigan x, r, s, sh, f, n undoshlari qatnashgan qofiya) ishtirok etadi.

*Qilib ba'zi no'gi sinonini tund,
Ki, to bo'lmag'ay yovni sancharda kund . (190-b)
Otib ba'zi kamondin xasmg'a chust,
Solib bo'ynig'a yiqti yer uza rust . (303-b)*

7. Qaydli muqayyad qofiya. Bunday qofiyalar tarkibida qayd unsuri (raviydan oldin kelgan b, n, z, r, s, f, x, sh, g', h undoshlari qayd deyiladi, lekin uning ridf-i mufraddan farqi qayd unsuridan keyin qisqa unli talaffuz qilinadi) qatnashadi.

*Qol bo'lub arsayi olamda shoh,
Mulknı adli qilib erdi behisht.
Topti ajal xonasida mollig',
Chun ango farzini qazo berdi kisht . (46-b)*

Mutlaq qofiya va uning turlari

1. Mutlaq-i mujarrad qofiya – qo'shimchali (mutlaq) yakka qofiya. Bunda qofiyaning o'zagiga unli bilan boshlanuvchi bir yopiq bo'g'in (rag'bat-im – nisbat-im) yoki o'zakka a, i, o, e (kun-i – tun-i) unlilaridan biri tirkaladi.

*Xudovandiki millatg'a berib zayn,
Erur hukmidin oning din nizomi.
O'turg'ondek qamar kun manzilida,
Risolat shohining qoyim maqomi . (12-b)*

2. Ta'sisli mutlaq qofiya. Bu qofiya o'zagida ta'sis unsuri mavjud bo'lib, qo'shimchalardan biri bilan birikib keladi.

*Oningdek beki zafar anjomni,
Firuzandai sham'i Islomni . (154-b)*

¹⁰ Lekin bu o'rinda "qayd" unsurlaridan ehtiyoj bo'lish kerak.

*Shah yondiyu tushti bargohg'a,
Oromishi o'ldi ham sipohg'a . (178-b)*

3. Ta'sis va daxilli mutlaq qofiya. Bu xil qofiya o'zagida ta'sis bilan daxil unsurlari bo'lib, biror qo'shimcha bilan birikib keladi. Ya'ni qo'shimchali qofiyada raviydan oldin kelgan cho'ziq unli va raviy orasida harakatli undosh keladi.

*Har shahki erur muborizatkesh,
Hamvora zafar mulozimidur.
Olg'och qo'lig'a sinoni xunrez,
Iqbol ila fath lozimidur . (145-b)*

4. Ridf-i mufradli mutlaq qofiya. Bu turdagi qofiya o'zagida ridf-i mufrad unsuri bo'ladi va qo'shimcha bilan birikadi.

*Biri Som – u, biri Faromarzdek,
Biri Besutun, biri Alburzdek . (192-b)*

5. Ridf-i murakkabli mutlaq qofiya. Bunda qo'shimchali qofiya o'zagida ridf-i murakkab unsuri bo'ladi. Ya'ni raviydan oldin harakatli undosh tovush keladi.

*Doimo makr-u hayaldur peshasi,
Xalqg'a bermak firib, andeshasi . (355-b)
Qani adl-u oyin Luhrosbi?
Qani izzu tamkin Gushtasbi? . (156-b)
Vale saltanat nuri oyinasi,
Zamiri fuyuzot ganjinasi . (158-b)*

Qofiya san'atlari

1. Zulqofiyatayn – ziynatli qo'sh qofiya bo'lib, she'rida, bir emas, balki ikkita qofiya bo'ladi.

*Har kishikim, qolsa ondin bu sifat zikri jamil,
Yetsa tong yo'q tangridin har dam onga ajri jazil . (41-b)
Chu G'oyibxon quyoshdek bo'ldi toli',
Mahi ammor xasmin gildi g'orib.
Bo'ling hozirki, ul dog'i jahondin,
Otidek oxirulamr o'ldi G'oyib . (63-b)*

Ba'zan qofiyaning bu turida bir qofiya misra ichida, ikkinchisi misra oxirida kelishi mumkin:

*Chehrai dilorosi gardu qong'a anduda,
Kokili mutarroshi xor-u xasg'a oluda . (64-b)*

2. **Zulqavofi'** – ikkidan ortiq qofiya tarzida uchraydi, lekin misralar to'liq qofiyalanmagan bo'ladi.

Xulofat saririda shahlarg'a shoh,

Saodat shahrida tobanda moh. (157-b)

3. **Tarsi'-qofiya.** Bunda ikki misradagi barcha so'zlar o'zaro qofiyalanadi.

Jahongirlik burjida o'ftob,

Jahondorlik durjida durtob. (68-b)

To'lub ahli mavkabg'a dashti basit,

Bo'lub qal'a davrig'a lashkari muhit. (142-b)

Alar barcha yaxshidurur, san yomon,

Alar barcha bug'doydurur, san somon. (356-b)

4. **Kontrast qofiya** – zid ma'noli so'zlarni qofiya sifatida qo'llash.

Birovg'a qilib tiyg'i qat'i hayot,

Birovga ochib ramhi rohi mamot. (144-b)

Sipah gardidin yoshurub yuzini kun,

Bo'lub xalqg'a yog'duyi kun, tiyra tun. (283-b)

5. **Musajja'-qofiya** – ichki qofiya.

Yetib yo'lida to'-bato' ustuxon,

Bo'lub qat'ida o'lgan eldin nishon.

Qofiyaning fonetik alomatlari

1. **Ochiq qofiya** – qofiyadosh so'zlarning oxirgi bo'g'inlari unli tovush bilan tugaydi.

Yetib marg, bir dam tura olmadi

Demay davlati, nasli ham qolmadi. (42-b)

Bo'yla chog'da durri garonmoya,

Shohlar afsarig'a piroya. (67-b)

2. **Yopiq qofiya** – qofiyadosh so'zlar undosh tovush bilan tugaydi.

Xusho ulki qilg'oy adusini sayd.

Karam donasi birla bedom-u qayd. (12-b)

Ul masxara mufsid-u haromi suffok,

Zohir oti so'fi, zamiri nopok. (113-b)

Ba'zan ayrim she'rlarda ochiq va yopiq qofiya aralash kelishi mumkin:

Vahki ul orazi gulgunki ko'ngullar erdi zori,

Qilmish afsurda oni gard siyah rangi qizil qon.

Vahki, ul kokuli mushkinki, jahon erdi asiri,

Tufirroq uzra oni qilmishi xas-u xashak parishon . (64-b)

3. To'liq qofiya (to'q qofiya) – qofiyadosh so'zlarning bo'g'inlari o'zaro miqdor jihatidan mos keladi. Ko'pincha, qofiyadosh so'zlarning birinchi tovushlaridan boshqa tovushlari bir xil bo'ladi.

Bo'lub jam' andoq sipohi garon,

Ki sig'may jahong'a karon to karon . (71-b)

Chu tutti ajal jomi nur zahr anga,

Na davlat madad qildi, ne dahr onga . (73-b)

4. Noto'liq (och) qofiya – bunday qofiya turli unlilar (a – o, u – o', u – e, u – o), turli undoshlar (d – t, b – p, v – f, m – n, s – z ...) bilan hosil qilinadi. Shu bilan birga, bir tovush ortishi yoki tovush tushib qolishi bilan yasalgan qofiyalar ham **noto'liq qofiya** deb yuritiladi.

O'yla qo'zg'oldi lashkari jaror,

Kim urar mavji lujjai zaxxor . (189-b)

Falak joygoh-u xulofat shior,

Shahomat panoh- u shijoatda sor . (195-b)

Qofiya tirgovuchlari

1. Radif (arabcha رديف – *otga mingashib yoxud ergashib yurish*) – qofiyalanuvchi so'zdan keyin aynan takrorlanuvchi so'z yoki so'z birikmalari.

a) Bir so'zli radif:

Yana har kimsakim kelturmish erdi,

O'zining kishvarig'a surmish erdi . (46-b)

Qoldi chekkan ranji zoye oqibat

Bo'ldi bir gaz yerga gone' oqibat . (47-b)

b) ikki so'zli radif:

Choboq qilchiqi jondin ortuq bo'lub,

To'ng'uz qoni imondin ortuq bo'lub . (59-b)

Bevafodin hayo ayon bo'lmas,

Behayodin vafu ayon bo'lmas . (85-b)

d) uch so'zli radif:

Bori hiddati bir – biridin fuzun,

Bori qiymati bir – biridan fuzun . (283-b)

Har dam qilibon shikor bir nav',

Har lahza etib shikor bir nav' . (304-b)

2. Hojib (arabcha حاجب – *darvozabon*) – misrada qofiyadan oldin keluvchi so'z yoki so'z birikmalaridir.

Zulmu bad adlni aylab munzaviy . (67-a)
Shar' bila adlni aylab qaviy . (124-b)
Ba'zan ikkita hojib ko'zga tashlanadi: . (67-b)
Tug'di lekin kamol ila tavom,
Keldi lekin jalol ila hamdam . (67-b)

Umumiy savollar:

1. *Ilmi qofiya haqida ma'lumot bering.*
2. *Qofiya ilmi taraqqiyotiga alohida hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?*
3. *Ilmi qofiya haqida yozilgan dastlabki turkiy tildagi asar qaysi?*

Adabiyotlar:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T. TA'LIM-MEDIA, 2019.
2. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. T.: 2006, «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 196-201-betlar.
3. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: "O'qituvchi", 1996. – B. 124.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI UCHUN USLUBIY KO'RSATMALAR

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- Amaliyot mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- Ma'lum mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlash;
- Mavzular bo'yicha test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash;
- Alisher Navoiy g'azallari va dostonlaridan parchalar yodlash;
- Uy vazifalarini bajarish va h.k.

№	Mustaqil ishi mavzulari	Soat
1-semestr		
1	“Aruz va mumtoz poetikaga kirish” fanining maqsad va vazifalari.	2
2	Bo'g'in va hijo tushunchalari. Vasl va imola hodisalari.	2
3	Ramal bahrining musamman vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	2
4	Ramal bahrining musaddas vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	2
5	Hazaj bahrining musamman vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	2
6	Hazaj bahrining musaddas vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	2
7	Rajaz bahri vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	2
8	Mujtass bahri vaznlari tahlili (Alisher Navoiy g'azallari asosida).	2

9	Muzori' bahri vaznlari tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	2
10	Alisher Navoiy "Xamsa"sining vazn xususiyatlari.	2
11	Ruboiy vaznlari tahlili (Bobur ruboiylari misolida).	2
12	Tuyuq janri tahlili (Lutfiy tuyuqlari misolida).	2
13	Tuyuq va tajnis.	2
14	Qit'a janri tahlili (Mumtoz ijodkorlar she'rlari asosida).	2
15	Chiston tahlili (Navoiy va Uvaysiy chistonlari asosida).	2
16	Muxammas janri tahlili.	2
17	Musaddas janri tahlili.	2
18	Musamman va muashshar janrlari.	2
19	Tarjiband janri tahlili (Navoiy tarji'bandlari misolida).	2
20	Navoiy soqiynomasi kompozitsiyasi.	2
21	Lafziy san'atlar.	2
22	Qorishiq san'atlar.	2
23	Tashbih, tanosub, irsoli masal san'atlari	2
24	Tashxis haqida ma'lumot	2
25	Istiora, tazod, talmeh, tajohil ul-orif, husni ta'lim she'riy san'atlari	2
26	So'zlar takroriga asoslangan san'atlar.	2
27	Mumtoz adabiyotda qofiya turlariga namunalar topish.	2
28	Qofiya, radif va hojib.	2
29	Qofiya san'atlari.	2
		58

GLOSSARIY (LUG'AT)

Arzu		
Atama	Lugʻaviy maʼnosi	Istilohdagi maʼnosi
Bayt	uy	Ikki misra, ruknlarning qoʻshilishidan hosil boʻluvchi sheʼr boʻlagi
Rukn	ustun	Juzvlarning qoʻshilishidan hosil boʻladigan baytning ritmik boʻlagi
Arkon	Ruknlar	Qarang: "Rukn"
Juzv	qism	Harakatli va harakatsiz harflardan hosil boʻladigan baytning eng kichik qismi
Sabab	ustunlarni bogʻlaydigan argon	Ikki harfdan iborat juzv nomi
Sababi xafif	yengil sabab	Bir harakatli va bir sokin harfdan iborat juzv nomi
Sababi saqiyl	Ogʻir sabab	Ikki harakatli harfdan iborat juzv nomi
Vatad	Qoziq, pona	Uch harfdan iborat juzv nomi
Vatadi majmu'	Jamlangan vatad	Ikki harakatli va bir sokin harfdan iborat juzv nomi
Vatadi mafruq	Ajratilgan vatad	Bir harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harfdan iborat juzv nomi
Fosila	palos	Toʻrt va undan koʻp harfdan iborat boʻlgan juzvlar
Fosilayi sugʻro	Kichik fosila	Uch harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harfdan iborat juzv nomi
Fosilayi kubro	Katta fosila	Toʻrt harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harfdan iborat juzv nomi
Maxbun	etakni qisqartirish uchun tikilgan	Vatadi mafruqning 2-harakatli harfi (yettinchi harf)ni sokinga aylantirish.
Matviy	yigʻilgan	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 2-harfi)
Maqbuz	sugʻurib olingan	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 4-harfi)

Makfuf	qaytarilgan	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 5-harfi)
Makshuf	ochilgan, kashf etilgan	Sababi xafif sokinini olib tashlash (rukning 7-harfi)
Musha'as	sochilgan	"Ma'uvlotu" dagi so'nggi harakatli harfni olib tashlash
Axram	burni kesilgan	Vatadi majmu'ning bitta harakatli harfini olib tashlash
Aslam	buzilgan, nuqsonli	Vatadi majmu'ning birinchi harakatli harfini olib tashlash
Mahzuf	tashlangan	"fa'uvlun" da "xarm"ning yuz berishi
Abazz		Oxirgi sababi xafifni olib tashlash
Aslam		Oxirgi vatadi majmu'ni olib tashlash
Marfu'		Vatadi mafuruqni olib tashlash
Majbub	bichilgan	Ikkita sababi xafif bo'lganda avvalgisini olib tashlash
Maqsur	qusurli, qisqa qilingan	Rukn so'ngida ikkita sababi xafifni olib tashlash
Maqtu'	kesilgan	Sababi xafif sokinini olib tashlash, harakatini sokin qilish
Maxbul		Vatadi majmu' sokinini olib tashlash, ikkinchi harakatini sokin qilish
Abtar	ildizidan qo'porilgan	"Xabn" va "tayy"ni birgalikda bajarish
Majzu'		"Haf" va "qat"ni birgalikda bajarish
Axtam	tishi tagidan sindirilgan	"Ma'uvlotu" ruknidagi ikki sababni olib tashlash, so'nggi harf (t)ni sokin qilish
Mashkul	tushovlash	"Haf" va "qasr"ni birgalikda bajarish
Makbul		"Xabn" va "kaff"ni birgalikda bajarish
Majhuf		"Xabn" va "qat"ni birgalikda bajarish
Azall	sonning go'shtsiz qilib kesilishi	"fo'ilotun"ni "xabn" qilmoq hamda sababi saqiyl va sababi xafifni olib tashlash
Manhur		"Xarm" va "xatm"ni birgalikda bajarish
Marbu'		"Jaz'" va "kasf"ni birgalikda bajarish
Ashtar	nuqsonli qilish	"Xabn" va "batr"ni birgalikda bajarish


Axrab	vayron qilingan	"Qabz" va "xarm"ni birgalikda bajarish
Asram	oldingi tishi sindirilgan	"Kaff" va "xarm"ni birgalikda bajarish
Musabbag	toʻldirilgan	"Salm" va "qabz"ni birgalikda bajarish
Muzoll	etagi uzaytirilgan	Oxirgi sababi xafifga bitta sokin haf qo'shish
Muraffal		Vatadi majmu'ga bitta sokin harf qo'shish
Mavquf	toʻxtatilgan	Vatadi majmu'ga bitta sababi xafif qo'shish

MUNDARIJA:

Aruz vaznining paydo bo'lishi va turkiy she'riyatga kirib kelishi. Aruz tizimi haqida umumiy ma'lumot. Aruzning nazariy asoslari...	4
Aruzda rukn va bahr tushunchasi haqida ma'lumot.....	21
Musta'mal bahrlar, ularning turkiy she'riyatda qo'llanilish darajasi.....	26
Rajaz va mutaqorib bahrlari.....	34
Turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar...	38
Mumtoz poetika haqida umumiy ma'lumot. Balog'at ilmi.....	48
Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari.....	52
Ilmi badi' yoki badiiy san'atlar talqini.....	63
Ilmi qofiya haqida ma'lumot.....	76
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatmalar.....	84
Glossariy (lug'at).....	86

ISMAILOV IS'HAQJON OTABOYEVICH

ARUZ VA MUMTOZ POETIKAGA KIRISH
(O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA)



Bosishga 2020 yil 14 iyulda ruxsat etildi.

Bichimi 60/84 1/32. Bosma tobog'i 5.75 Adadi 100 dona.

"Ilm-ziyo-zakovat" mas'uliyati cheklangan jamiyatida taxrirdan o'tqazildi.

Toshkent, Shayxontoxur t., A.Qodiriy ko'chasi, 78

"KLASSIC PRINT" Mas'uliyati cheklangan jamiyati
bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor tumani, 19 mavze, 28-uy.